

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

Qo‘lyozma huquqida
UDK:336.22(575.1)

**MAXMUDOV BOBURBEK ASQARBEOVICH
BOJXONA NAZORATI VA UNING ASOSIY MAQSADI**

5A240109 – «Soliq va Bojxona huquqi»
(Moliya, bank va soliq huquqi)

Magistr
akademik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

**Ilmiy rahbar: O‘zbekiston
Respublikasi Davlat Soliq qo‘mitasi
soliq akademiyasi “Yuridik fanlar”
kafedrasi mudiri y.f.n., B.M.Shakirov**

**Ilmiy maslahatchi: Moliya, bank va
soliq huquqi kafedrasi dotsent
vazifasini bajaruvchisi: F.B.Isayeva**

TOSHKENT-2016

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA VAZIRLIGI
TOSHKENT DAVLAT YURIDIK UNIVERSITETI**

Kafedra: Moliya, bank va soliq huquqi
O‘quv yili: 2014-2016

Magistratura talabasi: Maxmudov
Boburbek Asqarbekovich
Mutaxassisligi: 5A240109 «Soliq va
bojxona huquqi»

MAGISTRLIK DISSERTATSIYASI ANNOTATSIYASI

Mavzuning dolzarbligi: Mustaqillik yillarida bojxona xizmatining roli ancha o‘sdi, bu sohadagi qonunchilik takomillashib, xalqaro talablarga javob bera oladigan darajaga chiqdi, samarali bojxona xizmati faoliyati uchun zarur huquqiy baza yaratildi. Bojxona nazoratini olib borish hamda bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish takomillashtirildi, bojxona to‘lovlarini undirishning yangi texnologiyalarini joriy qilish, ularni o‘z vaqtida va to‘g‘ri hisoblanishini ta‘minlash, davlat davlat byudjetiga to‘la hajmda kelib tushishini nazorat qilish kabi ishlar iqtisodiy ko‘rsatkichlarni o‘shirishga olib keldi.

Bojxona ishini olib borishda bojxona nazorati, bojxona qonunchiligiga rioya etilishini ta‘minlovchi eng muhim mexanizm hisoblanadi. Mamlakatimiz tashqi savdo va tashqi iqtisodiy faoliyatini tartibga solishda bojxona nazoratining ahamiyati beqiyosdir. Bojxona nazoratini amalga oshirish mexanizmini rivojlantirish uni takomillashtirish ijobiy ko‘rsatkichlarga erishishga yordam beradi, ya‘ni bojxona sohasidagi huquqbuzarliklarni oldini olish ularni kamaytirish, xalqaro savdo hamda tovar aylanmasini ortishiga va tashqi iqtisodiy faoliyat uchun qulay muhit yaratishga xizmat qiladi.

Tadqiqotning maqsadi: Davlat bojxona organlari faoliyatini kompleks tadqiq qilish, bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan bojxona nazoratining ahamiyati va uni tashkil etish va amalga oshirishning huquqiy asoslarini tahlil qilish, mazkur soha to‘g‘risidagi qonunchilikni o‘rganib chiqish, mazkur tadqiqotning maqsadi qilib belgilandi.

Tadqiqot vazifalari:

- Bojxona nazoratining mohiyati hamda uning maqsad, vazifalarini tahlil qilish;
- Bojxona nazoratini amalga oshirish shakllarini o‘rganib chiqish va uni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- Bojxona nazoratining tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishdagi rolini asoslash;
- Bojxona nazorati to‘g‘risidagi qonunchilikni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- Bojxona nazoratini amalga oshirishda davlat bojxona qo‘mitasi va uning quyi organlarining tutgan o‘rni va o‘ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

Tadqiqot obyekti va predmeti: Bojxona nazorati va uni amalga oshirish jarayonida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar tadqiqotning obyekti tashkil etadi.

Bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik va qonun osti aktlari hamda xorijiy davlatlar qonunchilik amaliyoti tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning metodologik asosini ilmiy metodlar – tarixiylik, tizimlilik, dialektik, mantiqiylik hamda maxsus metodlar – qiyosiy-huquqiy tahlil, rasmiy yuridik va boshqalar tashkil etadi.

Ilmiy rahbar: O‘zbekiston Respublikasi
Davlat soliq qo‘mitasi soliq akademiyasining
“Yuridik fanlar” kafedrasi mudiri, y.f.n.:
B.M.Shakirov

Magistratura talabasi:
B.A.Maxmudov

**MINISTRY OF JUSTICE OF REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT STATE UNIVERSITY OF LAW**

Department: Finance, banking and tax law

Academic year: 2014-2016

Graduate student: Mahmudov Boburbek Asqarbekovich

Speciality: 5A240109 "Tax and customs law"

ANNOTATION

Importance of the topic: The role of the customs service has increased during the years of independence, the legislation has improved in this field which can meet the requirements of the international level, and the necessary legal framework has been created for the effective activity of the customs service. Improvement carrying out the work of customs and customs clearance, the introduction of a new collection of customs duties, to ensure the timely and accurate reporting, public works, such as control over the state budget in full has led to an increase in economic indicators.

Customs control is the most important mechanism to ensure compliance with the law in carrying out the work of customs. The importance of customs control is irreplaceable in regulation of the country's foreign trade and foreign economic activity. To improve the development of the mechanism of realization of customs control will help achieve positive results, which means it serves to prevent and to reduce customs offenses in the field of international trade and trade turnover and the creation of a favorable environment for economic activity.

The aim of the study: to study the complex activity of the customs authorities of the State, to analyze the importance, establishment and legal fundamentals of implementation of customs control carried out by the customs authorities, to study the legislation of this sector is the main goal of this research.

Research objectives:

- to analyze the nature and its goals, objectives of customs control;
- to examine the forms of implementation of customs control and to develop proposals to improve it;
- to justify the role of customs control in regulation of foreign economic activity;
- to develop proposals to improve the legislation on customs control;
- to analyze the role and specific features of the State Customs Committee and its subordinate bodies in the implementation of customs control;

Research object and subject: the object of the research is the customs control and the legal relations arising in the process of implementation customs control.

The subject of the research are regulating legislation and relating documents, the legal practice of foreign countries arising in the process of the implementation of the customs control.

Methodological basis of research consists of scientific research methods– historical, dialectical logical and also special methods – a comparative-legal analysis, official legal methods and others.

Supervisor: the head of "Legal Studies"
department of Tax academy of
State Tax Committee of Republic of Uzbekistan, c.l.s.:
B.M.Shakirov

Graduate student:
B.A.Maxmudov

MUNDARIJA.

Kirish.....	3-11
I BOB. Bojxona nazoratining tashkiliy huquqiy asoslari.....	12
1.1 § O‘zbekiston Respublikasida Bojxona ishi va bojxona nazorati munosabatlarining vujudga kelishi hamda rivojlanish tarixi.....	12-17
1.2 § O‘zbekiston respublikasida bojxona nazoratini olib boruvchi organlar tavsifi hamda ular faoliyatini huquqiy tartibga solish asoslari.....	18-26
1.3 § Bojxona organlari tomonidan bojxona nazoratini olib borish tartibi hamda uning maqsad va vazifalari.....	27-42
II BOB. Bojxona nazoratining turlari hamda uning asosiy shakllari va huquqiy mohiyati.....	43
2.1 § Yengil avtotransport vositalari va yuk avtotransport vositalari harakati ustidan bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi.....	43-50
2.2 § Temir yo‘l transport vositalari va Avia transport vositalari hamda Suv transporti vositalari harakati ustidan bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi.....	51-56
2.3 § Jismoniy shaxslar harkati ustidan bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi.....	57-60
III BOB. Bojxona nazorati va uni takomillashtirishning ayrim masalalari.....	61
3.1 § Xorijiy mamlakatlarda Bojxona nazoratini amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	61-73
3.2 § Bojxona nazoratini tashkil etish va uni takomillashtirish masalalari.....	74-92
XULOSA.....	93-96
Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.....	97-103

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi: Tarixan hozirgi O'zbekiston hududi shunday joy bo'lganki, bu yerda juda ko'hna savdo yo'llari(Buyuk ipak yo'li) tutashgan, jo'shqin tashqi aloqalar va turli madaniyatlarning bir-birini boyitish jarayoni kechgan.¹ Bugungi kun ham bundan mustasno emas. Bojxona ishi - davlat iqtisodiyotini, tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishdagi muhim richaglardan biridir. Davlat iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va ta'minlash iqtisodiyotning asosiy institutlaridan biri bo'lgan bojxona xizmatiga tegishli. Tashqi savdo aylanmasini tartibga solishda ishtirok eta borib, bojxona xizmati davlat byudjetini to'ldirib boradi va shu yo'l orqali iqtisodiy rivojlanish omili bo'lib xizmat qiladi.

Bojxona ishida bojxona nazoratini va uni tashkiliy-huquqiy masalalarini o'rganishda O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi ya'ni O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksi, «Davlat bojxona xizmati to'grisida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuni va bojxona nazoratiga tegishli bo'lgan qonun osti aktlari va boshqa qonunchilik hujjatlari hamda bojxona nazoratini tartibga solishdagi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi faoliyatini ilmiy tahlil qilish, amaliy ahamiyatini belgilashga e'tibor qaratildi.

Bojxona nazoratining xususiyati va ahamiyati shundaki u dastavval tashqi iqtisodiy faoliyat va tashqi savdoni tartibga solish bilan bo'g'liqdir.

Dunyoda biror-bir mamlakat o'z qobig'iga o'ralib, boshqa davlatlar bilan hamkorlik qilmasdan, taraqqiyotga erishgan emas. Sharq va G'arb mamlakatlarini bir-biriga bog'lagan Buyuk Ipak yo'li ham doimiy tijorat va madaniy aloqalarga intilish tufayli yuzaga kelgan.²

Bozor iqtisodiyoti sharoitlarida mamlakatimiz ochiq iqtisodiyot yo'lini tanlashi tufayli iqtisodiy munosbatlarda liberallashtiruv kuchaydi. Bu esa o'z navbatida mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda ba'zi muammolarni keltirib chiqarishi mumkin, ya'ni bundan ba'zi uddaburon «tadbirkorlar» davlat

¹ Karimov.I.A "O'zbekistonnong o'z istiqloil va taraqqiyot yo'li". –T.; «O'zbekiston». 1992 – b.13

² Alimbayev S.A «O'zbekiston Respublikasi bojxona hududida tovar ayirboshlashning tashkiliy huquqiy muammolari» dis.avtoreferat. – T.; 2003. – b.9

chegasini bo'shroq joylarda mamlakat iqtisodiyotiga zarar yetkazuvchi tovarlarni bojxona nazoratidan yashirin ravishda o'z ixtiyoricha o'tkazishga urinishlari mumkin. Binobarin, mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda davlatning tashqi iqtisodiy faoliyat sohasi bojxona organlari uchun eng ma'suliyatli yo'nalish hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida bojxona xizmatining roli ancha o'sdi, bu sohadagi qonunchilik takomillashib, xalqaro talablarga javob bera oladigan darajaga chiqdi, samarali bojxona xizmati faoliyati uchun zarur huquqiy baza yaratildi. Bojxona to'lovlarini undirishning yangi texnologiyalarini joriy qilish, ular o'z vaqtida va to'g'ri hisoblanishini ta'minlash, davlat davlat byudjetiga to'la hajmda kelib tushishini nazorat qilish kabi ishlar iqtisodiy ko'rsatkichlarni o'sishiga olib keldi.

Shu bilan bir qatorda shuni alohida ta'kidlash joizki mamlakatimiz bojxona qonunchiligi tobora takomillashtirib borilmoqda. Eski tahrirdagi bojxona kodeksi kodifikatsiyalangan bo'lsa ham hozirgi vaqtda jamiyatda yuz berayotgan o'zgarishlarini o'zida qamrab ololmayotgan edi. Bojxona qonunchiligi juda ham ko'plab qonun osti hujjatlaridan iborat edi. Yangi bojxona kodeksining qabul qilinishi bojxona sohasidagi mavjud muammolarni bartaraf etish imkoniyatini berdi.

Bojxona kodeskini yangi tahrirda qabul qilish zaruriyati kecha kelib chiqqani yo'q. Mazkur ish ustida ko'pdan buyon izlanishlar, tadqiqotlar olib borilayotgan edi.

Yurtboshimiz I.A.Karimov ta'kidlab o'tganidek, «Bojxona sohasidagi muammolarni yechish maqsadida amaldagi Bojxona kodeksining yangi tahririni ishlab chiqish zarurati bugungi kun tartibida turibdi. Mazkur kodeks barcha bojxona protseduralari bajarilishining ochiqligini ta'minlash, ichki bozorni sifatsiz kontrabanda tovarlar kirib kelishidan himoyalashga qaratilishi, bevosita ta'sir kuchiga ega bo'lgan normativ hujjat bo'lishi kerak.³

Yangi tahrirdagi bojxona kodeksi konseptual jihatdan mutlaqo yangi hujjat hisoblanadi. Xususan unda bojxona nazoratiga oid bobga o'zgartirishlar kiritilgan bo'lib, bojxona nazoratini amalga oshirish shakllari yettitadan o'n

³ Karimov.I.A «Erishilgan yutuqlarni mustahkamlab, yangi marralar sari izchil harakat qilishimiz lozim». Xalq so'zi gazetasi, 2006 yil 11-fevral

ikkitaga yetkazilgan. Qisqa qilib qilib aytganda mazkur kodeks xalqaro huquq normalari bilan belgilangan qoidalar va standartlarga to'la moslashtirilgan.

Hozirgi kunda bojxona ishi va bojxona nazorati va uni takomillashtirish hamda uni chuqur o'rganishning, keng ko'lamda tadqiqotlar olib borishning ahamiyati oshib bormoqda. Bojxona faoliyatini o'rganuvchilarning juda ko'pchiligi bu sohaga iqtisodiy hodisa sifatida qarashga ko'nikib qolishgan, ammo shuni yoddan chiqarmaslik lozimki, bojxona faoliyatini asosini juda ko'plab qonunlar va qonun osti aktlari tashkil qiladi. Bojxona faoliyatini belgilash sohasida hozirgi kunda huquqiy vositalarning o'zni kengayib bormoqda. Bu holat eng avvalo yuqorida ta'kidlanganidek, tashqi iqtisodiy faoliyat va tashqi savdo bilan bog'liq.

Tadqiqotning obyekti va predmeti: Bojxona nazorati va uni amalga oshirish jarayonida kelib chiqadigan huquqiy munosabatlar tadqiqotning obyekti tashkil etadi. Tadqiqotda asosiy e'tibor bojxona nazoratini amalga oshirish, bojxona nazorati shakllarini qo'llash bilan bog'liq muammolarga qaratildi. Bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladigan munosabatlarni tartibga soluvchi qonunchilik va qonun osti aktlari hamda bu boradagi xorijiy davlatlar qonunchilik amaliyoti tadqiqot predmetini tashkil etadi.

Tadqiqotning maqsadi va vazifalari: O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach davlat organlari tizimida mustahkam o'rin egallagan bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan bojxona nazoratining roli va uni tashkil etish va amalga oshirishning huquqiy asoslarini tahlil qilish, mazkur soha to'g'risidagi qonunchilikni o'rganib chiqish, tadqiqotning maqsadi qilib belgilandi.

Dissertatsiya ishining ana shu maqsadidan uning quyidagi vazifalari kelib chiqadi:

- Bojxona nazoratining mohiyati hamda uning maqsad, vazifalarini tahlil qilish;
- Bojxona nazoratini amalga oshirish shakllarini o'rganib chiqish va uni takomillashtirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- Bojxona nazoratining tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishdagi rolini asoslash;

- Bojxona ishi to'g'risidagi qonunchilikni takomillashitirish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;
- Bojxona nazoratini amalga oshirishda davlat bojxona qo'mitasi va quyi organlarining roli va o'ziga xos xususiyatlarini tahlil qilish;

Ilmiy yangiligi: Ishda ilk bor bojxona ishida bojxona nazoratini tashkil etish va bojxona nazoratini olib borish tartibi undagi mavjud muammolar tahlil qilinib, nazariy xulosalar chiqarildi va quyidagi takliflar himoyaga chiqarilmoqda:

1. Ba'zi olimlar umumiy bojxona nazoratini predmetiga ko'ra ikkiga bo'lishni taklif qilishadi: tovarlarning bojxona nazorati va transport vositalarini bojxona nazorati. Lekin biz bu fikrga qo'shila olmaymiz, sababi amaldagi qonunchilikka asosan bojxona chegarasi orqali harakatlanadigan barcha tovarlar va transport vositalari bir xil tartibda bojxona nazoratidan o'tkaziladi. Shu sababli bojxona nazoratining predmeti sifatida tovarlar va transport vositalari birgalikda qaralishi lozim va bojxona nazorati predmetini shu nuqtai nazardan ikkiga bo'linib o'rganish maqsadga muvofiq emas;

2. Bizni fikrimizcha bojxona faoliyatining tartibga soluvchi va huquqni muhofaza etuvchi maqsadlari iqtisodiy maqsadlar oldida ikkilamchi yoki hosila maqsadlar sifatida qarash maqsadga muvofiq. Negaki, bojxona ishining tartibga soluvchi maqsadlari iqtisodiy munosabatlardan, aksariyat hollarda davlatlararo iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi, huquqning muhofaza etuvchi maqsadlari ham davlatning iqtisodiy manfaatlari, iqtisodiy xafvsizligini ta'minlashga qaratilgan. Jumladan, «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi O'zbekiston respublikasi qonunining 12-moddasida Davlat bojxona qo'mitasini terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vazifalari, aynan, bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalarini noqonuniy o'tkazishga qarshi kurash jarayonida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

3. Yangi tahrirdagi bojxona kodeksiga kiritilgan xavfni boshqarish tizimi tushunchasi yaxshi yoritib berilmagan. Shuning uchun bojxona kodeksining 29 bobiga xavfni boshqarish tizimini mukamallashitirish bo'yicha qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mazkur tizimga oid tushunchalar batafsil belgilab qo'yilishi lozim;

4. Xavfni boshqarish tizimiga doir avtomatlashtirilgan axborot almashinuv kommunikatsion tizimlarni joriy qilish zarur. Bu o'z o'rnida bojxona nazoratini amalga oshirish uchun sarf etiladigan vaqtni qisqartirish imkonini beradi.
5. Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda yagona darcha tizimini takomillashtirish darkor. Bojxona rasmiylashtiruvini to'liq holda elektron tizimga o'tkazish zarur.
6. Eksport shartnomalarini ro'yhatga qo'yishda TIF ishtirokchilari tomonidan amaliyotda turli qiyinchiliklarga duch kelish hollari uchramoqda. Shu sababli eksport shartnomalarini davlat bojxona qo'mitasida ro'yhatga qo'yish bo'yicha konsalting xizmatlar tashkil etish, mazkur harakatlarni TIF ishtirokchilari nomidan amalga oshiruvchi yuridik shaxslarni tashkil qilish ya'ni bojxona autsoringni joriy qilish zarur. Hozirda bojxona vakilligi instituti mamlakatizmida bojxona brokeri frimallari ko'rinishida mavjud bo'lib, ular tor doiradagi xizmatlar bilan band bo'lib qolishmoqda. Mazkur masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga tegishli o'zgartirish kiritish lozim. Bojxona autsoringi terminini qonunchilikga kiritib mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza yaratish darkor.
7. Bojxona nazoratini ta'minlash va qonunbuzilish hollarini oldini olish uchun kontrabanda tovarlariga qarshi kurashishni kuchaytirish zarur, buning uchun chegara tumanlari va u yerlarda paydo bo'layotgan aylanma yo'llarni bartaraf etish va bojxona postlarini zarur texnik vositalar bilan ta'minlash zarur. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:
 - huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimiyat va o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirib, maqsadli kompleks tadbirlarni amalga oshirish;
 - chegara hududlariga yaqin joylashgan aholini ichki hududlarga ko'chirish zarur va bu bo'yicha maxsus komissiyalar tuzish kerak;
 - aylanma yo'llarini yo'q qilish choralarini ko'rish lozim ya'ni mazkur chegara hududlarda handaklar qazish, aylanma yo'llarni to'sish choralarini ko'rish lozim.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: Tadqiqotni olib borish jarayonida joriy qonunchilik tahlil qilindi va uni takomillashtirish yuzasidan

takliflar ishlab chiqildi. Jumladan tashqi iqtisodiy faoliyatni bojxona nazorati orqali tartibga solishda bojxona nazorati muddatlarini qisqartirish bo'yicha tavsiyalar berildi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi qarorining 5-bandiga ko'ra, muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berishning umumiy muddati ishlarning murakkabligi darajasiga, ko'p mehnat talab qilishi va o'ziga xosligiga qarab, barcha zarur hujjatlar berilgan vaqtdan boshlab:⁴

- olib kelinadigan mahsulotlarga 10 ish kundan ortiq bo'lmagan muddatda;
- ishlab chiqariladigan mahsulotlarga 10 ish kunidan 1 oygacha muddatda belgilanadi.

Makur muddatlarni ishlab chiqariladigan tovarlarga nisbatan 3 ish kunidan 10 ish kunigacha qilib belgilash lozim. Bu o'z navbatida eksport bilan faoliyatining asosiy turi eksport bo'lgan TIF ishtirokchilari uchun ancha qulaylik yaratadi. Ortqicha vaqt va mablag'ni sarfalash imkonini beradi. Bundan tashqari bojxona nazoratini olib borishda bojxona rasmiylashtiruvini butkul elektron tizimga o'tkazish maqsadga muvofiq. Bu rasmiylashtiruv jarayonida inson omilini istisno etishga yordam beradi. Bojxona nazoratini amalga oshirishda xavfni boshqarishning elektron axborot dasturlarini joriy qilish maqsadga muvofiq, bu orqali mamlakatimizga kirib kelayotgan tovarlar va transport vositlari xavfsizligi ularni qonunga rioya etgan holda bojxona chegarasidan o'tishi ta'minlanadi.

Tadqiqot mavzusi bo'yicha adabiyotlar sharhi: Bojxona faoliyatini tadqiq qilishga asosiy e'tibor O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng kuchaydi, lekin hozirgi kunga qadar bu mavzu keng qamrovli tarzda ilmiy jihatdan ishlangan emas, aynan, bojxona nazoratini tashkil etish bo'yicha mamlakatimizda hanuzgacha ilmiy tadqiqotlar o'tkazilmadi.

⁴ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 27-сон, 315-модда; 2005 й., 32-33-сон, 251-модда; 2006 й., 37-38-сон, 378-модда; 2007 й., 21-сон, 214-модда, 24-сон, 250-модда; 2008 й., 19-сон, 161-модда, 33-сон, 315-модда; 2008 й., 52-сон, 521-модда; 2009 й., 24-сон, 272-модда, 34-сон, 371-модда, 34-сон, 375-модда; 2010 й., 17-сон, 130-модда, 47-сон, 426-модда; 2011 й., 18-сон, 178-модда; 2012 й., 31-сон, 357-модда, 44-сон, 507-модда; 2013 й., 17-сон, 225-модда; 2014 й., 10-сон, 105-модда; 2015 й., 42-сон, 534-модда.

Respublikamizda bojxona sohasidagi ilk ishlardan biri S.A.Alimbayev va boshqa bir guruh olimlar tomonidan yaratilgan o'quv qo'llanmasi hisoblanadi. Bundan tashqari S.A.Alimbayev, O.Zayniddinovlar bojxona ishi sohasida ilmiy tadqiqotlar o'tkazishgan.

Boshqa bir guruh olimlar bojxona huquqini turli institutlarini ayrim-ayrim tarzda tadqiq etishgan. Masalan, Q.Q.Rashidovning «Xalqaro ko'lamda yo'lovchi va yuk tashishning huquqiy asoslari» nomli darsligida⁵ va «Xalqaro ko'lamda yo'lovchi va yuk tashish munosabatlarining huquqiy tartibga solish muammolari» mavzuidagi yuridik fanlar doktori ilmiy darajasini olish uchun dissertatsiyasida transit bojxona rejimi xususiyatlari, I.A.Hamedov va A.M.Alimovlar tomonidan yaratilgan «O'zbekiston Respublikasida tashiq iqtisodiy faoliyat asoslari»⁶ darsligida bojxona huquqini ba'zi sohalari tadqiq etilgan.

M.X Rustambayev va E.N.Nikiforovalar tomonidan O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona organlarining huququni muhofaza etuvchi organlar tizimida tutgan o'rni, bu sohadagi vakolatlari, operativ-qidiruv sohasidagi vazifalari yoritilgan.⁷

Chet el mamlakatlarida, jumladan, MDHga kiruvchi mamlakatlarda bojxona sohasi bir muncha kengroq tadqiq qilingan. XX asr boshlarida Rossiyada bu masalaga ko'p e'tibor qaratilganligini ko'rish mumkin. M.Chernushevich bojxona muassasalari yomonidan belgilanmagan joylardan o'tishni taqiqlanganligi to'g'risida yozadi.⁸ «Bojxona nazoratini tashkil etishda bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi takomillashmaganligi ko'plab huquqbuzarliklarni keltirib chiqaradi jumladan amaldorlarni sotilishi, ta'rif stavkalarining noaniq va chalkashligi, ko'plab istisnolar, ommaviy kontrabandani keltirib chiqaradi», deb yozadi I.M.Kulisher.⁹

S.R.Mintsilovni fikricha kontrabandani oldini olish uchun avvalo uni kelib chiqish sabablarini aniqlab olish zarur va kontrabanda kelib chiqayotgan davlat bilan tenglashish lozm. Shuni esda tutish kerakki kontrabanda bu

⁵ Xalqaro ko'lamda yo'lovchi va yuk tashishning huquqiy asoslari. Darslik. – T.; «Adabiyot jamg'armasi» nashriyoti. – 2003.

⁶ Hamedov I.A, Alimov A.M, «O'zbekiston Respublikasida tashiq iqtisodiy faoliyat asoslari.» Darslik – T.; «Adabiyot jamg'armasi» nashriyoti. – 2003.

⁷ Rustambayev M.X, Nikiforova E.N «Huquqni muhofaza qiluvchi organlar». – Darslik. T.; TDYUI - 2003

⁸ Чернушевич М. «Материалы к истории пограничной стражи». 1900. – М.; Ч.1. = 6.27

⁹ Кулишер И.М. «Очерки по истории таможенной политике». М.; Москва – 1997. – 6.33

fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyolar hamda qonunchilik bilan taqiq qo'yilgan tovar yoki mahsulotlar bo'lishi mumkin. Iqtisodiy jihatdan olib qaraydigan bo'lsak yuqorida kontrabanda olib kelinayotgan davlatlar iqtisodiyoti bilan tenglashish nazarda tutilayapti.

Rossiya federatsiyasi bojxona organlarida xizmatni o'tash va ularni tuzilishi, uni Rossiya huquqni muhofaza etuvchi organlar tizimida tutgan o'rni to'g'risida keng tadqiqotlarni B.N.Gabarchidze, V.E.Zebov, A.F.Nozdachev, A.A.Gravina, V.V.Lobanova, M.P.Shestakova, A.T.Potyemkina, L.K.Tereshenko va boshqalar olib borishgan.

Xorij olimlari tomonidan bojxona sohasi keng o'rganilgan. Jumladan A. Greyndjer., D.Uilson, O.Lindert kabi olimlar mazkur sohada tadqiqotlar olib borishgan. Bojxona sohasining nazariy asoslari M.Armstrong, G.Bekvit, K.Grenroosom, F.Kotler, K.Lavlokom tomonidan o'rganilgan.

Bojxona ishi har bir mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasi, qonunchiligi bilan belgilanadi. Shu sababli, chet mamlakatlaridagi ilmiy izlanishlarda to'plangan ma'lumotlar va qonunchilikni, boshqarish amaliyotini o'rganish bilan birga o'zimizda bu sohada ilmiy izlanishlarni kengaytirishimiz va bu sohani takomillashtirish yo'llarini izlashimiz dolzarb bo'lib qoladi.

Tadqiqotning qo'llanilgan metodikaning tavsifi: Tadqiqot ishida umumilmiy metodlardan ya'ni tarixiy-mantiqiy, tizimli-strukturaviy, empirik metodlardan, umummantiqiy metodlar: induksiya, deduksiya, tahlil, sintez, maxsus metodlardan – qiyosiy-huquqiy tahlil, rasmiy yuridik metodlardan foydalanildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimov asarlarida bayon qilingan asosiy g'oyalar tadqiqot metodikasining asosini tashkil etadi. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi, xalqaro shartnomalari, amaldagi qonunchiligi, ba'zi hollarda MDH mamlakatlari va Yevropaning rivojlangan davlatlari tajribasi ba'zi muammolarni qisman hal etishga ko'maklashadi, degan umidda o'rganildi. Asosiy manba sifatida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar, Prezident farmonlari, Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan aktlardan foydalanildi.

Tadqiqotning natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati: mazkur dissertatsiya ishining ilmiy va nazariy asoslari shundan iboratki, ish bo'yicha

qilingan nazariy xulosalar amaliy takliflar bojxona organlari tomonidan bojxona nazoratini tashkil etish faoliyatida hamda bu sohadagi qonunchilikni takomillashtirishda foydalanilish mumkin.

Ish tuzilmasining tavsifi: Dissertatsiya Kirish, uchta bob, sakkiz paragraf, Xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yhatidan iborat.

I.BOB. Bojxona nazoratining tashkiliy huquqiy asoslari.

1.1 § O‘zbekiston Respublikasida Bojxona ishi va bojxona nazorati munosabatlarining vujudga kelishi hamda rivojlanish tarixi.

Bojxona ishi O‘zbekistonning tashqi va ichki siyosati tizimida ustuvor o‘rinlardan birida turadi. Bir tomondan, tashqi iqtisodiy faoliyatning erkinlashtirilishi tashqi bozorga mustaqil chiqish huquqiga ega bo‘lgan korxonalar, tashkilotlar va tadbirkorlar doirasini jiddiy ravishda kengaytirdi. Davlat bojxona siyosati vositalari tarifli va notarif boshqarish vositalari orqali ularning tovarlar, ishlar va xizmatlar eksporti va importi bo‘yicha faoliyatiga ta’sir ko‘rsatadi. Ikkinchi tomondan, ichki iqtisodiy jarayonlarni tartibga solish, milliy bozorni shakllantirish, respublika byudjetining daromad qismini to‘ldirish vositasi sifatida bojxona ishining ahamiyati ortdi. Bu, o‘z navbatida, bojxona ishining huquqiy asosini yaratuvchi qonun hujjatlari va normativ hujjatlar tizimni ishlab chiqishni taqozo etdi.

Bojxona tushunchasi (таможня) turkiy xalqlarda tovar yoki mulkka qo‘yiladigan belgi - turkiy “tamg’a” so‘zidan kelib chiqqan. Tamg’a so‘zidan kelib chiqib va tovardan boj olish manosini anglatuvchi “таможить” fe’li rus tilining leksikoniga kirgan va o‘z navbatida, tovardan boj olib unga tamg’a qo‘yiladigan joy ya’ni bojxona (таможня) deb yuritala boshlangan.¹⁰

«Bojxona ishi» atamasi mazmunini aniqlash prinsipial ahamiyatga egadir. Bojxona siyosatining xususiyati va mazmunini, bojxona huquqi, uning institutlari va yuridik normalarini tushunish ko‘p jihatdan ushbu atamani belgilashning puxtaligi va to‘liqligiga, bojxona ishi tarkibini aniqlashga bog‘liqdir.

O‘zbekiston Respublikasining Bojxona kodeksida (1-modda) kodeks O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali tovarlarni va transport vositalarini olib o‘tish, bojxona to‘lovlarini unidirish, bojxona rasmiylashtiruv, bojxona nazoratini amalga oshirish, shuningdek bojxona to‘g‘risidagi qonun hujjatlarini buzish hollarini oldini olish, ularni aniqlash va ularga chek qo‘yish

¹⁰ “Bojxona huquqi” darslik. Oliy xarbiy bojxona instituti .:T-2012. b.20

tartibini belgilash bilan bog'liq munosabatlarni tartibga soladi deb belgilab qo'yilgan.

Mazkur norma bojxona ishi tushunchasini va uning tarkibiy elementlarini aniq tavsiflab beradi. Bojxona ishi ko'p rejali va juda xilma-xil vazifalarni hal etishga yo'nalitirilganligi shartlanganligidan kelib chiquvchi uning o'ziga xosligi va nodirligi mana shundan iboratdir.

Tarkibiga soliqlar va bojlarni undirish ham kiradigan moliyaviy-iqtisodiy tizimning puxta faoliyat ko'rsatishi har qanday tuzumda davlat mavjud bo'lishining iqtisodiy asosi hisoblanadi.

Akademik B.Ahmedovning fikriga ko'ra bojxona organlari bunday tizimning bir qismi sifatida Markaziy Osiyoda qadim zamonlardan boshlab mavjud bo'lgan. Chunki ko'p ming yillab Sharqni G'arb bilan bog'lagan Buyuk Ipak yo'li Markaziy Osiyo hududidan o'tgan. O'rta dengizdagi Suriyaning Antioxiya (yoki Antaliya) porti uzoq vaqt Ispaniya, Portugaliya, Venetsiyadan tovarlarni tashuvchi kemalarga xizmat qilgan. Bu kemalar Buyuk Ipak yo'li orqali Xitoy va Yaponiyaga yo'l olganlar.¹¹

Buyuk Ipak yo'li orqali amalga oshiriladigan savdoga qaysidir darajada aloqador bo'lgan barcha davlatlarning bojxona organlari tajribasini umumlashtiruvchi qoidalar asrlar davomida takomillashtirildi va maqbul holga keltirildi. Agar qaysidir davlat yoki shahar bojxona qoidalarini qattiqlashtirsa, bojlar va yig'implarni haddan tashqari ko'paytirsas, karvonlar ularni chetlab o'tishining yo'li bor edi. Birgina Markaziy Osiyoda Buyuk Ipak yo'lining bir necha shoxobchasi mavjud bo'lgan. Ushbu karvonlar chetlab o'tgan davlatlar esa anchagina daromaddan mahrum bo'lishgan, chunki yo'llarda karvonlar muntazam qatnab turgan.

Buyuk Ipak yo'lidagi boj yig'implari haqidagi dastlabki yozma eslatmalar VIII asrdagi arab manbalaridan ma'lum. Ko'p asrlar davomida boj miqdori o'zgarishsiz bo'lib, u tovar qiymatining 2 foizini tashkil etgan (Bunday boj XIX asrgacha saqlanib qoldi. Albatta o'sha davr iqtisodiyoti va savdosi uchun bu juda ham mo'tadil va qulay narx bo'lgan. Bu barchani qoniqtiruvchi maqbul variant deyish mumkin. Buxoro, Qo'qon va Xivadan Rossiyaga qatnovchi

¹¹ A.Jo'raev, S.Isamuhamedova. «Bojxona ishi asoslari». dots. Ma'ruzalar to'plami - T.: Toshkent Moliya Instituti, 2005. b. 2.

karvonlardan 2,5 foiz miqdorida boj olinardi). Karvonlar yo'lida ko'plab davlatlar joylashgani hisobga olinsa, katta miqdordagi boj savdogarlarni xonavayron qilishi, bu bilan ushbu davlatlarni kafolatli daromaddan mahrum qilishi mumkin edi.¹²

Ushbu daromadning xazina uchun ahamiyatini tushungan hukmdorlar qulay yo'llar bilan, obod karvonsaroylar qurishgan, karvonlarni xavf-xatardan qo'riqlash chora-tadbirlarini ko'rishgan. XIV-XV asrlarda Amir Temur va temuriylar faoliyatini bunga misol qilib olishimiz mumkin. Amir Temur oldingi yuz yilliklardan oxiri yo'q urushlar va ko'chmanchilar bosqinlari tufayli deyarli to'xtab qolgan Buyuk Ipak yo'lidagi harakatni qayta tikladi.

XV asr boshida Amir Temur saroyida bo'lgan Kastiliyaning elchisi Ryui Gonzales de Klavixo o'zining Samarqandga qilgan to'rt oylik sayohatida «butun mamlakat Temur hukmronligi ostida tinch yashaydi», deb qayd etgan.¹³

Temuriylar davrida ulkan saltanatda yo'llar ancha yaxshi holatda saqlangan. Yo'lning har bir kunlik masofasida karvonsaroylar bo'lib, ularda savdogarlarni qurol-yarog' osgan otliq qo'riqchilar otryadi kutib olar, ular savdogarlarni keyingi dam olish joyiga kuzatib qo'yishga shay turishar edi. «Ofisi» uzoq vaqt Sultoniya bo'lgan vatikanlik arxiepiskop Ioann, Amir Temur tomonidan savdogarlarga berilgan imtiyozlarni shunday qayd qiladi: «Temur xorijiy savdogarlarga xayrihohlik bilan munosabatda bo'lar va butun saltanatida ularga qulay sharoitlar va xavfsizlikni yaratib bergan. Agar unga qarashli yerlarda qaysidir savdogarni tunashsa, o'sha yerning hukmdori savdogarga yo'qotgan narsasini ikki barobar qilib qaytarib berar, bundan tashqari ushbu qiymatni Temurga besh barobar miqdorida to'lardi».

Akademik B.Ahmedov bu davrda karvonlarni qo'riqlash zimmasiga kiradigan bojxona puxta ishlaganligini qayd qilar ekan, quyidagi misolni keltiradi. Bu voqea Boburning otasi temuriyzoda Umarshayx Andijonda hukmronlik qilgan davrda yuz beradi. Besh yuz kishilik ot ulovli katta karvon ko'p yuk bilan Xitoydan qaytar edi. Tog'da yo'lovchilar qor bo'roniga yo'liqib, qalin qor ostida qolishadi. Faqat ikki kishi tirik qoladi va Andijonga kelib yuz

¹² A.Jo'raev, S.Isamuhamedova. «Bojxona ishi asoslari». Ma'ruzalar to'plami - T.: Toshkent Moliya Instituti, 2005. b. 8.

¹³ S.Bayjanov, J.Dosekeev. «Bojxona Iqtisodiyoti» ma'ruzalar matni – T.: Korakalpok Davlat Universiteti-2009. b.12

bergan falokatdan xabar beradi. Umarshayhning amri bilan karvon ortgan yuklar qor ostidan kavlab olinadi va merosxo'rlar topilmaguncha ishonchli qo'riqlanadi. Merosxo'rlarni esa faqat Andijondan emas, balki butun Xuroson, Eron va Iroqdan izlashga to'g'ri keladi.

Amir Temur davrida ehtimolki undan ham ilgari ayrim boj imtiyozlari mavjud bo'lgan.¹⁴

Masalan, «qizil mol» bojdani ozod qilingan edi. Bunday tovarlar ularga ilova qilingan hujjatlar, ya'ni rahnomalar oddiy muhr bilan emas, balki shohona qizil muhr bilan tasdiqlanganligi bois «qizil mol» deb atalgan. Bu esa mollar hukmdorga in'om qilishga mo'ljallanganligini anglatardi. O'sha davr qoidalariga ko'ra, sovg'alardan boj undirilmagan.

Albatta, tuzuklarni buzish hollar ham bo'lib turgan. Masalan, ayrim savdogarlar rahnomodan foydalanib, «qizil yorliq»da ko'rsatilgan moldan boshqa mollarga ham boj to'lamaslikka urinishgan. Buni hozirgi davr bilan taqqoslaganda noto'g'ri deklaratsiyalash qoidabuzarligi bilan tenglashtirish mumkin. Ayrim hollarda qaroqchilar o'zlarini boj yig'uvchi qilib ko'rsatishgan. Bundan tashqari Amir Temur saltanati parchalanib ketgandan keyin mayda davlatlarning hukmdorlari yoki ularga buysunuvchilar yuz yillab amal qilgan boj qoidalariga xilof ish qilishgan. 1621 yilda savdogarlar bilan safardosh bo'lgan Moskvalik elchi Ivan Xoxlovning esdaliklarida qayd qilinishicha, daryo bo'yida savdogarlarni 60 chog'li bojxonachilar to'xtatgan va 9 qo'y, 2 ta ot, 100 botmon arpa berishni talab qilishgan.

XIX asr oxirida bozor munosabatlari rivojlanishi bilan birgalikda bojxona siyosati yangi bozorlari egallab olishga yordam beruvchi vositalardan biriga aylandi.

Markaziy Osiyo Rossiya tomonidan bosib olingandan keyin Turkiston general-gubernatorligi tashkil etildi. 1893 yilda Rossiyada 11 ta chegara okrugi tashkil etildi. Turkiston okrugi o'shalardan biri bo'ldi. Turkiston okrugida 16 ta bojxona organi mavjud edi. 1895 yilda Termiz shahrida Pattakesar bojxonasi tashkil etildi. Unda asosan Afg'onistondan keltiriladigan tovarlardan boj undirilgan. Har yili ushbu bojxona posti orqali 2500 dan ziyod sayohatchi

^{14 14} A.Jo'raev, S.Isamuhamedova. «Bojxona ishi asoslari». Ma'ruzalar to'plami - T.: Toshkent Moliya Instituti. 2005. b. 16

o'tgan. U paytlari Afg'oniston hududi orqali Markaziy Osiyoga ko'plab kontrabanda tovarlari ham o'tkazilgan.

1917 yildan keyin ichki va tashqi savdo xalq Komissarligida 8 ta bojxona okrugidan iborat bojxona boshqarmasi tashkil etilib, Turkiston okrugi shulardan biri edi. 1925 yilda bojxona boshqarmasi Bojxona bosh boshqarmasiga aylantirildi. Uning tarkibida bojxonaning 11 ta inspektorlik organlari va 266 ta bojxona bo'lib, ularda 5710 nafar xodim ishlar edi. O'sha yili Termiz shahridagi Pattakesar bojxonasi Termiz bojxonasiga aylantirildi. Xalq komissarliklari vazirliklarga aylantirilgandan keyin bojxona bosh boshqarmasi Tashqi savdo vazirligi tarkibida qoldi.

1986 yilda Bojxona bosh boshqarmasi SSSR Ministrlar Soveti huzuridagi Davlat bojxona nazorati Bosh boshqarmasiga aylantirildi.

Toshkent shahri sobiq SSSR janubiy darvozasi hisoblanib, xoriждан uchib kelgan samolyotlar Toshkentda to'xtab o'tar edi. Yangi havo yo'llari ochilishi munosabati bilan 1959 yil 14 aprelda Toshkent aeroportida Termiz bojxonasiga bo'ysunuvchi bojxona posti tashkil etildi. Toshkent postida hammasi bo'lib 3 ta xodim ishlagan. Ularga V.N.Novikov rahbarlik qilar edi. 1970 yillarda tashqi iqtisodiy aloqalar rivojlanishi munosabati bilan ushbu post Toshkent bojxonasiga, 1988 yilda esa O'zbekiston Respublikasi bojxonasiga aylantirildi.

1988-89 yillarda Samarqand, Buxoro, Namangan, Andijon, Qarshi, Guliston, Jizzax, Qo'qon, Navoiy, Urganch, Chirchiq, Olmaliqda bojxona postlari ishga tushdi. 1990 yil oxiri va 1991 yil boshida Samarqand, Farg'ona va Nukus postlari bojxonalariga aylantirildi va O'zbekiston Respublikasi Bojxona boshqarmasiga bo'ysundirildi. U paytlari bojxona ishlari Moskvadan turib boshqarilar, barcha rahbar xodimlar markazdan tayinlanardi. Bojxona tomonidan musodara qilingan tovar moddiy boyliklar va boj tushumlari Moskva ixtiyoriga yuborilgan.

Bojxona organlarining respublika davlat nazorati va boshqaruvining mustaqil tuzilmasi sifatida shakllanishi va faoliyat ko'rsatishi O'zbekiston o'z mustaqilligini qo'lga kiritgandan keyin boshlandi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida»gi 1997 yil 8 iyuldagi Farmoni respublika bojxona ishi tarixidagi muhim hujjat bo‘ldi. Mazkur farmonga muvofiq, Davlat soliq qo‘mitasining Bojxona bosh boshqarmasi negizida Davlat bojxona qo‘mitasi tuzildi. Tarixda birinchi marta bojxona organlariga huquqni muhofaza qiluvchi organ maqomi berildi.

1.2 § O‘zbekiston respublikasida bojxona nazoratini olib boruvchi organlar tavsifi hamda ular faoliyatini huquqiy tartibga solish asoslari.

O‘zbekiston Respublikasida bojxona xizmatiga e’tibor mamlakatimiz mustaqillikka erishganidan so‘ng ancha kuchaydi.

Barcha davlat organlari faoliyati singari bojxona ishi faoliyati ham tegishli huquqiy bazaga asoslangan holda amalga oshiriladi. Bu huquqiy baza Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan qonunlar va qarorlar, Prezident farmonlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari, vakolatlari, vakolatli markaziy boshqaruv organlarining me’yoriy hujjatlaridan iboratdir.

O‘zbekiston Repsublikasi Oliy Kengashining 1991 yil 31-avgustda qabul qilingan «O‘zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining asoslari to‘g‘risida»gi konstitutsiyaviy qonun davlatimizning ichki va tashqi siyosatini mustaqil belgilash, davlat sarhadlarini himoya qilish huquqini e’lon qildi. Respublikasimizning 1992-yilgi Konstitutsiyasi bu qoidani yanada rivojlantirib, o‘zida mustahkamlab qo‘ydi: «O‘zbekiston Repsublikasi o‘zining milliy-davlat va ma’muriy-hududiy tuzilishi, davlat hokimiyati va boshqaruv organlarining tizimini belgilaydi, ichki va tashqi siyosatni amalga oshiradi. O‘zbekistonning davlat chegarasi va hududi daxlsiz va bo‘linmasdir». (O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 3-moddasi)

O‘zbekiston Respublikasi «Tashqi iqtisodiy faoliyat to‘g‘risida»gi¹⁵ «O‘zbekiston Repsublikasining tashqi siyosiy faoliyatining asosiy prinsiplari», «Davlat chegarasi to‘g‘risida»gi qonunlar ham bizni qiziqtirgan masalaga aloqadordir.

Shuningdek, O‘zbekiston Repsublikasining oily Majlis palatalari to‘g‘risidagi va Vazirlar Mahkamasi to‘g‘risidagi qonunlari bu davlat organlarining iqtisodiy-ijtimoiy va siyosiy hayotning boshqa sohalari kabi bojxona ishini boshqarishni tashkil etish sohasidagi vakolatlari belgilab qo‘ydi.

¹⁵ (Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 5-6-сон, 148-модда; 2003 й., 5-сон, 67-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 51-сон, 514-модда; 2005 й., 49-50-сон, 365-модда; 2009 й., 37-сон, 403-модда; 2015 й., 33-сон, 439-модда)

Mustaqillikning ilk kunlarida, ya'ni 1991 yil 25-oktyabrida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti farmoni bilan Bojxona qo'mitasi tashkil etildi. 1992 yil 10-avgustidagi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni bilan Bojxona qo'mitasi va ichki ishlar vazirligi huzuridagi tovar-moddiy boyliklarni chiqishi ustidan nazorat davlat inspeksiyasi negizida Davlat bojxona qo'mitasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida bojxona boshqarmalari tashkil etildi.

1991 yili bojxona va soliq organlarini isloh qilish jarayonida ularning vazifa va funksiyalari konkretlashtirilib Davlat bojxona qo'mitasi tugatildi va u Davlat soliq qo'mitasining bosh bojxona boshqarmasi sifatida qayta tashkil etildi. Farmonga asosan viloyat va unga tenglashtirilgan bojxona boshqarmalari viloyat va unga tenglashtirilgan bojxona xizmatlariga aylantirildi.

Bugungi O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi tarixida hal qiluvchi muhim qadam 1997 yil 8-iyulida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Davlat bojxona qo'mitasini tashkil etish to'g'risida»gi Farmoni¹⁶ bo'ldi Mazkur farmondan ko'zlangan maqsad - "Bojxona ishini tashkil qilishni yaxshilash, ya'ni bojxona siyosatini o'tkazish, respublika bojxona organlarining tezkorligini oshirish, mamlakat iqtisodiy xafvsizligini mustahkamlashda ularning ro'lini kuchaytirish, shuningdek bojxona ishi sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada kengaytirish" ekanligi belgilab qo'yildi.

Bojxona organlari huquqiy maqomini belgilashda ushbu farmon juda katta ro'l o'ynaydi. Farmonning 3-bandiga asosan O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi huquqni muhofaza qiluvchi organ ekanligi belgilab, un bu sohadagi huquqlari mustahkamlab qo'yiladi. Aynan shu farmonni ro'yobga chiqarish maqsadida va Respublika bojxona organlari tomonidan bojxona ishlarini tashkil qilish bo'yicha ular zimmasiga yuklatilgan vazifalarni tezkorlik bilan samarali bajarilishini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 1997 yilning 30-iyulida «O'zbekiston

¹⁶ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 5-6-сон, 148-модда; 2003 й., 5-сон, 67-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 51-сон, 514-модда; 2005 й., 49-50-сон, 365-модда; 2009 й., 37-сон, 403-модда; 2015 й., 33-сон, 439-модда.

Respublikasi Davlat bojxona qo‘mitasi faoliyatini tashkil etish masalalari to‘g‘risida»¹⁷ №374-sonli qarori qabul qildi.

Mazkur qaror Davlat bojxona organlarini tashkiliy tuzilishini belgilab berdi. Unga asosan davlat bojxona qo‘mitasi to‘rt bosqichli ierarxik tuzilishga ega deb qaraladigan bo‘ldi:

1. Davlat bojxona qo‘mitasining markaziy apparati;
2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar bojxona boshqarmalari;
3. Ixtisoslashtirilgan bojxona komplekslari;
4. Bojxona postlari va bojxona komplekslari.

Davlat bojxona qo‘mitasining raisi o‘z faoliyati davomida o‘rinbosarlar o‘rtasida vazifalarni taqsimlaydi. Davlat bojxona qo‘mitasi zimmasiga yuklatilgan vazifalarning bajarilishi uchun shaxsan javobgar hisoblanadi. O‘z ishi davomida bojxona organlarining o‘z xavfsizligi boshqarmasiga to‘g‘ridan-to‘g‘ri rahbarlik qiladi.

Davlat bojxona qo‘mitasining markaziy apparatidan tashqari Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent shahri va viloyatlar bojxona boshqarmalarining hamda ixtisoslashtirilgan bojxona komplekslarining boshqaruv apparati mavjud. Qonunchilikda to‘g‘ridan-to‘g‘ri ko‘rsatmalari mavjud bo‘lmasada, ixtisoslashtirilgan bojxona komplekslarini viloyat bojxona boshqarmalariga tenglashtirilganligini ko‘rishimiz mumkin.

Bojxona organlarida xizmat o‘tash tartibi ham alohida tartib va shartlarga ega. Ularni huquq va majburiyatlari, vazifalari va javobgarligini belgilovchi qoidalar amaldagi qonunchilikda o‘z ifodasini topgan.¹⁸ Unga muvofiq bojxona organlariga xizmatga 18-yoshga to‘lgan, lekin 30-yoshdan oshmagan, millati, jinsi, ijtimoiy kelib chiqishi, mulkiy va xizmat mavqeidan, diniy e‘tiqodidan qat’i nazar, o‘zining shaxsiy, ishchanlik va axloqiy sifatlari, ma’lumoti darajasi va salomatligiga ko‘ra bojxona organlariga yuklangan

¹⁷ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 5-6-сон, 148-модда; 2003 й., 5-сон, 67-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 51-сон, 514-модда; 2005 й., 49-50-сон, 365-модда; 2009 й., 37-сон, 403-модда; 2015 й., 33-сон, 439-модда

¹⁸ Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9-сон, 230-модда; 1998 й., 5-6-сон, 102-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 51-сон, 514-модда; 2006 й., 41-сон, 405-модда; 51-52-сон, 499-модда; 2015 й., 33-сон, 439-модда, 52-сон, 645-модда

vazifalarning bajarilishini ta'minlashga qodir bo'lgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ko'ngillilik asosida qabul qilinadi.

Bojxona organlari davlat siyosiy va iqtisodiy mustaqilligini ta'minlashda juda katta ro'l o'ynaydi. Bevosita ana shu davlat organining yordamida mamlakat o'zining ichki bozorini, Repsublika hududidagi ishlab chiqaruvchilarni tashqi ekspansiyadan himoya qiladi.

Ko'pchilik mualliflar amaldagi qonunchilikka asoslanib, bojxona organlarini huquqni muhofaza qiluvchi organ sifatida qarashadi.¹⁹

Boshqa bir guruh olimlar bojxona organlarini huquqni muhofaza qilish sohasidagi vakolatlari haqidagi fikrga qo'shilishmaydi va bojxona organlarini bu tartibga kiritishmaydi.

Biz bu fikrga qo'shila olmaymiz, chunki amaldagi qonunchilik Davlat bojxona qo'mitasini huquqni muhofaza etuvchi organ sifatida qat'iy belgilab, uni bu sohadagi vakolatlari ko'rsatib o'tadi.

Bular jumlasiga:

- Bojxona masalalari bo'yicha xalqaro huquq normalariga muvofiq, belgilangan tartibda xalqaro bitimlar va shartnomalar tuzish;
- O'zbekiston respublikasining Jinoyat kodeksi hamda Jinoyat Protsessual kodeksi normalariga amal qilgan holda bojxona organlarining vakolatiga daxldor huquqbuzarliklar bo'yicha surishtiruv ishlari va «Tezkor qidiruv faoliyati to'g'risida»gi qonunga muvofiq tezkor qidiruv chora tadbirlarini o'tkazadi;
- Bojxona qonunchilig buzliganligi uchun mansabdor shaxslar va jismoniy shaxslarga nisbatan belgilangan tartibda ma'muriy tartib choralari qo'llaydi;
- Aybdorlarni javobgarlikka tortish masalasi bojxona organlarining vakolatlari doirasidan chetga chiqadigan hollarda huquqbuzarlik faktlari bo'yicha hujjatlarni tergov va sud organlariga topshiradi;
- Tovarlar va transport vositalari O'zbekiston Repsublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tilishining qonuniy asoslarini aniqlash uchun vazirliklar, idoralar, tashkilotlardan va mahalliy hokimiyat idoralaridan, O'zbekiston

¹⁹ «Таможенное право» Nozdrachev A.F, Gravina A.A va boshqalar. Nozdrachev A.F ning umumiy tahriri ostida. Darslik. M.; Yurist-2007. – b. 79

Respublikasi hududida joylashgan tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilaridan (mulkiy shakli va idoraviy mansubligidan qat'i nazar) belgilangan tartibda materiallar hujjatlar oladi.

Yuqorida belgilangan vazifalardan ko'rinib turibdiki, bojxona organlarining asosiy faoliyatini huquqni muhofaza qilish jarayoni tashkil etadi.

Davlat bojxona qo'mitasi to'g'risidagi nizomning, 7-bandiga muvofiq bojxona organlarining asosiy vazifalari jumlasiga Respublikaning iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va belgilangan vakolatlar doirasida uning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash, boj ishlarini amalga oshirishda fuqarolarning shuningdek, yuridik shaxslarning huquq va manfaatlarini himoya qilish kiradi. Aynan shu me'yor orqali Davlat bojxona qo'mitasi organlari qo'riqlaydigan qadriyatlar ko'rsatilgan.

«Davlat bojxona xizmati to'g'risida»gi qonunning 5-moddasida ham bojxona organlarini huquqni muhofaza qiluvchi organlar sifatidagi vakolatlari belgilab berilgan:

- Bojxona haqidagi qonun hujjatlarining buzilishiga doir materiallarni belgilangan tartibda ko'rib chiqish hamda mazkur ishlari bo'yicha huquqbuzarlikni sodir etgan shaxslarni javobgarlikka tortish;
- Bojxonaga oid huquqbuzarlikning bevosita predmeti bo'lgan tovarlar va transport vositalarini qonun hujjatlarida belgilangan hollarda va tartibda ushlab turish hamda olib qo'yish;
- Bojxona sohasiga oid huquqbuzarliklar bo'yicha surishtiruv olib borish va tezkor qidiruv faoliyatini amalga oshirish;
- Bojxonaga oid huquqbuzarliklarni aniqlashga xizmat qiladigan texnikaviy va maxsus vositalarni qo'llash.

Davlat bojxona qo'mitasi to'g'risidagi Nizomning 8-bandiga muvofiq bojxona organlari funksiyalariga quyidagilar kiradi:

- respublikasning bojxona hududida davlat xavfsizligini, jamoat tartibi, inson hayoti va salomatligining himoya qilinishi bo'yicha chora-tadbirlarga ko'maklashish;

- bojxona organlari vakolatiga tegishli bo'lgan ishlar bo'yicha surishtiruv va qonunchilikka muvofiq bojxona qoidalarini buzilishi to'g'risidagi ishlarni ko'rib chiqish;
- huquqbuzarlikni sodir etganlarga nisbatan qonunchilikda nazarda tutilgan bojxona qoidalarini buzganligi uchun ta'sir ko'rsatish choralari belgilangan tartibda qo'llash kabilar kiradi.

Eski tahrirdagi Bojxona kodeksining 10 bo'limi 16-bobi bojxona haqidagi qonun hujjatlarni buzganlik to'g'risidagi ishlarni yuritish tartibi deb nomlanardi va mazkur bobda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik hamda mazkur ishlarni yuritish tartibi va muddatlari belgilab qo'yilgan edi. 2016 yil 20 yanvarda qabul qilingan va 2016 yilning 21 aprelida kuchga kirgan yangi tahrirdagi Bojxona kodeksida²⁰ mazkur masalaga yondashuv o'zgargani yaqqol seziladi hamda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzganlik uchun javobgarlik ancha liberallashtirilganini guvohi bo'lishimiz mumkin. Jumladan yuridik shaxslarni javobgarligi yangi tahrirdagi bojxona kodeskidan chiqarib tashlandi. Bu albatta o'z navbatida tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari faoliyatida rag'batlantiruvchi omil bo'lib xizmat qiladi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bojxona organlarining asosiy faoliyat vazifalaridan biri qonunga rioya etilishini ta'minlashdir. Bunda albatta bojxona nazorati muhim ahamiyatga ega. Negaki bojxona huquqbuzarliklarini deyarli barchasi bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida aniqlanadi.

Bojxona nazorati sohasida Davlat bojxona qo'mitasi o'zi mustaqil va boshqa huquqni muhofaza etuvchi organlar bilan hamkorlikda ish olib boradi.²¹ Ya'ni bojxona zonasi tartibiga rioya qilinishini bojxona inftrastrukturasi obyektlari tizimini ta'minlaydi, bojxona chegarasini qo'riqlash bilan bog'liq boshqa choralarni ko'radi. Aynan shu vazifani bajarish doirasida bojxona organlarini Milliy xavfsizlik xizmatining davlat chegaralarini qo'riqlash davlat qo'mitasi bilan hamkorlikdagi faoliyati alohida ahamiyatga ega. Bu ikkala davlat organining o'zaro hamkorligini yanada kuchaytirish hamda mustahkamlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi 2004 yil 25-oktyabridagi 498-

²⁰ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 3(1)-сон, 31-модда

²¹ Timoshenko I.V. «Таможенное регулирование внешнеэкономической деятельности». М., 2003 б. 5

sonli «Tovarlarni O'zbekiston Respublikasi chegarasi orqali noqonuniy olib o'tilishi barataraf etishga doir faoliyatni rag'batlantirish to'g'risida» qaror qabul qildi.²² qarorga muvofiq Milliy xavfsizlik xizmati huzurida byudjetdan tashqari yagona ijtimoiy rivojlantirish va tovarlarni O'zbekiston Respublikasi chegarasi orqali noqonuniy olib o'tishni bartaraf etgan xodimlarni moddiy rag'batlantirish jamg'armasini tashkil qilishga ruxsat berildi va bojxona organlari va chegarachilar tomonidan olib qo'yilgan hamda belgilangan tartibda davlat daormadiga o'tkazilgan tovar va boshqa boyliklarni sotishdan olingan mablag'ning 20% shu jamg'armaga o'tkaziladigan bo'ldi. Bu mablag' esa Milliy xavfsizlik xizmati davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mita hamda Davlat bojxona qo'mitasi o'rtasida 10% dan teng taqsimlanadi. Bu jamg'armani tashkil etilishi bojxona organlarining faoliyatini yaxshilash bojxona va chegara postlarini mustahkamlash, xodimlarni moddiy rag'batlantirish imkoniyatlarini kengaytirishga sharoit yaratdi. Bundan tashqari Davlat bojxona qo'mitasi huzurida moddiy yordam, ijtimoiy himoya qilish, bojxona organlarini rivojlantirish va ko'zda tutilmagan xarajatlar jamg'armasi ham mavjud.²³ Ushbu jamg'arma bojxona yig'implari va ko'rsatilgan xizmatlar uchun to'lovlar tarzidagi tushumlarining 25% miqdordagi ajratmalar hisobiga shakllantiriladi.²⁴

Hozirda bojxona organlari tomonidan undiriladigan bojxona yig'implarining 75 foizi davlat byudjetiga o'tkaziladi qolgan 25 foizi esa bojxona organlari moddiy-texnik bazasini mustahkamlashga, bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan bojxona nazorati samaradorligini oshirishga, shuningdek bojxona xodimlarini moddiy rag'batlantirishga sarf etiladi. Fikrimizcha, bojxona xodimlarining ish samaradorligini oshirish maqsadida, ushbu mablag'lardan yanada unumliroq foydalanish lozim, ya'ni bojxona ishini modernizatsiya qilish uchun bojxona organlari texnikasinining eng so'nggi namunalari bilan ta'minlash, bojxona organlari uchun zarur bo'lgan bino va inshootlarni barpo etish, shuningdek bojxona xizmati xodimlarining maishiy turmush sharoitini yaxshilash va shunga o'xshash bojxona ishining

²² Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 43-сон, 455-модда; 2009 й., 3-сон, 14-модда; 2010 й., 14-15-сон, 106-модда

²³ Vazirlar mahkamasining 1997 yilgi 20 – iyuldagi 374-son qarorining 7-bandi; O'zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to'plami . 1997. – №7. - 26-modd

²⁴ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «Vazirliklar va idoralarning byudjetdan tashqari jamg'armalari to'g'risida»gi 2004 yil 25-oktyabrda 499-sonli qaroriga 3-ilova. O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlar to'plami. 200. – №43. – 456 - modda

samaradorligini oshiruvchi omillarga, qisqacha qilib aytganda, bojxona infratuzilmasini yaxshilashga sarflash maqsadga muvofiq bo'lar edi.

Bojxona ishi sohasida xalqaro hamkorlik va xalqaro huquqiy tartibga solish masalalari bo'yicha Davlat bojxona qo'mitasi: bojxona ishiga taaluqli xalqaro shartnomalar loyihalarini tayyorlaydi, bunday shartnomalarni tuzish yuzasidan muzokaralar olib boradi, bunday shartnomalarni tuzish yuzasidan takliflar beradi, boshqa xalqaro shartnomalarni bojxona ishiga taaluqli qismi loyihasini tayyorlashda qatnashadi; boshqa davaltlarning bojxona va boshqa vakolatli organlari bilan o'zaro hamkorlikni amalga oshiradi. Chet mamlakatlar bojxona organlari tizimini o'rganish shuni ko'rsatadiki, ko'pchilik mamlakatlarda bojxona organlari apparatlarida tovar muomalasi eng ko'p bo'lgan mamlakatlar bilan shug'ullanuvchi bo'limlar mavjud. Masalan: Finlandiyada bojxona xizmati faoliyatiga moliya vazirligi boshchilik qiladi va uni tarkibida Rossiya, MDH va Boltiqbo'yi mamlakatlari bilan ishlash bo'limlari mavjud. Bizda ham Davlat bojxona qo'mitasida shunday bo'limlarni tashkil etilishi maqsadga muvofiq bo'lar edi. Bu o'z navbatida ana shunday mamlakatlar bilan tovar aylanmasining yanada oshishiga, mazkur davlatlar bilan savdo aloqalarini mustahkamlanishiga va bu davlatlar bilan tashqi savdo olib borishni soddalashtirish imkoniyatini berar edi.

1.3 § Bojxona organlari tomonidan bojxona nazoratini olib borish tartibi hamda uning maqsad va vazifalari.

Bojxona nazorati o'z tabiatiga ko'ra o'ta muhim davlat instituti hisoblanadi. Negaki bojxona nazorati davlat manfaatlari va uning iqtisodiy xavfsizligi hamda uning sarhadlarini ishonchli himoya qilishdagi asosiy mexanizmlardan biridir.

Bojxona nazorati bojxona chegarasidan tovar va transport vositalari olib o'tish bilan bog'liq huquqiy munosabatlar bo'lib, bu faoliyat bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladi, va jismoniy shaxslar va tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan bojxona chegarasidan olib o'tilayotgan tovar va transport vositalarini olib chiqish va olib kirishda O'zbekiston respublikasi qonun va qonunosti hujjatlariga rioya qilinishini ta'minlash uchun amalga oshiriladigan qonunda belgilab qo'yilgan aniq harakatlar majmui hisoblanadi.

N.A.Pogodinaning fikriga ko'ra bojxona nazoratining asosiy maqsadi qonunda belgilangan tekshiruvlar orqali bojxona-huquqiy munosabati ishtirokchilarining amalga oshirayotgan operatsiyalari va harakatlarini nazorat qilish va ularni qonunga muvofiq bo'lishini ta'minlash hamda nazorat etish, va bu orqali bojxona huquqbuzarligini oldini olishdan iboratdir.²⁵

O.Zayniddinovning fikriga ko'ra esa Bojxona nazorati O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari va xalqaro shartnomalariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida bojxona organlari amalga oshiradigan tadbirlar majmuidan iborat. Bojxona nazorati o'z qamrovi jihatdan keng tushuncha bo'lib, fuqarolar, tovar va transport vositalari respublika chegarasini kesib o'tgandan boshlab, to undan chiqib ketgunga qadar milliy manfaatlarimizni ko'zlagan holda tovar ayirboshlashni tartibga solish, iqtisodiyotini rivojlantirishni rag'batlantirish, ichki bozorni himoyalash kabi maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.²⁶

Bizningcha yuqoridagi fikr bojxona nazoratining mohiyati va maqsadini to'liq ochib beradi. Haqiqatda bojxona nazoratining asosiy maqsadi qonun

²⁵ Н.А.Погодина “Таможенный досмотр товаров и транспортных средств” Саратов-2010 6.34

²⁶ O.Zayniddinov «Chegarada bojxona nazorati» Davlat bojxona qo'mitasi. T -2014. b. 3

ustuvorligini ta'minlashdir. Buning uchun bojxona kodeksida belgilab qo'yilgan bojxona nazoratini amalga oshirish shakllaridan foydalaniladi.

O'zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Bojxona kodeksining²⁷ 4-bo'limi 27-bobi Bojxona nazoratiga bag'ishlangan bo'lib, uning 178-moddasiga bojxona nazorati predmetiga ta'rif berilgan: Bojxona nazorati bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan va kodeksga muvofiq deklaratsiyalanishi lozim bo'lgan tovarlarga va transport vositalariga nisbatan, taqdim etilishi bojxona kodeksi bilan nazarda tutilgan bojxona deklaratsiyasiga tovarlar to'g'risidagi hujjatlarga va ma'lumotlarga nisbatan, yuridik va jismoniy shaxslarning tovarlarni bojxona chegarasi orqali olib o'tish bojxona ishi sohasida xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq shuningdek ayrim, bojxona rejimlari doirasida amalga oshiriladigan faoliyatga nisbatan qo'llaniladi deya mustahkamlab qo'yilgan. Yangi tahrirdagi bojxona kodeksining 188-moddasi bojxona nazoratini amalga oshirish shakllari va tartibi deb ataladi. Mazkur modda bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi va shakllarini belgilaydi. Unga eski tahrirdagi bojxona kodeksining 39-moddasida nazarda tutilgan ayrim bojxona nazoratini amalga oshirish shakllaridan tashqari bojxona ko'zdan kechiruvi, shaxsiy ko'rik, bojxona kuzatuvi, bojxona identifikatsiyalashi, tovarlarni tamg'alanganligini tekshirish kabi yangi bojxona nazoratini amalga oshirish shakllari kiritilgan.²⁸ Eski tahrirdagi Bojxona kodeksida bojxona nazorati shakllari yettitani tashkil qilardi. Yangi tahrirdagi Bojxona kodeksida ular o'n ikkitaga yetkazilgan va ular quyidagilaridir:

- hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish;
- og'zaki so'rov;
- axborot olish;
- bojxona ko'zdan kechiruvi;
- tovarlarning tamg'alanganligini tekshirish;
- bojxona ko'rigi;
- shaxsiy ko'rik;
- bojxona identifikatsiyalashi;
- bojxona kuzatuvi;

²⁷ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 3(І)-сон, 31-модда

²⁸ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 3(І)-сон, 31-модда

- binolar va hududlarni tekshirish;
- tovarlarni va transport vositalarini hisobga olish, ularni hisobga olish tizimini tekshirish hamda ushbu tovarlarni va transport vositalarini inventarizatsiya qilish;
- tovarlar chiqarib yuborilganidan keyingi bojxona nazorati.

Bojxona organlari bojxona nazorati shakllarini qo'llashda tanlab olish prinsipiga asoslanadi va bojxona nazoratining bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlaydigan shakllari bilan cheklanadi. Bu esa ortiqcha ushlab qolish holatlarini va bojxona chegarasidan o'tayotgan shaxslarni huquq va manfaatlarini poymol bo'lishini oldini oladi.

Bojxona nazorati amalga oshirilayotganda bojxona organlari bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilishlarining oldini olish maqsadida, tekshirilishi kerak bo'lgan tovarlarni va transport vositalarini, yuridik va jismoniy shaxslarning hujjatlarini aniqlash, bojxona nazorati shakllarini va ularning qo'llanilish hajmini tanlash uchun xavfni boshqarish tizimini qo'llaydi. Shu o'rinda ta'kidlash joziki "xafni boshqarish tizimi" tushunchasi eski tahrirdagi bojxona kodeksida mavjud emas edi. Mazkur tizimning amaliyotga kiritilishidan maqsad bojxona nazoratini samaradorligini oshirish, bojxona nazorati olib borish uchun sarf etiladigan vaqtni qisqartirish, xavfsizlikni oshirish bu orqali mamlakatimiz sarhadlarini himoya qilish mexanizmlarini yanada takomillashtirish hamda bojxona tartibotlarini xalqaro standartlarga moslashtirishga yordam beradi.

Bojxona nazoratining muayyan shakllaridan ozod etish O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga va xalqaro shartnomalariga muvofiq amalga oshiriladi.

Bojxona nazoratining ayrim shakllarini qo'llamaslik yoki ulardan ozod qilish yuridik va jismoniy shaxslar bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etish majburiyatidan ozod qilinganligini anglatmaydi.

Bojxona kodeksining 189-moddasiga muvofiq quyidagilar bojxona ko'rigidan o'tkazilmaydi:

- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining va O'zbekiston Respublikasi sobiq Prezidentining shaxsiy bagaji;

- O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati a‘zolarining va Qonunchilik palatasi deputatlarining, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi a‘zolarining, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Inson huquqlari bo‘yicha vakilining (ombudsmanning) va O‘zbekiston Respublikasi diplomatik pasportlari egalarining shaxsiy bagaji, agar mazkur shaxslar xizmat vazifalarini bajarishi bilan bog‘liq holda bojxona chegarasini kesib o‘tsalar;
- qonunga muvofiq boshqa mansabdor shaxslarning shaxsiy bagaji.

Chet el xarbiy kemalari, jangovar va harbiy-transport havo kemalari, shuningdek o‘zi yurib kelayotgan harbiy texnikasi bojxona ko‘rigidan ozod qilinadi.

Bojxona nazorati bojxona ishi tuzilmasining tarkibiy qisimidir, bojxona ishi tuzilmasi bojxona siyosatini amalga oshirishning asosiy vositalari bilan ifodalanadi va ular quyidagilarni tashkil qiladi:²⁹

- tovarlar va transport vositalarini bojxona chegarasi orqali olib o‘tish tartibi va shartlari;
- bojxona rejimlari;
- boj tariflari vositasida tartibga solish;
- bojxona rasmiylashtirilishi;
- bojxona ta‘minoti;
- bojxona nazorati;
- bojxona statistikasi va tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi;
- bojxona ekspertizasi;
- kontrabandaga va bojxona ishi sohasidagi boshqa jinoyatlarga qarshi kurash;
- bojxona haqidagi qonun hujjatlarini buzganlik to‘g‘risidagi ishlarni yuritish va ko‘rib chiqish.

Bojxona ishining mazkur tuzilmasi ham, albatta, batafsil emas, uni yanada tabaqalashtirish mumkin. Umuman olganda esa bojxona siyosati

²⁹ “Bojxona huquqi” darslik. Oliy xarbiy bojxona instituti.:T-2012 b. 28

vositalarining keltirilgan ro'yhati O'zbekiston Respublikasi bojxona ishining hozirgi tuzilmasini aynan aks ettiradi desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bojxona ishining yuqorida sanab o'tilgan tarkibiy qismlarining ahamiyati, ro'li va maqomi bir xil emas. Biroq, ular xususiyati va maqsadlariga, bojxona ishi tizimidagi o'rniga ko'ra turlicha bo'lsa ham jam bo'lgan holda uzviy birlikni tashkil etadi, va O'zbekiston Respublikasining yagona bojxona vazifalariga xizmat qiladi.

Bojxona nazorati davlat nazoratining bir ko'rinishi hisoblanadi va qonunga rioya etilishini ta'minlashga xizmat qiluvchi qoidalarini o'zida jamlaydi hamda bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalarini o'tkazishda qonunga rioya qilinishi ustidan olib borilishi lozim bo'lgan chora va tadbirlar majmui bo'lib hisoblanadi. Umumjahon Bojxona tashkilotining ma'lumotnomasidagi ta'rifga to'xtaladigan bo'lsak unda shunday deyiladi: "Bojxona nazorati bojxona organlariga zimmasiga yuklatilgan bojxona to'g'risidagi hamda boshqa qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlashni o'z ichiga oluvchi qoidalar majmuini o'z ichiga oladi".

Aynan shunday ta'rif "Bojxona jarayonlarini soddalashtirish va uyg'unlashtirish to'g'risidagi Kioto" xalqaro konvensiyasida ham keltirib o'tilgan. Bojxona organlari tomonidan amalga oshiriladigan qoidalar majmui deyilganda bojxona organlari tomonidan fakt va hujjatlar asosida amalga oshiriladigan tovar va transport vositalariga nisbatan amalga oshiriladigan harakatlar ya'ni bojxona nazoratini amalga oshirish tushuniladi, bunday harakatlar sirasiga tovarlarni ko'zdan kechirish, ularga tegishli bo'lgan hujjatlarning mavjudligi hamda ularning to'g'ri to'ldirilganligi, buxgalteriya hujjatlarini tekshirish hamda ulardagi yozuvlarni mos kelishi hamda transport vositalarini ko'zdan kechirish, shu jumladan shaxsiy ashyolarni ko'zdan kechirish kabilar yuqorida qayd etilgan harakatlar doirasiga kiradi.

Mazkur harakatlar faqat unga vakolatli bo'lgan organlar ya'ni Bojxona organlari tomonidan amalga oshirilishini mumkin.

Yevropa ittifoqi qonunchiligida ham bojxona nazorati tushunchasi ayni yuqorida ta'kidlangan ta'riflar bilan mos keladi desak mubolag'a bo'lmaydi. Yevropda ittifoqida bojxona nazorati deb bojxona organlarining mansabdor

shaxslari tomonidan amalga oshiriladigan aniq harakatlar majmui ya'ni bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalarini o'tkazishda ularni ko'zdan kechirish, hujjatlarning mosligi, mavjudligini tekshirishni o'z ichiga oluvchi qoidalar majmuini tashkil etadi.

Xalqaro Kioto konvensiyasining 6.1³⁰ bandida barcha bojxona chegarasidan o'tayotgan tovar va transport vositalari davlat boji va soliqlarga tortilishidan qat'i nazar bojxona nazoratidan o'tkazilishi lozimligi belgilangan. Bunga sabab ko'p hollarda bojxona chegarasidan tovar yoki transport vositalari o'tkazishda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari davlat bojlaridan qochishga harakat qilishadi va shu sababli hujjatlarni buzib ko'rsatishga yoki deklaratsiyani noto'g'ri to'ldirish kabi huquqbuzarliklarni sodir qilishadi. Shu sababli bojxona organlari mazkur qonun buzarliklarni oldini olish hamda byudjetga o'z vaqtida soliq va davlat bojlarining undirilishini hamda davlat va jamiyat manfaatlarini ta'minlash uchun ham bojxona nazorati o'tkazishlari shart hisoblanadi.

Bojxona nazoratini amalga oshirish o'zida ma'lum maqsad va vazifalarni ko'zlaydi, bunday maqsad va vazifalar quyidagilardir:

- bojxona munosabatlarining barcha ishtirokchilari tomonidan bojxona qonunchiligiga rioya etilishi;
- davlat va jamiyat manfaatlarini va davlat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash;
- jamoat tartibini saqlash;
- bojxona ishini amalga oshirishda huquqbuzarlik va jinoyatlarni aniqlash va oldini olish ;
- yuridik va jismoniy shaxslarni qonuniy huquq va manfaatlarini himoya etish;
- jinoyatchilikka hamda xalqaro terrorizmga qarshi kurashish.

Har qanday davlat organi mavjudki u nazorat munosabatlarinig majburiy subyektidir. Deyarli barcha davlat organlari nazorat qilish vazifasini bajaradi va ularning ba'zilar uchun bu vazifa eng asosiysi hisoblanadi. Nazorat funksiyasi

³⁰www.consultant.ru/document/cons_doc_LAW_106124

barcha davlatlarda bo'lgani singari bizda ham bojxona organlarini asosiy vazifasi hisoblanadi.

Bojxona nazoratining maqsadlarini bojxona kodeksining 6-moddasida belgilab qo'yilgan normalar asosida aniqlash maqsadga muvofiq bo'lardi bizningcha. Unga ko'ra bojxona maqsadlari quyidagilaridir:

1. bojxona chegarasi orqali tovarlar va transport vositalarini olib o'tish, tovarlarni tashish, saqlash va qayta ishlashda bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash;
2. bojxona to'lovlarini o'z vaqtida undirilishini ta'minlash;
3. iqtisodiyot siyosat choralari, bojxona rejimlari talablari va shartlariga rioya etilishini ta'minlash;
4. bojxona to'g'risidagi qonun hujjatlarini buzish hollariga chek qo'yish va ularni oldini olish.

Mazkur norma ayni bojxona nazoratini amalga oshirishdan ko'zlangan maqsadni to'la to'kis ochib beradi.

Bazan adabiyotlarda bojxona nazoratining turlari va uni amalga oshirish shakllarini adashtirib yuborishadi. Fikrimizcha bojxona nazoratining turlari quyidagilardan iborat:

1. Yengil va yuk avtomobillari ustidan bojxona nazorati;
2. Temir yo'l transporti ustidan bojxona nazorati;
3. Avia transporti ustidan bojxona nazorati;
4. Daryo transporti ustidan bojxona nazorati;

N.G. Belovning fikricha nazorat shakllari deb uni olib borish va o'tkazish tartibga aytiladi. Ya'ni uni olib borish vaqti, joyi, olib borish usullari bojxona nazoratini olib borish tartibini ifodalab beradi.³¹

Rus olimlari tomonidan yozilgan adabiyotlarda bojxona nazoratini shakli deyilganda tashqi ta'sir orqali nazorat qilinuvchi subyektga ta'sir o'tkazish tushuniladi.

F.F Butinets nazoratning uchta ko'rinishi bor deb ta'kidlaydi, unga ko'ra sifat, son va qiymat nazoratning shakllari hisoblanadi. Bojxona nazorati esa

³¹ Belov N.G «Контроль и ревизия в сельскохозяйственных предприятиях». М., 2001 б.98

mana shu ko'rsatkichlar orqali olib boriladigan tadbirlar majmuidir degan fikrni ilgari suradi.³²

Amaliyotda bojxona huquqbuzarliklari asosan bojxona nazoratini amalga oshirish jarayonida yuzaga keladi. Bunda bojxona nazoratining bojxona ko'zdan kechiruvi, bojxona ko'rigi, shaxsiy ko'rik kabi usullari keng qo'llaniladi. Shu sababli asosiy e'tiborni mazkur bojxona nazorati shakllariga qaratilishi lozim.

Yurudik adabiyotlarda bojxona ko'rigidan o'tkazish, bojxona ko'zdan kechiruvi va shaxsiy ko'rikdan o'tkazish tushunchalariga turlicha yondashuvlar mavjud.

Misol uchun I.V.Timoshenko bojxona ko'zdan kechiruvi tushunchasiga quyidagicha ta'rif bergan, unga ko'ra bojxona ko'zdan kechiruvi bojxona organlari xodimlari tomonidan amalga oshiriladi va bunda ular tomonidan tovar va transport vositalari, xalqaro pochta jo'natmalari, jismoniy shaxslarning yuklari ularni bojxona chegarasidan o'tishining qonuniyligini aniqlash ya'ni bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarning to'g'riligi, bojxona nazoratidan yashirin ravishda olib o'tilayotgan tovarlar ya'ni kontrabanda holatlarini oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.³³

A.N.Myagkov berib o'tgan fikrga ko'ra: bojxona ko'zdan kechiruvi bu teskhiruv qidiruv ishlari bo'lib, ular davlat majburiy xarakteriga ega va bu harakatlar davlat tomonidan ma'sul qilingan davlat xizmatchilari tomonidan amalga oshiriladi. Bunda tekshirilayotgan obyektlarga zarar yetkazmaslik kerak. Mazkur harakatlar orqali bojxona huquqbuzarlik holatlari aniqlanadi.³⁴

Bizning fikrimizcha bojxona ko'zdan kechiruvi bu tovar va transport vositalarini bojxona chegarasidan olib o'tishda ularni bojxona chegarasi orqali harakatlanishining qonunliyligini aniqlash maqsadida o'tkaziladigan harakatlar bo'lib, mazkur harakatlar tovar va transport vositalariga tegishli bo'lgan hujjatlar, ularga tegishli bo'lgan deklaratsiyalarni solishtirish ya'ni son va qiymat ko'rsatkichlarni taqqoslash orqali bojxona qonunbuzlishi holatlarini oldini olishdir.

³² Бутынец Ф.Ф. «Организация и проведение ревизий в условиях механизации учета в потребкооперации». М., 2001. 6.57

³³ Тимошенко И.В. «Таможенное регулирование внешнеэкономической деятельности». М., 2003. б.145

³⁴ Мягков А.В. Досмотр как мера административного принуждения, применяемая милицией. Дисс. ... канд. юрид. наук. Омск, 2004. б.9

Bojxona nazoratini olib borishning har qanday shakli aniq maqsadni ko'zlaydi. Bojxona ko'zdan kechiruv ham bundan mustasno emas. Uning asosiy maqsadi quyidagilaridir:

- yo'lovchi bojxona deklaratsiyasida yoki bojxona yuk deklaratsiyasida bayon etilgan ma'lumotlarni tovar va transport vositalaridagi ma'lumotlar bilan mos kelishini tekshirish;
- vakolatli organlar tomonidan berilgan ruxsat beruvchi hujjatlarning haqiqiyliги hamda ulardagi ma'lumotlarning tovarlar bilan mos kelishi;
- bojxona chegarasidan o'tkazilayotgan tovar va transport vositalarining qonunchilikda belgilab qo'yilgan miqdor va cheklovlarga muvofiqligi;
- kontrabanda tovarlarni aniqlash va boshqalar.

E.V.Sergeevning fikricha bojxona ko'zdan kechiruvining asosiy vazifa maqsadlari quyidagilardir:³⁵

- bojxona chegarasi orqali tovarlarni o'tishini qonuniyligini ta'minlash;
- bojxona chegarasi orqali olib o'tish taqiqlangan predmetlar, ashyolarni aniqlash va ularni noqonuniy harakatlanishini oldini olish;
- tovarga tegishli bo'lgan son va qiymat belgilarni aniqlash.

Bojxona ko'zdan kechiruvini amalga oshirishni mukammalroq tushunish uchun uni amalga oshirish ko'rinishlarini va usullarini ko'rib chiqish lozim:³⁶

1. Bojxona ko'zdan kechiruv amalga oshirish asoslariga ko'ra:
 - a) asosiy(oddiy ko'zdan kechiruv, texnik vositalar yordaimda ko'zdan kechiruv);
 - b) takroriy(dastlabki tekshiruvni natijalarini mustahkamlash uchun o'tkaziladigan ko'zdan kechiruv);
 - c) yo'naltirilgan (tovarlarni bojxona chegarasidan olib o'tishda belgilangan taqiq va cheklovlarga rioya etilishini ta'minlash hamda bojxona nazoratidan yashirin ravishda tovarlar olib o'tishni oldini olish uchun amalga oshiriladigan ko'zdan kechiruv);

³⁵ Сергеев Е.В. Таможенный контроль: проблемы правового регулирования. Дисс. ... канд. юрид. наук. Саратов, 2004 6.108

³⁶ Погодиной Н.А. Таможенный досмотр: правовое регулирование и перспективы развития. монография / ю.ф.д О.Ю. Бакаевой. тахрири остида М.: Юрлитинформ, 2011 6.25

d) Taqqoslash (ko‘dan kechiruv jarayonida deklarant tomonidan ko‘rsatilgan ma’lumotlar haqiqatda tovarning hossalari va u haqidagi ma’lumotlar uni kelib chiqishi kabilar bilan to‘g‘ri keladimi);

Bojxona ko‘zdan kechiruvi bosqichlariga ko‘ra:

- a) Yuklarni o‘lchab ko‘rish va ularni sonini aniqlash;
- b) Yuklarni tanlab olish yo‘li bilan ko‘zdan kechirish;
- c) Barcha yuklarni ko‘zdan kechirish.

Bojxona ko‘zdan kechiruvini o‘tkazish majburiylikiga qarab:

- a) Majburiy (misol uchun aksiz tovarlarga nisbatan);
- b) Ixtiyoriy (bojxona ko‘zdan kechiruvini o‘tkazish bojxona organi xodimi tomonidan shubhali holatlar, huquqbuzarlik sodir etilishi mumkin bo‘lgan holatlarda o‘tkaziladi).

Transport vositasini ko‘zdan kechirishga ko‘ra:

- a) Yengil avtotransportni ko‘zdan kechirish;
- b) Temir yo‘l transportini ko‘zdan kechirish;
- c) Havo kemalarini ko‘zdan kechirish;
- d) Dengiz va daryo transportini ko‘zdan kechirish.

Ko‘zdan kechirish obyektlariga ko‘ra:

- a) Tez buziladigan tovarlar;
- b) aksiz tovarlar;
- c) katta gabaritli yuklar;
- d) passajir yuklari;
- e) radioaktiv moddalar;

Davalatlar ishtirokiga ko‘ra bojxona ko‘zdan kechiruvi quyidagilarga bo‘linadi:

- a) bir tomonlama ko‘zdan kechiruv (bojxona tekshiruvini bitta davlat organi amalga oshiradi);
- b) ikki tomonlama ko‘zdan kechirish (tekshiruvni ikki davlat bojxona organi alohida alohida amalga oshiradi);
- c) hamkorlikda ko‘zdan kechirish (ikki davlat bojxona organi kelishgan holda ko‘zdan kechirish)

Bojxona ko‘dan kechiruvini o‘tkazishning huquqiy asoslari Bojxona kodeksida mustahkamlab qo‘yilgan. Tekshiruvni o‘tkazish uchun tovar yoki transport vositasini olib o‘tayotgan shaxs tomonidan berilgan deklaratsiya asos bo‘ladi.

Bojxona ko‘dan kechiruvini protsessual asosi bojxona organi xodimi tomonidan chiqarilgan qarordir.³⁷

Umuman olganda bojxona nazoratidan o‘tkazish majburlov chorasi hisoblanadi. Negaki u yoki bu shaxsning ixtiyoriga bog‘liq bo‘lmagan yoki qarshi tarzda o‘tkaziladi.

Nazorat tushunchasi yuridik fanda ko‘p o‘rganilgan soha hisoblanadi. Uning mohiyati qo‘llanilayotgan shaxsga nisbatan majburlov chorasini uning ixtiyoriga qaarshi ravishda qo‘llashni angalatadi.

A.I.Kaplunov ning fikricha nazorat davlat majburlov kuchi, ta’sir chorasi bo‘lib, «qonunda belgilab qo‘yilgan normalarni bajarish uchun davlat xizmatchilari tomonidan qonunbuzilish hollarini oldini olish uchun qo‘llaniladigan harakatlar va tadbirlardir».³⁸

K.V.Kxvastunovning fikricha yuqorida ta’kidlab o‘tilgan majburlov choralarining o‘tkazilishiga quyidagilar asos bo‘ladi:

- shaxsni shubhali harakatlar qilishi yoki uni huquqbuzarlik sodir etishi;
- shaxs huquqbuzarlik sodir etish quroli yoki boshqa taqiqlangan fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyosini yashirayapti degan taxmin yoki asoslar bo‘lganda o‘tkaziladi.³⁹

Yuqoridagi fikrga qo‘shila olmaymiz, negaki bojxona nazorati shakllari yoki boshqa har qanday majburlov chorasi huquqbuzarlik sodir etilganda yoki uni sodir etganlik uchun emas, balki uni oldini olish uchun amalga oshiriladi. Shunday ekan bojxona nazoratini amalga oshirishdan maqsad avvalo qonun ustvorligini ta’minlash. Bojxona chegarasini kesib o‘tayotgan shaxslar va ular olib o‘tayotgan tovar, transport vositalarining harakati qonuniy bo‘lishini ta’minlash uchun, bojxona nazorati har qanday shaklda o‘tkazilishi mumkin.

³⁷ Погодина Н.А. «Таможенный досмотр товаров и транспортных как форма таможенного контроля: правовой аспект». диссертация. Саратов, 2010 б.17

³⁸ А.И. Каплунов Об основных чертах и понятии государственного принуждения // Государство и право журналы. 2004. №12

³⁹ Kvastunov K.V. «Меры обеспечения производства по делам об административных правонарушениях, применяемые милицией». дисс. Челябинск, 2004 б.70

Endi esa bojxona nazoratining shaxsiy ko'rikdan o'tkazish bojxona nazorati shaklini ko'rib chiqsak.

Ashyolar, huquqbuzarlik quroli bo'lgan yoki uning sababchisi bo'lishi mumkin bo'lgan narsalarni aniqlash maqsadida ko'zdan kechirilishi, shaxsni o'zi esa shunday ashyolarni olib o'tayotganlikda shubha bo'lsa yoki shunday deb hisoblashga asoslar mavjud bo'lsa, shaxsiy ko'rikdan o'tkazilishi mumkin.

G.V.Mativenkoning fikricha shaxsiy ko'rik bojxona qoidalarini buzganlik uchun protsessual chora hisoblanadi va ma'muriy majburlov chorasini bo'lib hisoblanmaydi, bojxona nazorati shakllariga ham kirmaydi. Uning fikricha shaxsiy ko'rikdan o'tkazish ma'muriy ta'sir chorasini bo'lishi uchun huquqbuzarlik fakti bo'lishi kerak. Bojxona nazorati esa qonunbuzilish holatini oldini olish uchun davlat va jamiyat manfaatlarini himoya qilish maqsadida amalga oshiriladi.⁴⁰

Bu fikr aslida noto'g'ri, nega deganda bojxona ko'rigidan o'tkazish uchun huquqbuzarlik bo'lishi yoki bo'lmasligi shart emas. Matvienkoning fikri bir-biriga zid va ikki xil ma'noni beradi. Bojxona ko'rigidan o'tkazish bojxona qoidalarini buzganlik uchun qo'llaniladigan protsessual chora bo'ladigan bo'lsa, u bojxona nazoratining tarkibiy qismi hisoblanadi. Chunki bojxona nazorati avvalo davlat majburlov kuchini va ta'sir chorasini o'zida ifoda etadi.

Shuni ta'kidlash joziki shaxsiy ko'rikdan o'tkazish vaqtida shaxsni bazi huquq va erkinliklari cheklanishi mumkin. Shuning uchun u faqat istisno chora sifatida qo'llanilishi lozim.

Shaxsiy ko'rikdan o'tkazish uchun quyidagilar asos bo'ladi:

- bojxona nazorati zonasida bo'lgan shaxs shubhali harakatlar qilsa yoki shunday harakatlar unda qonun bilan taqiqlangan fuqarolik muomalasidan chiqarilgan ashyolar bor deb taxmin qilish uchun yetarli bo'lsa;
- xalqaro aeroportning tranzit zonasidagi shaxs deklaratsiyani noto'g'ri to'ldirganligi ya'ni tovar yoki boshqa ashyolarni bojxona nazoratidan yashirishga urinayapti degan asoslar bo'lsa.

Bir qarashda mazkur asoslar bojxona ko'rigidan o'tkazish uchun yetarli emas deb hisoblash mumkin. Lekin bu yerda boshqacha bo'lishi mumkin ham

⁴⁰ Матвиенко Г.В. «Административные процедуры в таможенном праве: Монография» / юридик фанлар доктори С.В. Запольский. тахрири остида. М., 2008 6.74

emas. Bojxona inspektori professional kasb mahoratiga ega bo'lishdan tashqari psixolog ham bo'lishi kerak. U shaxsni o'zini tutishiga qarab shubhali harakatlari yohud asabiy holatiga qarab, uni bojxona huquqbuzarligi sodir etishi mumkin degan taxminga kelishi mumkin va uni tekshirib ko'rish lozim.

Shaxsiy ko'rikdan o'tkazish asoslari bojxona kodeksining 196-moddasida belgilab qo'yilgan unga ko'ra: Shaxsiy ko'rik bojxona chegarasi orqali o'tayotgan va bojxona nazorati zonasida yoki aeroportning xalqaro yo'nalishlar uchun ochiq bo'lgan tranzit zonasida bo'lgan jismoniy shaxsga nisbatan o'tkaziladi.

Shaxsiy ko'rik bojxona hududiga olib kirish yoki ushbu hududdan olib chiqish taqiqlangan tovarlarni yohud ushbu Kodeksda belgilangan tartibni buzgan holda olib o'tilayotgan tovarlarni jismoniy shaxs yonida yashirmoqda va ularni o'z ixtiyori bilan taqdim etmoqchi emas, deb taxmin qilishga asoslar bo'lgan taqdirda bojxona organining mansabdor shaxsi tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxsiy ko'rikdan o'tkazish haqidagi qaror bojxona organining boshlig'i yoki uning o'rnini bosuvchi shaxs tomonidan qabul qilinadi.

Shaxsiy ko'rikdan o'tkazishni boshlashdan avval bojxona organining mansabdor shaxsi:

- shaxsiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi qarorni jismoniy shaxsga e'lon qilishi;
- shaxsiy ko'rik o'tkazilayotganda jismoniy shaxsni uning huquqlari bilan tanishtirishi;
- jismoniy shaxsga yonida berkitilgan tovarlarni o'z ixtiyori bilan berishni taklif qilishi shart.

Agarda shaxs shaxsiy ko'rikni rad etadigan bo'lsa, shaxsiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi qarorga shaxsiy ko'rikdan o'tkazish haqidagi qarorni e'lon qilgan bojxona organi mansabdor shaxsining imzosi bilan tasdiqlangan belgi qo'yadi.

Agar ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs bojxona organi mansabdor shaxsining qonuniy talablarini bajarmasa yoki bajarishga qarshilik ko'rsatsa,

ushbu harakatlar ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq jismoniy shaxsni ma'muriy yo'l bilan ushlab turish uchun asos bo'ladi.

Shaxsiy ko'rik sanitariya-gigiena talablariga javob beradigan alohida honada bojxona organining ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs bilan bir jinsdagi mansabdor shaxsi tomonidan xuddi shu jinsdagi ikki holis hozirlikida o'tkazilishi lozim. Boshqa jismoniy shaxslarning bu xonaga kirish va shaxsiy ko'rikdan o'tkazishni kuzatish imkoniyatiga yo'l qo'yilmaydi. Ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxsning tanasini tekshirish faqat tibbiyot xodimlari tomonidan, zarur bo'lganda, maxsus tibbiyot texnikasidan foydalangan holda amalga oshiriladi. Zarur bo'lganda shaxsiy ko'rik o'tkazilayotganda tarjimon jalb qilinadi.

Voyaga yetmagan yoki muomalaga layoqatsiz shaxs shaxsiy ko'rikdan o'tkazilayotganida uning qonuniy vakillari (ota-onasi, farzandlikka olganlar, homiylar, vasiylar) yoki uni kuzatib boruvchi shaxslar hozir bo'lishlari mumkin.

Shaxsiy ko'rik ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs tomonidan o'zida yashirib qo'yilgan tovarlarni topish uchun zarur bo'lgan doirada hamda inson sha'ni va qadr-qimmatini kamsitilishini, uning sog'lig'i va mol-mulkiga ziyon yetkazilishini istisno etadigan shaklda amalga oshiriladi.

Ko'rikdan o'tkazilayotgan shaxs yoki uning qonuniy vakili yoxud uni kuzatib boruvchi shaxs shaxsiy ko'rikdan o'tkazish jarayonida quyidagi huquqlarga ega:

- bojxona organi boshlig'ining yoki uning o'rnini bosuvchi boshqa shaxsning shaxsiy ko'rikdan o'tkazish to'g'risidagi qarori e'lon qilinishini talab qilish;
- ona tilidan foydalanish, shuningdek tarjimon xizmatlaridan foydalanish;
- o'z huquqlari va majburiyatlari bilan tanishish;
- tushuntirishlar, iltimosnomalar berish;
- shaxsiy ko'rik bayonnomasini tuzish tugallanganidan so'ng u bilan tanishib chiqish va mazkur bayonnomaga kiritilishi lozim bo'lgan ma'lumotlarni bayon etish;

- bojxona organining qarori, uning mansabdor shaxslari harakatlari (harakatsizligi) ustidan belgilangan tartibda shikoyat qilish.

Yuqorida ta'kidlanganidek bojxona ko'rigidan o'tkazish bojxona nazorati shakliga istisno sifatida qarash maqsadga muvofiq. Bojxona nazoratini olib borishda asosan yuqorida ta'kidlab o'tilgan bojxona nazorati shakllari ko'p qo'llaniladi. Buning sababi tovar va transport vositalarini bojxona chegarasidan o'tkazishda bojxona nazoratini boshqa shakllarini qo'llashga ko'p hollarda ehtiyoj bo'lmaydi.

Og'zaki so'rov ham albatta ko'p qo'llaniladigan bojxona nazorati shakllaridan hisoblanadi. Lekin mazkur protsessual harakat yuqorida ta'kidlab o'tilgan bojxona nazoratining boshqa shakllari bilan birga qo'llaniladi.⁴¹

Umuman olganda bojxona nazoratini qaysi shakli qo'llanilishidan qat'i nazar u qonun ustuvorligini ta'minlashga, mamlakatimiz iqtisodiy xavfsizligini hamda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini manfaatlarini himoyalashga qaratilgan. Bu esa bojxona to'lovlarini davlat byudjetiga o'z vaqtida undirilishini hamda qonunchilikka royiya etilishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

⁴¹ Погодина Н.А. «Таможенный досмотр товаров и транспортных как форма таможенного контроля: правовой аспект». дисс. Саратов – 2010. 6.43

II BOB. Bojxona nazoratining turlari hamda uning asosiy shakllari va huquqiy mohiyati.

2.1 § Yengil avtotransport vositalari va yuk avtotransport vositalari harakati ustidan bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi.

Bojxona nazoratini maqsadi hamda uni olib borish tartib haqida yuqoridagi bobda batafsil to'xtaldik. Mazkur bobda esa bojxona nazoratining turlari hamda ularning shakllari haqida to'xtalamiz.

O'zbekiston Respublikasida ro'yhatga olingan yoki ro'yhatga olinmagan yengil avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari boshqaruvi ostida respublikaning barcha chegara bojxona postlari orqali olib kirilishi va olib chiqilishi mumkin. Haydovchilari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lmagan avtotransport vositalari esa faqat xalqaro maqomga ega bo'lgan chegara bojxona postlari orqali harakatlanishiga ruxsat etiladi. Xalqaro maqomga ega bo'lgan chegara bojxona postlari barcha davlat fuqarolari va transport vositalari harakatlanishi mumkin bo'lgan chegara postlaridir. Xorijiy davlatlarda ro'yhatga olingan yengil avtotransport vositalari respublikaning xalqaro maqomga ega bo'lgan barcha chegara bojxona postlari orqali olib kirilishi yoki olib chiqilishi mumkin.⁴²

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasida ro'yhatga olingan yoki ro'yhatga olinmagan yoki ro'yhatdan chiqarilgan yengil avtotransport vositalari Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston davlatlari fuqarolari boshqaruvi ostida mazkur davlatlar bilan imzolangan o'tkazish punktlari to'g'risidagi bitimlarga asosan belgilangan ikki tomonlama chegara bojxona postlari orqali ham harakatlanishiga ruxsat etiladi.⁴³

Ikki tomonlama chegara bojxona postlari bular qo'shni davlatlar bilan izmolangan kelishuvga muvofiq belgilangan va faqatgina axdlashuvchi davlatlar

⁴² Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 50-сон, 504-модда

⁴³ "O'zbekiston Respublikasi Hukumati hamda Qozog'iston Respublikasi Hukumati o'rtasida O'zbekiston-Qozog'iston davlat chegarasi orqali o'tish punktlari to'g'risida"gi Bitim (Ostona, 2001 yil 16 noyabr); "O'zbekiston Respublikasi Hukumati hamda Tojikiston Respublikasi Hukumati o'rtasida davlat chegarasi orqali o'tish punktlari to'g'risida"gi Bitim (Toshkent, 2002 yil 12 fevral); "O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg'iziston Respublikasi Hukumati o'rtasida davlat chegarasi orqali o'tkazish punktlari to'g'risida"gi Bitim (Bishkek, 2004 yil 24 iyul); "O'zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Hukumati o'rtasida davlat chegarasi orqali o'tish punktlari haqida"gi Bitim (Ashxobod, 2007 yil 18 oktyabr);

fuqarolari va transport vositalari harakatlanishi mumkin bo'lgan chegara postlaridir.⁴⁴

O'zbekiston Respublikasi xavfsizligini ta'minlash maqsadida hamda bojxona postida qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilayotganda chegara bojxona postlari orqali engil avtotransport vositalarining harakati cheklanishi yoki vaqtinchalik to'xtatilishi ham mumkin.

Chegara bojxona postlarining ish vaqtiga qarab, yengil avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi hududiga kunning faqat yorug' vaqtida yoki sutka davomida kirib kelishlari yoki olib chiqib ketishlari mumkin. Chegara bojxona postlarining ish vaqti O'zbekiston Respublikasining qo'shni davlatlar bilan imzolangan o'tkazish punktlari to'g'risidagi bitimlariga asosan belgilanadi. Chegara bojxona postlari dam olish va bayram kunlari ham belgilangan tartibda faoliyat olib boradi.

Yengil avtotransport vositasi haydovchisi tomonidan bojxona organi xodimiga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:⁴⁵

1. Fuqarolik pasporti;
2. Transport vositasini ro'yhatga olish guvohnomasi;
3. Transport vositasiga egalik va uni boshqarish huquqini tasdiqlaydigan ishonchnoma (notarial tasdiqlangan) yoki yo'l varaqasi – *zarur hollarda*;
4. Avtotransport vositasini qaytarib olib kirish to'g'risida majburiyatnoma;
5. Belgilangan tartibda to'ldirilgan yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi;

Bojxona xodimi tomonidan yo'lovchi bojxona deklaratsiyasidagi ma'lumotlar taqdim etilgan hujjatlar bilan solishtirilib tekshiriladi shaxsiy muhr va imzo qo'ygan holda rasmiylashtiriladi.⁴⁶

Avtotransport vositasi qidiruvda ekanligi aniqlanadigan bo'lsa, avtotransport vositasining qidiruvi sababiga aniqlik kiritilib, qidiruvni e'lon qilgan idoraga ma'lumot beriladi hamda avtotransport vositasi vaqtincha ushlab

⁴⁴ O.Zayniddinov «Chegarada bojxona nazorati» Davlat bojxona qo'mitasi. T -2014. b. 14

⁴⁵ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 50-сон, 504-модда

⁴⁶ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 16-сон, 217-модда

turiladi. Avtotransport vositasini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda nazorat muddati belgilanmaydi.⁴⁷

Xorijiy davlatlarda ro‘yhatga olingan yengil avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasiga kirib kelgan sanadan boshlab bir yil mobaynida uch oygacha bo‘lgan muddatga bojxona bojlari va soliqlardan to‘liq ozod qilingan holda bojxona Yuk deklaratsiyasi rasmiylashtirilmasdan tranzit olib o‘tish maqsadida vaqtinchalik olib kirilishi mumkin. Avtotransport vositasiga qaytarib olib chiqish majburiyatnomasini rasmiylashtirishda bojxona xodimi ushbu avtotransport vositasining o‘tgan bir yil mobaynida O‘zbekiston Respublikasida bo‘lgan muddatidan kelib chiqib, unga qaytarib olib chiqish muddatini belgilab beradi.⁴⁸

Xorijiy davlatlarda ro‘yhatga olingan yengil avtotransport vositalari O‘zbekiston Respublikasidan chiqib ketayotgan sanadan boshlab o‘tgan bir yil mobaynida uch oydan ortiq muddat respublika hududida bo‘lgan va avtotransport vositasi tegishli bojxona rejimiga rasmiylashtirilmagan taqdirda o‘tgan har bir kun uchun dvigatel hajmining har kub santimetri uchun 0,01 AQSH dollari miqdorida yig‘im hisoblanadi.

Avtotransport vositasi bojxona chegarasi orqali olib kirilganda, bojxona xodimi tomonidan ushbu avtotransport vositasining O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida bo‘lishi uchun qaytarib olib kirish majburiyatnomasida belgilab berilgan muddat tekshiriladi. Ushbu muddatdan kechiktirilganligi aniqlangan taqdirda O‘zbekiston Respublikasining “Ma’muriy javobgarlik to‘g‘risidagi kodeksi”ga muvofiq belgilangan tartibda choralar ko‘riladi.

Avtotransport vositasini O‘zbekiston Respublikasi hududiga olib kirishda nazorat muddati belgilanmaydi.

Avtotransport vositasi bojxona chegarasi orqali olib kirilganda, bojxona xodimi tomonidan ushbu avtotransport vositasining O‘zbekiston Respublikasidan tashqarida bo‘lishi uchun qaytarib olib kirish majburiyatnomasida belgilab berilgan muddat tekshiriladi. Ushbu muddatdan

⁴⁷ “Транспорт воситасини божхона кўригидан ўтказиш бўйича услубий қўлланма”, Давлат божхона қўмитаси. Т.; - 2001 йил. Б.54

⁴⁸ O.Zayniddinov «Chegarada bojxona nazorati» Davlat bojxona qo‘mitasi. T -2014. B. 37

kechiktirilganligi aniqlangan taqdirda O'zbekiston Respublikasining "Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi" muvofiq belgilangan tartibda choralar ko'riladi.

Avtotransport vositasi O'zbekiston Respublikasidan tashqarida bo'lish muddati kirib kelgan sanadan boshlab o'tgan bir yil davomida uch oydan oshgan taqdirda, har bir ortiqcha kun uchun dvigatel hajmining har kub santimetri uchun 0,01 AQSH dollari miqdorida yig'im hisoblanadi.

Yig'im milliy valyuta-so'mda O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan ularni to'lash kunida belgilangan kurs bo'yicha to'lanadi.

Davlat chegarasidan o'tkazish punktlari orqali O'zbekiston Respublikasida ro'yhatga olingan yengil avtotransport vositalari olib kirilayotganda chegara, bojxona, sanitar, karantin, veterinar va fitosanitar nazoratidan o'tkaziladi. Mazkur nazorat turlarini amalga oshirilishi Milliy xavfsizlik xizmatining Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitasi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Davlat sanitariya-epidemiologiya nazorati markazining joylardagi xodimlari tomonidan amalga oshiriladi. Ushbu hamkorlik ikki va ko'p tomonlama hamkorlik bo'yicha ishlab chiqilgan kelishuvlar, texnologik sxemalar asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida ro'yhatga olingan yoki ro'yhatga olinmagan yuk avtotransport vositalari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari boshqaruvi ostida respublikaning barcha chegara bojxona postlari orqali olib kirilishi mumkin. Haydovchilari O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bo'lmagan yoki xorijiy fuqarolar boshqaruvi ostida bo'lgan avtotransport vositalari faqat xalqaro maqomga ega bo'lgan chegara bojxona postlari orqali harakatlanishiga ruxsat etilgan. Shu bilan birga Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmanistonda davlat ro'yhatidan o'tkazilgan yoki haydovchilari ushbu davlat fuqarolari bo'lgan yuk avtotransport vositalari mazkur davlatlar bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi o'tkazish punktlari to'g'risidagi bitimlarga asosan belgilangan ikkitomonlama chegara bojxona postlari orqali harakatlanishlari yoki tranzit o'tishlari ruxsat etilgan.

Yuk avtotransport vositalari bojxona xodimi tomonidan bojxona ko'rigini amalga oshirishda bojxona nazoratining texnik vositalaridan (tarozi, rentgen, metallodetektor, shup, oyna, endoskop va boshqalar) foydalaniladi.

Mamlakatimizda ro'yhatga olingan yoki ro'yhatga olinmagan yohud ro'yhatdan chiqarib yuborilgan yuk transport vositalari quyidagilarni bojxona organi xodimiga taqdim qilishi lozim:⁴⁹

1. XYT daftarchasini qo'llagan holda Yuklarni xalqaro tashish to'g'risidagi konvensiyaga (Jeneva sh., 1975 yil 14 noyabr) muvofiq XYT daftarchasi (CARNET TIR) – *avtotransport vositasi yoki undagi Yuklar XYT daftarchasini qo'llagan holda tashilganda;*

XYT daftarchasi bu (CARNET TIR) - jo'natuvchi bojxona organidan qabul qiluvchi bojxona organiga qadar tovarlar va transport vositalarini kuzatuvchi hamda XYT konvensiyasi tartiboti bo'yicha tashiladigan tovarlarga nisbatan bojxona to'lovlarini to'lab berish xalqaro kafolatning mavjudligini tasdiqlovchi xalqaro hujjatdir.

2. XYT daftarchasi asosida Yuklarni xalqaro tashish to'g'risidagi konvensiya (Jeneva sh., 1975 yil 14 noyabr) talablariga muvofiq avtotransport vositasiga bojxona muhrlari va tamg'alari ostida Yuklarni tashishga ruxsat berish to'g'risidagi guvohnoma – agar avtotransport vositasidagi Yuklar XYT daftarchasini qo'llagan holda tashilsa;

3. Tez buziladigan mahsulotlarni tashish uchun avtotransport vositasiga ruxsat berish to'g'risidagi guvohnoma (SPS guvohnomasi) – avtotransport vositasida tez buziladigan mahsulotlar tashilganda;

SPS guvohnomasi tez buziladigan oziq-ovqat mahsulotlarini xalqaro tashishlar to'g'risidagi va ushbu tashishlar uchun mo'ljallangan maxsus transport vositalari haqidagi bitimga muvofiq, transport vositalarining tez buziladigan mahsulotlar tashishga muvofiqligi to'g'risidagi hujjatdir. Bunday tarzda hujjat O'zbekiston Respublikasi avtomobil daryo transporti agentligi tomonidan belgilangan vakolatli tashkilot tomonidan beriladi.

⁴⁹ "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2013 yil 11 mart, 10-son, 128-modda, "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami", 2013 yil, 3-son, 16-modda.

4. Yuklarni xalqaro yo'llarda tashish shartnomasi to'g'risidagi konvensiya (Jeneva sh., 1956 yil 19 may) talablariga muvofiq tovar-transport Yuk xati va Yukning har bir nomi bo'yicha Yuklab jo'natish tafsiloti bo'lgan ro'yhati;

5. Avtotransport vositasi va unda tashilayotgan tovarlarga tijorat hujjatlari, ya'ni tovarning qiymat, miqdor va sifat tavsifini aks ettiruvchi hujjatlar;

Hujjatlarda mazkur ma'lumotlar xorijiy tillarda ko'rsatilgan taqdirda, ushbu ma'lumotlar davlat tiliga yoki rus tiliga tarjima qilingan, Yuk tashuvchi tomonidan tasdiqlangan holda bojxona idoralariga taqdim etilishi talab qilinishi mumkin.

Yuk tashuvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlardagi ma'lumotlar yetarli bo'lmaganda, qonun hujjatlariga muvofiq tovarlar va transport vositalari qo'shimcha to'liq bojxona nazoratidan o'tkaziladi.

Yuqorida qayd etilgan hujjatlar taqdim etilmagan taqdirda tovarlarni O'zbekiston Respublikasiga olib kirishga yo'l qo'yilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit harakatlanayotgan ro'yhatga olinmagan yoki ro'yhatdan chiqarilgan yuk avtotransport vositasi va undagi yuklarga nisbatan davlat xavfsiligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, shuningdek O'zbekiston Respublikasi boshqa manfaatlaridan kelib chiqqan holda qonun hujjatlari xamda xalqaro shartnomalariga muvofiq ayrim cheklov yoki taqiqlar qo'llanishi mumkin.

Quyidagi tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish yoki tranzit olib o'tilishi taqiqlanadi:⁵⁰

- xarbiy harakatlar olib borilayotgan, urush yoki qurolli to'qnashuv xavfi mavjud bo'lgan mintaqalarga qurol-yarog', harbiy texnika va harbiy mol-mulk;

- tranziti O'zbekiston Respublikasining xalqaro majburiyatlariga zid bo'lgan maxsus yuklar va harbiy tarkiblar;

- etil spirti;

- lazer nuri tarqatuvchi uskunalari;

- uchuvchisiz uchish apparatlari;

⁵⁰ <http://customs.uz>

- pirotexnika maxsulotlari;
- suyultirilgan gaz (TIF TN kodi - 2711).

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit harakatlanayotgan yukli avtotransport vositasi chegara bojxona posti orqali harakatlanganda tranzit olib o'tilishi uchun vakolatli organlarning ruxsatnomalari talab etiladigan tovarlarga tegishli ruxsatnomalar (litsenziyalar) mavjudligi nazorati olib boriladi. Xususan:

1) qurol-yarog' va xarbiy texnika, ularni ishlab chiqarish uchun maxsus vositalar turkumi, qimmatbaho metallar, qotishmalar, ulardan tayyorlangan buyumlar; rudalar, konsentratlar, lom va chiqindilar; qimmatbaho tabiiy toshlar va ulardan tayyorlangan buyumlar; qimmatbaho tabiiy toshlarning chiqindilari, poroshoklari va rekuperatlari; marvarid va undan tayyorlangan buyumlar; qahrabo va undan tayyorlangan buyumlar, uran va radioaktiv vositalar, ulardan tayyorlangan buyumlar, radioaktiv vositalar chiqindilari, radioaktiv vositalar yordamida ishlaydigan asbob uskunalar O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining farmoyishi asosida Tashqi iqtisodiy aloqalar, investitsiyalar va savdo vazirligi tomonidan beriladigan litsenziyalar;

2) giyohvandlik vositalar, psixotrop moddalar va prekursorlarining O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit olib o'tilayotganda Giyohvandlik vositalari ustidan nazorat qilish bo'yicha O'zbekiston Respublikasi davlat komissiyasining tegishli ruxsatnomasi va O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan beriladigan sertifikatlar;

3) alkogolli va tamaki mahsulotlarining O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit olib o'tilayotganda Vazirlar Mahkamasining farmoyishi;

4) xavfli yuklarni O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit olib o'tilayotganda Vazirlar Mahkamasining ruxsatnomasi;

5) qurol-yarog', xarbiy texnika va harbiy mol-mulk, shuningdek harbiy tarkiblarning O'zbekiston Respublikasi hududi orqali tranzit olib o'tilayotganda Mudofaa vazirligining ruxsatnomasi mavjudligi tekshirilishi lozim.⁵¹

⁵¹ <http://customs.uz>

Shu bilan birga, chegara bojxona posti orqali olib o'tilayotgan ayrim tovarlarga nisbatan halqaro bitimlar, amaldagi qonunchilik asosida boshqa cheklov yoki taqiqlar qo'llanishi mumkin.

Xorijiy yuksiz avtotransport vositasini chegara bojxona postidan tranzit olib o'tilishida chiqish chegara bojxona postiga etkazib berish nazorat muddatlari bojxona posti o'rtasidagi masofani hamda ob-havo sharoitini hisobga olgan holda belgilanadi.

2.2 § Temir yo‘l transport vositalari va Avia transport vositalari hamda Suv transporti vositalari harakati ustidan bojxona nazoratini amalga oshirish tartibi.

Tashqi savdoni olib borishda tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan bojxona chegarasidan olib o‘tiladigan yukning asosiy qismi temir yo‘l transporti orqali olib o‘tiladi. Buning sababi oddiy, temir yo‘l transporti yuklarni tashish uchun har tomonlama qulay, bitta partiyani o‘zida ancha hajmdagi va miqdordagi yuklarni tashishni imkonini beradi. Ikkinchidan temir yo‘l transporti boshqa transport vositalariga qaraganda ancha arzon va xavfsizroq hisoblanadi. Albatta temir yo‘l transporti kamchiliklardan holi emas. Temir yo‘l transportida yuk tashishda uchun boshqa transport vositalariga nisbatan ko‘proq vaqt sarflanadi.

Yuk tashiyotgan temir yo‘l transport vositalari respublikaning barcha temir yo‘l o‘tkazish punktlari orqali O‘zbekiston Respublikasiga olib kirilishi va olib chiqilishi mumkin. Tranzit tartibda o‘tish tartibi ham xuddi shu asosda amalga oshiriladi. Bunday o‘tkazish punktlari O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qo‘shni davlat Hukumatlari bilan imzolangan Davlat chegarasidagi o‘tkazish punktlari to‘g‘risidagi bitimlariga asosan belgilanadi.⁵²

Chegara temir yo‘l stansiyalari xodimlari tomonidan chegara temir yo‘l bojxona posti xodimlariga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

1. Transport (tashish) hujjatlari;
2. Harakatdagi temir yo‘l tarkibini topshirish vedomosti;
3. Tashilayotgan tovarlarga tijorat hujjatlari;
4. Xalqaro pochta jo‘natmalarini yuborish uchun Umumjahon pochta ittifoqi hujjatlarida belgilangan hujjatlar – *xalqaro pochta jo‘natmalari tashilayotganda*.

⁵² “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati hamda Qozog‘iston Respublikasi Hukumati o‘rtasida O‘zbekiston-Qozog‘iston davlat chegarasi orqali o‘tish punktlari to‘g‘risida”gi Bitim (Ostona, 2001 yil 16 noyabr);

“O‘zbekiston Respublikasi Hukumati hamda Tojikiston Respublikasi Hukumati o‘rtasida davlat chegarasi orqali o‘tish punktlari to‘g‘risida”gi Bitim (Toshkent, 2002 yil 12 fevral);

“O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg‘iziston Respublikasi Hukumati o‘rtasida davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlari to‘g‘risida”gi Bitim (Bishkek, 2004 yil 24 iyul);

“O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Hukumati o‘rtasida davlat chegarasi orqali o‘tish punktlari haqida”gi Bitim (Ashxobod, 2007 yil 18 oktyabr);

Bojxona rasmiylashtiruvi o'tkazilgandan so'ng, barcha yo'l-yuk hujjatlarni temir yo'l xodimiga uning maxsus kitobiga hujjatlarni topshirgan vaqtini belgilab topshiradi.⁵³

O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelayotgan yuk tashiyotgan temir yo'l transport vositasi chegara bojxona posti orqali harakatlanganda davlat xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, shuningdek O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatlaridan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalariga muvofiq ayrim tovarlarni respublika hududiga olib kirish cheklanadi yoki taqiqlanadi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali olib o'tiladigan temir yo'l transport vositalari bojxona nazoratidan o'tkaziladi. Yuk tashiyotgan va bo'sh temir yo'l transportini bojxona nazoratidan o'tkazishda bojxona xodimi quyidagi bojxona nazorati shakllarining barchasidan yoki bir nechtasidan foydalanadi (bunda, tanlangan shakl bojxona qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta'minlash uchun yetarli bo'lishi lozim):

O'zbekiston Respublikasi hududiga avitransport vositasida tovarlarni olib kirilishi esa respublika hududidagi xalqaro tashuvlar uchun ochiq bo'lgan aeroportlarda amalga oshiriladi.⁵⁴

Aeroportlarda joylashgan chegara bojxona postlarning ish vaqti kunu-tun belgilagan bo'lib, avitransport vositalari sutka davomida respublika hududiga kirib kelishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi hududidan avitransport vositasida tovarlarni olib chiqilishi respublika hududidagi xalqaro tashuvlar uchun ochiq bo'lgan aeroportlarda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarorlari bilan aeroportlarga xalqaro maqom berilgan. Bojxona postlari dam olish va bayram kunlari ham belgilangan tartibda faoliyat olib boradi.

Aeroport xodimlari tomonidan aeroport bojxona posti xodimlariga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

⁵³ "O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami", 2013 yil 11 mart, 10-son, 128-modda, "O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami", 2013 yil, 3-son, 16-modda.

⁵⁴ Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 6-сон, 247-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 3-сон, 38-модда; 2000 й., 5-6-сон, 153-модда; 2003 й., 5-сон, 67-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 28-сон, 261-модда; 2012 й., 39-сон, 447-модда; 2013 й., 18-сон, 233-модда; 2014 й., 20-сон, 222-модда, 36-сон, 452-модда, 50-сон, 588-модда; 2015 й., 23-сон, 301-модда

Xalqaro fuqaro aviatsiyasi to'g'risidagi konvensiyaga (Chikago shahri, 1944 yil 7 dekabr) muvofiq hujjatlar:

- bosh deklaratsiya;
- yuk vedomosti;
- avia yuk xati;
- avia yuk xatiga ilova qilinadigan tashiladigan yuklarga tijorat hujjatlari.

Yuqorida hujjatlarda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- havo kemasining milliy mansubligi belgilari va ro'yhatdan o'tkazish belgilari;

- parvoz raqami, havo kemasining parvozi yo'nalishi, uchish punkti, qo'nish punkti;

- havo kemasi ekspluatantining nomi;

- ekipaj a'zolarining soni;

- Tovarlarni tavsiflash va kodlashning uyg'unlashtirilgan tizimiga muvofiq kamida 6 belgi darajasida tovarlarning nomi va kodlari;

- avia yuk xatining raqami, avia yuk xati va yuk turkumi bo'yicha o'rinlar soni;

- yuk jo'natilgan va qo'niladigan punktlar nomi;

- parvoz qiladigan kemaning ichiga yuklanadigan bort anjomlari soni (har bir tovarning birliklari soni va nomi);

- havo kemasi ichida xalqaro pochta jo'natmalari mavjudligi;

- tovarning har bir ko'rsatilgan kodi bo'yicha tovarlarning brutto og'irligi (kilogrammlarda yohud boshqa o'lchov birliklarida);

- tovarlarning faktura qiymati.

Aviatransportda tashilayotgan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvi aeroportning xalqaro pochta va yuk tashuvlarini ta'minlash xizmati xodimlari tomonidan barcha transport va tijorat hujjatlarini bojxona posti xodimlariga taqdim etilishi bilan boshlanadi.

Olib kirilishi uchun vakolatli organlarning ruxsatnomalari talab etiladigan tovarlarga tegishli ruxsatnomalar (litsenziyalar) mavjudligi nazorati olib boriladi.

Olib kirilishi cheklangan yoki taqiqlangan, shuningdek, tegishli ruxsatnomalari (litsenziyalar) mavjud bo'lmagan tovarlar bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazilmaydi va bojxona organining talabiga muvofiq yuk tashuvchi tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududidan aviatransport vositasida qaytarib olib chiqilishi lozim.

Davlat chegarasidan o'tkazish punktlari orqali yuk tashiyotgan aviatransport vositalarida tovarlar olib kirilayotganda chegara va bojxona nazoratidan o'tkaziladi. Mazkur nazorat turlarini amalga oshirilishi Milliy xavfsizlik xizmatining Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining joylardagi xodimlari tomonidan olib boriladi. Ushbu hamkorlik ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha ishlab chiqilgan kelishuvlar, texnologik sxemalar asosida amalga oshiriladi. Shu bilan birga, bojxona nazoratini amalga oshirishda bojxona organlari "O'zbekiston havo yo'llari" Milliy Avia Kompaniyasining tarkibiy tuzilmalari bilan hamkorlik qilinadi.

Yuk tashiyotgan suv transport vositalarida tovarlarni O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirish respublikada yagona hisoblangan daryo portida joylashgan "Daryo porti" tashqi iqtisodiy faoliyat bojxona posti orqali amalga oshiriladi.

Daryo portida joylashgan bojxona postining ish vaqti kunu - tun belgilangan bo'lib, suv transport vositalari sutka davomida respublika hududiga kirib keladi. Mazkur bojxona posti dam olish va bayram kunlari ham belgilangan tartibda faoliyat olib boradi.

Tovarlar daryo portiga kirib kelganda kema ekipaji tomonidan bojxona organlariga quyidagi hujjatlar taqdim etiladi:

- fuqarolik pasporti;
- bojxona yuk deklaratsiyasi;
- umumiy deklaratsiya – kema va uning kelishi yoki jo'nab ketishi to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lgan hujjat;
- yuk to'g'risidagi deklaratsiya – kema anjomlari to'g'risidagi deklaratsiya va kema ekipajining shaxsiy buyumlari to'g'risidagi deklaratsiyaga kiritilmagan, kema bortida mavjud bo'lgan yuklar (tovarlar) to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lgan hujjat;

- kema anjomlari to'g'risidagi deklaratsiya – kema va ekipaj a'zolarining ehtiyoji uchun mo'ljallangan tovarlar (oziq-ovqat mahsulotlari, yonilg'i-moylash mahsulotlari, kemandagi material-texnik ta'minotlari) to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lgan hujjat;

- kema ekipajining shaxsiy buyumlari to'g'risidagi deklaratsiya – ekipaj a'zolariga tegishli shaxsiy buyumlar to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lgan hujjat;

- kema xizmati - kemandagi nomi va egasi, kema ro'yhatdan o'tkazilgan port, kema turi, kema ekipaji a'zolarining familiyasi, ismi, otasining ismi, tug'ilgan yili, fuqaroligi, lavozimi, shaxsini tasdiqlovchi hujjatlarining turi, seriyasi va tartib raqami hamda guvohnoma raqami to'g'risidagi ma'lumotlar bo'lgan hujjat;

- transport (tashish) hujjatlari;

- tashilayotgan tovarlarga tijorat hujjatlari;

- xalqaro pochta jo'natmalarini yuborish uchun Umumjahon pochta ittifoqi hujjatlarida belgilangan hujjatlar.

Yuqoridagi hujjatlarda quyidagi ma'lumotlar bo'lishi lozim:

- kemandagi ro'yhatga olinganligi va uning milliy mansubligi;

- kemandagi nomi va tavsifi;

- kapitanning familiyasi;

- kema agentining familiyasi va manzili;

- kemadagi yo'lovchilarning soni, familiyalari, ismlari, fuqaroligi, tug'ilgan sanasi va joyi, chiqish va tushish porti;

- ekipaj a'zolarining soni va tarkibi;

- kemandagi jo'nash porti va kirish portining nomi;

- Tovarlarini tavsiflash va kodlashning uyg'unlashtirilgan tizimiga muvofiq kamida 6 ta belgi darajasidagi tovarlarning kodlari va nomi;

- tovarning har bir ko'rsatilgan kodi bo'yicha yuk joylari soni, tovarlarning brutto og'irligi (kilogrammda yoxud boshqa o'lchov birliklarida);

- tovarlarni yuklash portining va tushirish portining nomi;

- ushbu portda tushiriladigan tovarlarga dengizda (daryoda) tashish shartnomasi mazmuni va mavjudligini tasdiqlovchi konosamentlar yoki boshqa hujjatlarning tartib raqami;

- bortda qoladigan tovarlarni tushirish portlarining nomi;
- kemadagi mavjud kema anjomlarining soni ko'rsatilgan holdagi nomi;
- kemada tovarlarni joylashtirish tavsifi;
- tovarlarning faktura qiymati.

Suv transport vositalari O'zbekiston Respublikasiga kirishda chegara va bojxona nazoratidan o'tkaziladi. Mazkur nazorat turlarini amalga oshirilishi Milliy xavfsizlik xizmatining Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining joylardagi xodimlari tomonidan olib boriladi. Ushbu hamkorlik ikki va ko'p tomonlama hamkorlik bo'yicha ishlab chiqilgan kelishuvlar, texnologik sxemalar asosida amalga oshiriladi.

2.3 § Jismoniy shaxslar harkati ustidan bojxona nazoratini amalga oshrish tartibi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari respublikaning barcha chegara bojxona postlari orqali respublikaga kirib kelishlari va chiqib ketish huquqiga egadirlar. Xorijiy davlatlar fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar esa respublikaning xalqaro maqomga ega bo'lgan chegara bojxona postlari orqali kirib kelishlari va chiqib ketishlari mumkin. Shu bilan birga, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston va Turkmaniston fuqarolari mazkur davlatlar bilan O'zbekiston Respublikasi o'rtasidagi o'tkazish punktlari to'g'risidagi bitimlarga asosan belgilangan ikkitomonlama chegara bojxona postlari orqali xarakatlanishlariga ham ruhsat etilgan.

Aeroport va chegara temir yo'l bojxona postlari orqali barcha davlatlarning fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar harakatlanishi mumkin. O'zbekiston Respublikasi xavfsizligini ta'minlash maqsadida hamda bojxona postida qurilish-ta'mirlash ishlari olib borilayotganligi munosabati bilan bojxona postlari orqali shaxslarning harakati cheklanishi yoki vaqtinchalik to'xtatilishi mumkin.

Bojxona chegarasi orqali harakatlanayotgan shaxs tomonidan bojxona xodimiga quyidagi hujjatlarni taqdim etiladi:

- fuqarolik pasporti (fuqaroligi bo'lmagan shaxslar uchun tegishli guvohnoma);
- belgilangan tartibda to'ldirilgan yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi.

Bu yerda yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi nima ekanligigga oydinlik kiritib ketsak, yo'lovchi bojxona deklaratsiyasi mamlakatimiz bojxona chegarasi orqali tovar va transport vositalari, valyuta va valyuta qimmatliklari, qimmatbaho toshlar va ulardan yasalgan buyumlari olib o'tilayotganda rasmiylashtiriladigan hujjatdir.

O'zbekiston Respublikasi hududiga kirib kelayotgan shaxslarga qonun hujjatlariga ko'ra bojsiz olib kirish me'yorlaridan hamda aksiz solig'iga

tortilmaydigan me'yorlardan ortiq olib kiriladigan tovarlarga belgilangan stavkalar bo'yicha bojxona to'lovlari undiriladi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga shaxslar tomonidan olib kirilayotgan tovar moddiy boyliklar chegara bojxona posti orqali olib o'tilganda davlat xavfsizligini ta'minlash, jamoat tartibini saqlash, shuningdek O'zbekiston Respublikasining boshqa manfaatlaridan kelib chiqqan holda O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari hamda xalqaro shartnomalariga muvofiq ayrim tovarlarni respublika hududiga olib kirilishi cheklanishi yoki taqiqlanishi mumkin.

Shuningdek, shaxslar respublika hududiga kirib kelayotganda olib kirilishi uchun vakolatli organlarning ruxsatnomalari talab etiladigan tovarlarga tegishli ruxsatnomalar (litsenziyalar) mavjudligi nazorati olib boriladi.

O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali harakatlanayotgan shaxs va uning qo'l yuklari bojxona nazoratidan o'tkaziladi. Shaxs va uning qo'l yuklarini bojxona nazoratidan o'tkazishda bojxona xodimi quyidagi bojxona nazorati shakllarining barchasidan yoki bir nechtasidan foydalanadi (bunda, tanlangan shakl bojxona qonunchiligi talablariga rioya etilishini ta'minlash uchun etarli bo'lishi lozim):

- bojxona maqsadlari uchun zarur bo'lgan hujjatlar va ma'lumotlarni tekshirish (yo'lovchi bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan ma'lumotlarni tekshirish);

- og'zaki so'rab-surishtirish (shaxsning o'zi bilan birga yoki qo'l yuklari orasida olib kirish taqiqlangan, chegaralangan tovarlar mavjud yoxud mavjud emasligini, deklaratsiyada ko'rsatilgan ma'lumotlarning haqqoniyligini so'rab-surishtirish);

- bojxona ko'rigidan o'tkazish (O'zbekiston Respublikasiga olib kirilishi taqiqlangan va chegaralangan tovarlarning mavjudligini aniqlash maqsadida shaxs va uning qo'l yuklarini bevosita va yoki xizmat itlari hamda bojxona nazoratining texnik vositalaridan foydalangan holda ko'rikdan o'tkazish);

- shaxsni ko'zdan kechirish (O'zbekiston Respublikasiga olib kirilishi taqiqlangan va deklaratsiyada ko'rsatilmagan tovarlarning mavjudligini aniqlash maqsadida bevosita shaxsni ko'zdan kechirish);

Shuningdek, bojxona xodimi bojxona ko'rigini amalga oshirishda bojxona nazoratining texnik vositalaridan (rentgen, metallodetektor va boshqalar) foydalanadi.

Chegara bojxona posti xodimlari tomonidan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasi orqali kirib kelayotgan shaxslar valyuta nazoratidan ham o'tkaziladi. Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasiga olib kiriladigan valyuta boyliklari yo'lovchi bojxona deklaratsiyasida ko'rsatiladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan naqd xorijiy valyutasini O'zbekiston Respublikasi bojxona chegarasiga olib kirilishiga yo'lovchi bojxona deklaratsiyasiga yozma ravishda kiritilgan taqdirda ruxsat etiladi.

Jismoniy shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasining naqd milliy valyutasi - so'mni O'zbekiston Respublikasiga olib kirish O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorining 50 baravaridan oshmaydigan summada ruxsat beriladi.

Shaxsni bojxona nazoratidan o'tkazish jarayonida qalbaki naqd milliy valyuta mavjudligi aniqlangan taqdirda, ushlab qolinadi va qonun hujjatlarida belgilangan tartibda tegishli choralar ko'riladi.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va vakolatli banklar tomonidan O'zbekiston Respublikasining naqd milliy valyutasi olib kirilishi chog'ida bojxona to'lovlari (bojxona rasmiylashtiruvi uchun yig'imlardan tashqari) undirilmaydi.

O'zbekiston Respublikasi hududiga har qanday toifadagi shaxslar tomonidan naqd xorijiy valyutasini olib kirish yozma deklaratsiyalangan taqdirda cheklanmagan.

O'zbekiston Respublikasi hududiga 5000 AQSH dollari miqdorigacha bo'lgan yoki ushbu ekvivalentdagi boshqa xorijiy valyuta bojxona deklaratsiyasini to'ldirish sharti bilan, 5000 AQSH dollari ekvivalentdagi miqdordan yuqori bo'lgan taqdirda TS-28 shakldagi guvohnomasi berilgan holda olib kirishga ruxsat etiladi.

Shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududiga olib kirilayotgan yo'l cheklari va boshqa qimmatbaho qog'ozlari yo'lovchi bojxona deklaratsiyasida ko'rsatilgan holda olib kiriladi.

Davlat chegarasidan o'tkazish punktlari orqali shaxslar harakatlanganda chegara va bojxona nazoratidan o'tkaziladi. Mazkur nazorat turlarini amalga oshirilishi Milliy xavfsizlik xizmatining Davlat chegaralarini himoya qiluvchi qo'mitasi va Davlat bojxona qo'mitasining joylardagi xodimlari tomonidan olib boriladi. Ushbu hamkorlik ikki tomonlama hamkorlik bo'yicha ishlab chiqilgan kelishuvlar, texnologik sxemalar asosida amalga oshiriladi.

III BOB. Bojxona nazorati va uni takomillashtirishning ayrim masalalari.

3.1 § Xorijiy mamlakatlarda Bojxona nazoratini amalga oshirishning o'ziga xos xususiyatlari.

Bojxona ishi va bojxona nazoratini takomillashtirishda albatta dunyo davlatlari tajribasini o'rganish va ularni milliy qonunchiligimizga tatbiq etish bojxona ishini va bojxona nazoratini olib borishda bir muncha qulayliklar yaratadi hamda bu orqali iqtisodiy xavfsizligimizni ta'minlash va mamlakatimiz sarhadlarini ishonchli himoya qiluvchi mexanizmlarni joriy etishga yordam beradi.

Xorijiy davlatlar bojxona ishini o'rganishda asosan Yevropa va AQSH davlatlari tajribalari, ularning bu sohada erishgan yutuqlariga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq. Negaki mazkur davlatlarda qo'llanilayotgan bojxona protseduralari o'zini samaradorligi jihatdan ko'rsata olgan va vaqt sinovidan o'tgan bu esa rivojlanayotgan mamlakatlarga xorij davlatlarining mazkur sohadagi tajribasini o'rganish va ularni ayrimlarini mamlakat milliy qonunchiligiga tatbiq etishga imkon yaratadi. Albatta xorij davlatlarining tajribalari va bu sohadagi tartibotlarini ko'r-ko'rona o'zlashitish yaramaydi. Ularni puxta o'rganish hamda mamlakatning iqtisodiy va siyosiy holatiga qarab joriy qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Quyida Yevropa Ittifoqining ayrim davlatlari va Amerika Qo'shma Shtatlarining bojxona ishini tashkil etish va bojxona nazoratini olib borishda qo'llanilayotgan bazi bojxona sohasidagi tartibotlarni, ularning o'ziga xos va qulay tomonlari afzalliklari va kamchiliklarini ko'rib chiqamiz.

Yevropa davlatlarida bojxona nazoratining samaradorligi xavfni boshqarish tizimlarini joriy qilinganligi bilan bog'liqdir. Yevropa Ittifoqiga kiruvchi davlatlarda xavfni boshqarish tizimlari bundan 10 yil avval kiritila boshlangan va hozirgi kunga kelib mazkur tizimlar to'la to'kis o'zini samarasini bermoqda. Yevropa davlatlarining uzoqqa mo'ljallangan bojxona ishi strategiyasi 1993 yilda Yevropa Ittifoqi to'g'risidagi kelishuvning to'liq kuchga

kirishi orqali boshlangan. Bu esa o'z navbatida Yevropa davlatlarining va boshqa davlatlar bilan savdo aloqalari mustahkamlanishiga va tashqi savdo hamda tovar aylanmasi hajmini oshishiga turtki bo'lgan. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek xavfni boshqarish tizimlari Yevropada 2005-2006-yillardan boshlab to'liq joriy qilina boshlangan. Mazkur tizimlar Bojxona tartibotlari va jarayonlarini uyg'unlashtirish to'g'risidagi xalqaro Kioto konvensiyasiga asosan tuzilgan bo'lib unga ko'ra:⁵⁵

- Bojxona nazoratini olib borish bojxona qonunchiligiga rioya etilishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan harakatlar bilan cheklanadi;
- Bojxona nazorati shakllarini qo'llashda xavfni boshqarish tizimlaridan foydalaniladi;
- Bojxona organlari bojxona qonunchiligi buzilishi holatlarini oldini olish tamoyilidan kelib chiqqan holda harakat qiladi.

Yevropa ittifoqining barcha davlatlarida "xavf" deganda bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotgan tovar toki transport vositlari yoki bojxona chegarasi kesib o'tayotgan shaxslarni qonunchilikni buzishi mumkinligi, bojxona qonunchiligiga rioya etmaslik ehtimoli tushuniladi.

Bojxona xavfi Yevropa davlatlarida quyidagilarga bo'linadi:

- Isbotlangan xavf – bular oldin sodir etilgan va bojxona organi tomonidan qayd qilingan huquqbuzarlik holatlari bo'lib, ana shunday o'xshash holatlar mavjud bo'lganda bojxona organlari ma'lum bir holat bo'yicha qaror qabul qilishda bojxona qoidabuzarligi ehtimoli bor yoki yo'qligini hisobga olgan holda harakat qilishadi;
- Ehtimoliy xavf – bular hali aniqlanmagan lekin taxmin qilinayotgan xavf bo'lib sodir etilishi yoki yuz berishi mumkin.

Yevropa davlatlarida xavfni boshqarish tizimlari bilan tegishli ma'lumotlar bazalari bilan ishlovchi markazlari shug'ullanadi.

Misol uchun Belgiya davlatida bunday markaz 1997 yildan buyon faoliyat yuritadi. Uning asosiy vazifasi ichki va tashqi manbalardan bojxona

⁵⁵http://www.wcoomd.org/en/topics/facilitation/instrumentandtools/conventions/pf_revised_kyoto_conv/~/_media/A7D0E487847940AD94DD10E3FDD39D60.ashx.

nazoratini ta'minlash maqsadida ma'lumot yig'ish ularni tahlil etish va qayta ishlashdir.

Fransiyada bunday markaz Bojxona tergov va ma'lumotlar yig'ish boshqarmasi hisoblanadi.

Shuni ta'kidlash joziki Yevropa Ittifoqida mazkur markazlar o'zaro ma'lumot almashish ta'minlangan avtomat ishlovchi tizimlarga ham ega, bu esa o'z navbatida bojxona organlarining hamjihatlikda faoliyat yuritishini ta'minlaydi va qisqa vaqt ichida bojxona qoidabuzarligini aniqlashga yordam beradi.⁵⁶

Bunday markazlar o'z faoliyatini asosan uchta yo'nalishda olib boradi:

1. Bojxona – Bojxona. Yuqorida ta'kidalganidek turli davlatlar bojxona organlari domiy aloqada harakat qilishadi. Ma'lum bir davlatda aniqlangan xavf yoki bunday xavf borligiga ehtimol boshqa davlat organlari tegishli markazlariga yuboriladi. Bunday hamkorlik misoliga Italiya va Sloveniya davlatlari o'rtasida tuzilgan 1999-yilgi kelishuvni keltirish mumkin. Unga muvofiq mazkur davlatlar bojxona organlari tomonidan faoliyat olib boruvchi markazlar o'rtasida tegishli aloqa kanallari, ma'lumot almashinuv texnik tizimlari joriy etilgan. Mazkur aloqa kanallaridan biri bu CIS (Customs Information System) ya'ni Bojxona Ma'lumot Markazi deb ataladi. Mazkur tizim Yevropa Ittifoqining barcha davlatlari bojxona postlari va portlarda, aeroportlarda mavjud. Ular ma'lumot yig'ish va ma'lumot almashinuvini ta'minlovchi va ma'lumotlar bazasini tashkil etuvchi maxsus dasturlar tizimidan iborat. Ulardagi ma'lumotlarga asosan shubhali shaxslar yoki tovar yoki transport vositalari aniqlanadi va qo'lga olinadi;

2. Bojxona – Biznes. Yevropa Ittifoqida biznes bilan shug'ullanuvchi aniqroq qilib aytganda tashqi iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslar tadbirkorlar ham muhim axborot tashuvchilari bo'lib hisoblanadilar. Ya'ni ular o'zlarining biznes hamkorlari yoki biznes bilan noqonuniy shug'ullanayotgan boshqa shaxslar haqida bojxona organlariga ma'lumot yetkazib turadilar. Misol uchun Shvetsiyada bojxona huquqbuzarliklarining 90% ini biznes hamjamiyatlari tomonidan yetkazilgan tezkor ma'lumotlar tashkil qiladi;

⁵⁶ World Bank. Doing Business 2014: Understanding Regulations for Small and Medium-Size Enterprises. Economy profile: Russian Federation/russian.doingbusiness.org.

3. Bojxona va boshqa idoralar. Yevropa Ittifoqida Bojxona organlari boshqa davlat organlari ma'lumotlar bazasiga kirish va undagi ma'lumotlarni olish huquqiga egadirlar. Misol uchun Litva davlatida bojxona organlari soliq inspeksiyasi hamda milliy to'lov agentligi va moliyaviy tekshiruv xizmati organlari ma'lumotlar bazalariga erkin kirish va undagi ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyatiga ega.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan tizimlarning boshqa turdagilari ham mavjud. Misol uchun Gollandiya davlatining xavfni boshqarish tizimi judayam e'tiborga loyiq. Gollandiyada «Risico» (Xavf) nomli xavfni boshqarish dasturi mavjud. Makzur dastur tovarlar haqidagi ma'lumotlarni ualrni nomenklatura kodlari haqidagi tovar kelib chiqish joyi va boshqalar to'g'risidagi ma'lumotlarni o'zida jamlaydi. Bojxona xizmatiga joriy qilingan mazkur dastur orqali Gollandiyada bojxona nazoratini avtomatik tarzda amalga oshirish imkonini beruvchi ma'lumot bazasini yartishga erishildi. Bu dastur orqali xavfli tovarlarni aniqlash imkoniyati oshadi.⁵⁷

Misol tariqasida Gollandiya davlati bojxona ma'lumotlarni qayta ishlash markazi tomonidan aniqlangan bir holatga e'tibor qaratsak. Makur holatda tovarni noto'g'ri deklaratsiyalash holati aniqlangan. Bu holat muzlatilgan makkajo'xori olib kirilishi bilan bog'liq. Muzlatilgan makkajo'xorining kodi 0704000000904, Bolgariyadan olib kiriladigan muzlatilgan makkajo'xorining kodi esa 07108090090004, mazkur kod ostidagi tovarga 100 kg tovar uchun bojxona boji 8% va qishloq xo'jalik solig'i esa 28% dan 35% gacha bo'lgan. 07108090090004 kod ostidagi tovarga esa bojxona 18% ni tashkil qilgan va bunda qishloq xo'jaligi solig'i undirilishi nazarda tutilmagan. 07108090090004 kod ostidagi tovarni bojxona rasmiylashtiruvi o'z o'zidan foydali negaki bunda bojxona boji stavkasi pasroq. Bunda 07108090090004 kod ostidagi tovar aslida 0704000000904 kodli tovar ekanligi aniqlangan.

Yevropa Ittifoqida ko'p hollarda quyidagi tovarlarni olib kirishda bojxona qoidabuzarlik holatlari aniqlanadi:

- Tekstil va tikuv mahsulotlari;
- Antidemping va kompensatsiya bojlari qo'llaniladigan tovarlar;

⁵⁷ Grainger, A Customs and trade facilitation: from concepts to implementation / A. Grainger // World Customs Journal. 2008, № 1.

- Qalbaki yoki kontrafakt mahsulotlari;
- Yo‘qolib ketish xavfi ostida bo‘lgan flora va fauna turlari;
- Eksport va Reeksport tovarlari;
- Radiaktiv va yadroviy moddalarning import va tranziti;
- Xavfli chiqindilar va boshqa xavfli moddalar.

Mazkur tovarlarni bojxona chegarasidan o‘tkazishda xavfli holatlar tovar tranzit qilinayotgan paytda, shuningdek ularni deklaratsiyalash jarayonida ham yuz berishi mumkin.

Yevropa davlatlarida muhim bo‘lgan yana bir omil oldindan xabar berish mexanizmidir. Bu mexanizm tovarlar yo‘nalishi haqida oldin boshqa davlat organi bojxona xizmatini xabardor qilishni nazarda tutadi. Bu orqali bojxona inspektorining ancha vaqti tejraladi va bojxona nazoratini imkon qadar tezkor ravishda olib borishga hamda bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda ortiqcha vaqt ushlab qolishlarsiz amalga oshiradi.

Mazkur tizim oldindan elektron tarzda xabar olish orqali tovarlar yoki transport vositalarini mazkur davlat hududiga kelib tushguniga qadar ular haqida axborot olish va bu orqali bojxona nazoratini olib borishda va xavfli bo‘lishi mumkin tovarlar haqida oldindan xabardor bo‘lish imkoniyatini beradi.

Yuqoridagilardan ko‘rish mumkinki, o‘n yil davomida Yevropa davlatlari bojxona organlariga Yevropa Ittifoqi davlatlarida xavfni boshqarish tizimlari joriy etilgani va bu borada muhim yutuqlarga erishilgan.

Bitta Italiya davlati tajribasi shuni ko‘rsatadiki, xavfni boshqarish tizimini joriy etmasdan oldin 100% hujjatlar tekshirilganda 0,05% bojxona qonunchiligini buzilish holatlari aniqlangan. Hozirga kunga kelib esa bojxona deklaratsiyalarini uchdan bir qismini (26%) tekshirish vaqtida mazkur qonunbuzilish holatlari aniqlanishi qirq marta oshganligini ko‘rish mumkin va bu ko‘rsatkich 2% ni tashkil qilgan. Fransiyada mazkur tizim joriy qilingan 2006 yilning o‘zidayoq davlat byudjetiga 77 million yevro miqdordagi bojxona to‘lovlari undirilgan. Bundan tashqari 9 million yevroga jarima sanksiyalar undirilgan.

Butun Jahon Bankining xalqaro savdo reytingi bo‘yicha birinchi o‘rinda turuvchi Singaporda Bojxona xizmatini tashkil etish bojxona tartibotlari va

qoidalarini soddalashtirish orqali tashkil etilgan. Shu sababli Singapor ko'p yillardan buyon xalqaro savdo markazi bo'lib kelmoqda.

Singapor bojxona xizmati bojxona nazoratini amalga oshirishda, xavfni boshqarish tizimlaridan samarali foydalanadi. Singaporda bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirish va tezlashtirishga milliy elektron tizimni ishlab chiqish orqali erishildi. Singaporda TradeNet nomli xavfni boshqarish tizimi joriy qilingan. Bu tizim 1989 yilda joriy qilingan bo'lib hozirga qadar amal qilib kelmoqda.⁵⁸ Bugungi kunda Singaporda bojxona rasmiylashtiruvi faqat elektron ravishda TradeNet va TradeXchange tizimlari orqali amalga oshiriladi.

TradeNet elektron tizimi bir yilda 9 millionga yaqin arizalarni, murojaatlarni qayta ishlaydi. Kelib tushgan murojaatlarning 90% i o'n daqiqada qayta ishlanadi. TradeNet va TradeXchange tizimlari import, eksport va tranzit tovarlar harakati bo'yicha hujjatlarni qayta ishlaydi. Shunisi e'tiborga loyiqki mazkur tizimlar rasmiy davlat organlari tomonidan ishlab chiqilmagan hamda ular tomonidan bu dasturlarga xizmat ko'rsatilmaydi. Bu tizimlarni uni ishlab chiqaruvchisi bo'lgan "CrimsonLogic Pte Ltd" xususiy kompaniyasi amalga oshiradi va davlat bojxona organlari bilan hamkorlikda mazkur dasturlarning ish faoliyatini ta'minlaydi. Bunday aralash faoliyat ko'rinishi ikki tomonga ham foydalidir. Bir tomondan mazkur dasturlarni ishlab chiqqan va ularga xizmat ko'rsatayotgan kompaniya o'z investitsiyalarini mazkur sohaga qo'yadi va ulardan foydalanayotgan TIF ishtirokchilaridan tushgan to'lovlar evaziga o'z foydasini oladi. Ikkinchi tomondan davlat organiga bu yechim bu inovatsion texnologiyalarni yaxshi tushunadigan alohida personalga ega bo'lgan maxsus tajirba va bilimlarga ega bo'lgan kompaniya xizmatidan foydalanish orqali o'z faoliyatini ancha yengillashtiradi.

Endi esa Amerika qo'shma shtatlari bojxona nazoratini olib borish xavfni boshqarish tizimini ko'rib chiqsak.

AQSh da bojxona nazoratini tashkil etish boshqa davlatlardan farqli ravishda TIF ishtirokchilari tomonidan qonunga ixtiyoriy itoat etish prinsipiga asoslanadi. Bunda TIF ishtirokchilariga butunlay erkinlik beriladi va barcha

⁵⁸ http://www.unece.org/fileadmin/DAM/cefact/single_window/sw_cases/Download/Singapore_RUS.pdf

zarur ma'lumotlar to'liq ko'rinishda taqdim etiladi.⁵⁹ TIF ishtirokchilari tomondan qonunga itoatkorlikning sababi, bojxona organlari tomonidan barcha zarur sharoitlarni yaratib berganidadir.

Bunda AQSH bojxona organlari fiskal va huquqni muhofaza qilish vazifalarini bajaradi.

AQSH da bojxona nazoratini amalga oshirishning o'ziga xosligi shundaki, bojxona tizimini tashkil qilishda AQSH da avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan keng qo'llaniladi. Mazkur tizimning nomi Automation Commercial System deb nomlanadi. AQSH da bojxona organi AQSH Bojxona va chegara xizmati (U.S. Customs and Border Protection) deb nomlanadi hamda u AQSH ichki xavfsizlik departamentining (U.S. Department of Homeland Security, DHS) eng katta strukturaviy organi hisoblanadi. AQSH bojxona organida 60 mingdan ziyod xodim xizmat qiladi.

AQSH bojxona organining rasmiy ma'lumotiga ko'ra har yil mazkur organ tomonidan bir yarim millionga yaqin import deklaratsiyalari qabul qilinadi. 70 mingdan ortiq konteynerlar rasmiylashtiriladi. Bir million odamga to'g'ri keladigan transport vositasi bojxona nazoratidan o'tkaziladi.

Amerika qo'shma shtatlarida xavfni boshqarish tizimini joriy qilinishi uzoq tarixga ega.

AQSH bojxona organlari tomonidan xavfni boshqarish tizimi barpo etish uchun juda ko'p vaqt va mablag' sarf etilgan. Jahon hamjamiyatidagi hech qaysi bir davlat bunday tizimga ega emas. Mazkur tizimni joriy qilish uchun yigirma yil vaqt va 3 mlrd dollardan ortiq mablag' sarf etilgan.

AQSH da bojxona xizmatida xavf deb quyidagilar tushuniladi:

1. Yuz berishi ehtimoli bo'lgan hodisalar;
2. Bojxona qonunchiligini buzlishi bilan bog'liq bo'lgan holatlar.

Bojxona nazorati amalga oshirishda xavfni boshqarish tizimi quyidagi vazifalarni bajaradi:

1. AQSH hududida terroristik akt sodir qilish bilan bog'liq bo'lgan tovarlar yoki yuklarni aniqlash;
2. Noqonuniy narkotik moddalar olib kirilishini oldini olish;

⁵⁹ Управление в таможенных органах (по материалам США)/ Н.М. Блинов, С.И. Съедин. - М.:РиО РТА, 1995.

3. Immigratsion nazoratni amalga oshirish;
4. Veterinariya va sanitar-karantin nazorat ta'minlash;
5. Kontrafakt mahsulotlarni aniqlash;
6. Bojxona bojlari va to'lovlarini to'liq undirilishini ta'minlash.

AQSHda xavfni boshqarish deganda bojxona organlarini doimiy ravishda bojxona qonunchiligini buzilishi xavfini keltirib chiqarishi mumkin bo'lgan yoki xavfli bo'lgan tovarlar va transport vositalarini harakatlanishi haqidagi zarur ma'lumotlar bilan ta'minlash tushuniladi.

XX – asrning 60 yillariga qadar AQSH da bojxona nazoratini olib borishda bojxona chegarasi orqali o'tayotgan tovar va transport vositalari to'liq ravishda tekshiruvdan o'tkazilgan. Bojxona ko'rigidan o'tkazish bo'yicha mazkur ko'rsatkich 100% ni tashkil qilgan.

Bu vaqtda jahon hamjamiyatida savdo faoliyatini kengaytirishga, tovar aylanmasini oshirishga, tovar nomenklaturasining oshirishga intilish kuzatiladi. Bojxona ko'rigidan o'tkazish uchun sarf etiladigan vaqt esa savdoni kengaytirish yo'lidagi to'siq bo'lib turgandi.

Shu sababli AQSH 70 - yillarda mazkur holatni yaxshi tomonga o'zgartirish maqsadida AQSH da bojxona sohasidagi tartibotlarni avtomatlashtirilgan tizimlarini ishlab chiqish va joriy qilishga kirishadi. 80 - yilga kelib yuklarni ko'rikdan o'takzishni avtomatlashirilgan tizimlari joriy qilinadi. Shunga qaramay bojxona rasmiylashtiruv uchun sarf etiladigan vaqt qisqartirishga erishib bo'lmaydi. 1983 yilda AQSH bojxona organlarida xavfni boshqarish va uni baholashning yangi tizimlari ishlab chiqiladi. Uni amaliyotga joriy qilish uchun birinchi qadam AQSh Kongressi tomonidan qabul qilingan "Bojxona organlarini modernizatsiya qilish va ular faoliyatida axborot texnologiyalarini qo'llashni oshirish to'g'risida"gi qoida bo'ldi.⁶⁰

90 yillar o'rtalariga kelib, XBT ning yangi avlodi ishlab chiqiladi va amaliyotga joriy qilinadi. (Automated Commercial System) Mazkur tizim hali hamon amal qilib kelmoqda. Mazkur tizim bazasi hajm jihatdan dunyoda birinchi o'rinda turadi va bojxona nazoratini hamda bojxona rasmiylashtiruvini avtomat ravishda bojxona organining xodimi ishtirokisiz amalga oshirish

⁶⁰ <http://www.cbp.gov/newsroom/stats/typical-day>

imkoniyatini beradi. Bu mukammal kompyuter telekommunikatsion tizim o'zida 10000 dan ortiq tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari to'g'risidagi ma'lumotni o'zida jamlaydi. Mazkur kompyuter tizimini ishlashini ta'minlash uchun 200 dan ortiq turli kompyuter tizimlari faoliyat ko'rsatadi. Mazkur tizim bir vaqtning o'zida 800 dan ortiq baza bilan ishlash imkoniyatiga ega.

Mazkur tizim bojxona nazoratini amalga oshirib, bojxona rasmiylashtiruvini qisqa vaqt ichida ya'ni 2-3 daqiqada amalga oshirish imkoniyatiga ega.

Bu tizimning qo'llash shartlari quyidagilardan iborat:

1. Bojxona rasmiylashtiruvi Avotmat tijorat tizimiga ulangan (Automated Commercial System) o'tkazish punktlarida yoki bojxona organida amalga oshiriladi;

2. TIF ishtirokchisi yiliga 50 tadan kam bo'lmagan bojxona operatsiyalarini amalga oshirishi lozim;

3. TIF ishtirokchisi oldin bojxona qonunchiligini buzganlik uchun javobgarlikka tortilmagan bo'lishi lozim.

Yuklarni mazkur avtomatlashtirilgan tizimda qayta ishlashda maxsus shtirx kodlardan foydalaniladi. Mazkur shtrix kodlar tovar ularni qabul qilib oluvchilar haqidagi ma'lumotlarni o'zida jamlaydi. Shtrix kod bojxona brokeri tomonidan shakllantiriladi va invoysga kiritiladi. Mazkur shtrix kod bojxona ko'rigidan o'tkazish punktlarida yuk tashuvchi yoki bojxona brokeri ishtirokida bojxona organi xodimi tomonidan skanerdan o'tkaziladi va kompyuter tizimi mazkur tovar haqidagi ma'lumotlar uni qabul qilib oluvchi va boshqa muhim ma'lumotlarni oladi va shular asosida bojxona nazoratini amalga oshiradi.

Hozirgi kunda AQSH ning 98% tashqi savdo yuklari mazkur avtomat tizim orqali bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkaziladi. Bu tizim orqali 2007 yilda narkotik olib o'tish bilan bog'liq qonunbuzilish holatlar bo'yicha 6337 ta shaxs qo'lga olingan. 16562 ta shaxsni ushlab qolish uchun 7662 ta order berilgan. 120 mln dollar miqdordagi narkotik moddalar olib qo'yilgan. 93 mln dollar miqdordagi kontrafakt mahsulotlarga ramiylashtirilgan 75278 ta qalbaki bojxona hujjatlari aniqlangan.

2001 yil 11-senytabrda AQSH da sodir etilgan terroristik aktdan kegn AQSH bojxona xizmatining asosiy e'tibori milliy xavfsizlikni ta'minlashga qaratiladi.

Turli terroristik aktlarga qarshi kurashish maqsadida AQSH bojxona xizmati xalqaro savdo tizimida yuk tashish xavfsizligini oshirish tashabbusi bilan chiqdi va 2003 yildan e'tiboran AQSH bojxona chegara xizmati, AQSH milliy xavfsizlik vazirligining chegaralarni qo'riqlash mahkamasi tarkibiga kiritildi.

Bojxona qonunchiligiga rioya qilinishini ta'minlash maqsadida bojxona chegara xizmatida maqsadli tanlov milliy markazi tashkil etiladi. Bu markazning vazifasi bojxona xavfini aniqlash hamda antiterroristik faoliyatni qo'llab quvvatlashdir.

Maqsadli tanlab olishda quyidagi xavfni boshqarish tamoyillariga asoslanadi:

1. Qonuniylik;
2. Maqsadli yo'naltirilganlik;
3. Boshqaruvning yagonaligi;
4. Boshqaruvning samaradorligi;
5. Maqsadli tanlovning avtomatlashtirilganligi.

Tovar yoki transport vositalarini tashishda, o'tkazishda maqsadli tanlov strategiyasi asosida AQSH milliy xavfsizligiga xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan shaxslar yoki tovarlar aniqlanadi.

Bojxona chegara xizmati samarali maqsadli tanlovni amalga oshirish uchun boshqa davlat organlari bilan hamkorlik qiladi, AQSH sohil qo'riqlash xizmati bilan, Qishloq xo'jalik vazirligi, Immigratsion bojxona xizmati, Transport xavfsizligini ta'minlash xizmati, Oziq-ovqatlar va dori vositlari bo'yicha nazorat administratsiyasi, Federal tergov byurosi va boshqa organlar bilan hamkorlik qiladi.

Xavfni boshqarish tizimini samarali ishlashini ta'minlash uchun AQSH bojxona xizmatida quyidagi dasturlar faoliyat ko'rsatadi:

1. «24-soat» qoidasi. Xavfni boshqarish tizimini samarali faoliyat ko'rsatishi uchun AQSH maqsadli tanlov milliy markazi AQSH ga kelib

tushadigan tovarlar haqida oldindan xabar berish tizimini joriy etish tashabbusi bilan chiqdi va bu orqali tovarlar haqida oldindan axborot taqdim etish tizimi joriy etildi:

- Dengiz kemalari uchun – yuk portga kelib tushishidan 24 soat oldin;
- Temir yo‘l transporti uchun AQSH birinchi bojxona punktiga kirib kelishdan 2 soat oldin;
- Havo kemalari uchun - AQSH hududiga kirib kelishdan 4 soat oldin;
- Yuk tashuvchi avtomobillar uchun – AQSH chegarasini kesib o‘tishdan bir soat oldin;

2. Konteynerda tashish xavfsizligi dasturi (Container Security Initiative CSI) mazkur dasturni qo‘llash orqali AQSH bojxona organlariga oldindan kelib tushadigan tovarlar haqida va ularni xavfli yoki xavfsiz ekani haqida ma’lumot olish imkoniyati yaratildi. Xorij davlatida konteyner kemaga yuklanishidan oldin tanlab olish asosida bojxona ko‘rigidan o‘tkaziladi. Agarda unga bojxona nazoratining boshqa shakllarini qo‘llash lozim bo‘lsa ular ham qo‘llaniladi. Jumladan ular xavf bor yoki yo‘qligini aniqlash uchun Mobilr Truck X-ray nomli rentgen apparatida skanerdan o‘tkaziladi.

Konteynerda tashish xavfsizligini ta’minlash dasturi o‘zini samarasini bera boshlagandan so‘ng uni boshqa davlatlar aniqrog‘i Yevropa davlatlari portlarida ham joriy eta boshlashdi: Belgiyada (Antiverpen va Zeebrygge), Fransiya (Gavr), Germaniya (Bremerxaven va Gamburg portlari), Gretsiya (Pirey), Italiya (Spetsiya, Genoa, Neapol, Livorno), Gollandiya(Rotterdam), Ispaniya (Al’xesiras), Shvetsiya (Geteborg), Angliyada (Felikstou, Tilberi, Sautgempton) portlarida bu dasturlar qo‘llaniladi.

Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda bojxona qonunchiligiga rioya etilishini ta’minlash hamda qonunbuzilish holatlarini odlini olishda avtomatlashtirilgan dasturlar juda yaxshi samara beradi.

Ko‘rib turibmizki AQSH da joriy qilingan xavfni boshqarish tizimlari o‘zining uzoq tarixiy rivojlanish davriga ega ekanligi va bugungi kunda judayam yaxshi samara berayotgani bilan ajralib turadi. Birgina 2008-2009

yillar davomida AQSH da mazkur tizimlar faoliyati tufayli bojxona to'lovlarini yig'ish 97% ni tashkil qilgan.

Xavfni boshqarish tizimlarinin joriy qilish TIF ishtirokchilari va bojxona organlari, davlat idoralari o'rtasidagi munosabatlarni rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Negaki mazkur tizimlar nafaqat bojxona organlari faoliyatida yengilliklarni balki TIF ishtirokchilari uchun ham qulayliklarni yaratadi. Ularni bojxona nazoratidan o'tishda bojxona rasmiylashtiruvini uchun sarf etiladigan vaqtni qisqartirishga, tashqi savdoni, tovar aylanmasini tez suratlarda o'sishiga yordam beradi. Mamlakatimizda ham bojxona nazoratini amalga oshirishni takomillashtirish yangi axborot texnologiyalarini joriy qilishga alohida e'tibor qaratish lozim. 2013 yilning 1-yanvaridan joriy qilingan tovarlarni elektron tarzda rasmiylashtirish tizimi hali hanuz TIF ishtirokchilari o'rtasida keng ommalashmadi. Mazkur tizimni joriy qilishda nafaqat TIF ishtirokchilari balki bojxona organlari ham jonbozlik ko'rsatishlari lozim. Qonunda belgilab qo'yilgan normalar qog'ozda qolib ketmasligi lozim. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini keng joriy qilish, lozim bo'lsa TIF ishtirokchilari o'rtasida mazkur tizimlar bilan ishlash to'g'risida keng targ'ibot ishlari, seminarlar tashkil etish, mazkur tizimlardan foydalanishni soddalashtirish, axborotlarni ishlash va qayta ishlash to'la ravishda elektron tizimlarga o'tkazilishi lozim. Bu TIF ishtirokchilari uchun ham bojxona organlari faoliyatida ham bir qadar imkoniyatlar, yengilliklarni yaratishga xizmat qiladi.

3.2 § Bojxona nazoratini tashkil etish va uni takomillashtirish masalalari.

O'zbekistonda ijtimoiy jihatdan yo'naltirilgan o'z bozor iqtisodiyoti andozasida tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlantirish va mustahkamlash, respublikaning jahon xo'jalik aloqalariga birlashish yo'llarini belgilash muhim o'rin tutadi.

O'zbekiston mustaqillikka erishgandan keyin o'zining mustaqil tashqi iqtisodiy siyosatini o'tkazmoqda. Quyidagi prinsiplar unga asos qilib olingan:

- mafkuraviy qarashlardan qat'i nazar tashqi munosabatlarda oshkoralik;
- teng huquqli va o'zaro manfaatli hamkorlik, boshqa mamlakatlarning ichki ishlariga aralashmaslik;
- o'zining milliy-davlat manfaatlari ustuvorligida o'zaro manfaatlarni har tomonlama hisobga olish, respublika biron-bir davlatning ta'sir doirasiga kirmasligi darkor;
- to'la ishonch, xalqaro iqtisodiy va moliyaviy tashkilotlar doirasidagi hamkorlikni chuqurlashtirish asosida ikki tomonlama, shuningdek ko'p tomonlama tashqi aloqalar o'rnatish va ularni rivojlantirish;
- umum e'tirof etilgan xalqaro huquq normalariga rioya qilish va xalqaro tartiblarga izchillik bilan o'tish.⁶¹

Mamlakatimizning iqtisodiy rivojlanishi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularning asosiylaridan biri bu tashqi iqtisodiy faoliyatdir. Negaki bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiyotning tez sur'atlarda o'sishi, albatta, tovar aylanmasi hajmiga hamda uning qanchalik katta va tez rivojlanishiga bog'liqdir.

Tashqi iqtisodiy soha mamlakatimiz uchun juda muhim hisoblanadi. Tashqi iqtisodiy soha tarmoqlari majmuini vujudga keltirmasdan turib, moliya, bank-kredit tashkilotlari, bojxona xizmati ishini xalqaro standartlar va talablar darajasida yo'lga qo'yishni tasavvur qilib bo'lmaydi.

⁶¹ И.А.Каримов “Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисодиёт, сиёсат, мафкура.” Т-1. Т.:”Ўзбекистон” 1996. Б - 361.

Tashqi savdo faoliyatini takomillashtirish uchun respublikaning eksport qudratini rivojlantirish va yanada mustahkamlash, eksportga yo'naltirilgan iqtisodiyotni shakllantirish va rivojlantirish, takomillashtirib borish darkor.

Eksport imkoniyatini kengaytirish jahon bozorlariga kirib borish uchun, avvalo, qimmat baho xomashyoni qayta ishlash negizida tayyor mahsulot ishlab chiqarish va bu turdagi korxonalarni kengaytirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tashqi savdoni tartibga solishda eng asosiy o'rinda bojxona nazorati turadi. Bojxona nazorati bojxona qonunchiligi va boshqa qonun hujjatlari talablarini bajarish hamda O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalar bilan o'z zimmasiga olgan majburiyatlarni bajarish hamda ularga rioya etilishini ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan tadbirlar majmuini tashkil etadi.

Bojxona nazoratiga bojxona rejimlari, bojxona rasmiylashtiruvi, bojxona organlari tomonidan surishtiruvni olib borish, valyuta nazorati va boshqalar kiradi.

Bojxona organlari mamlakatimizga olib kirilayotgan va undan olib chiqilayotgan valyuta qimmatliklarini hamda jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan amalga oshirilayotgan valyuta operatsiyalarini qonunga muvofiqligi ustidan davlat nazoratini olib boradi. Valyuta operatsiyalari deb, bojxona chegarasi orqali naqd yoki naqd bo'lmagan milliy valyuta, chet el valyutasini yoki valyuta qimmatliklarini olib o'tishga aytiladi. Valyuta qimmatliklari bojxona chegarasi orqali olib o'tilayotganda valyuta nazorati bojxona organlari xodimlari tomonidan amalga oshiriladi.

Hech qanday davlat tashqi savdo faoliyatini yo'lga qo'ymasdan, xalqaro hamjamiyat bilan aloqalar bog'lamasdan rivojlanish yo'lidan bora olmaydi. Tashqi savdoni va tashqi iqtisodiy faoliyatni rivojlanishida import va eksport operatsiyalari muhim ahamiyatga ega. Negaki, mamlakatga valyuta qimmatliklari kirib kelishi uchun mamlakatda ishlab chiqarish mavjud bo'lishi, va u, albatta, eksportga yo'naltirilgan bo'lishi lozim. Import esa aholini ehtiyojlarini qondirishda, kundalik hayotda zarur bo'lgan mahsulotlarni mamlakatga olib kelishda va bizda mavjud bo'lmagan ishlab chiqarish uchun zarur bo'lgan xomashyolarni kirib kelishini ta'minlaydi.

Shu o'rinda, import va eksport operatsiyalari tushunchalariga batafsilroq to'xtalib o'tsak. Import operatsiyalari deb, mamlakatimizga erkin muomalaga chiqarish uchun chet eldan qayta olib chiqib ketmaslik sharti bilan olib kelinadigan tovar yoki transport vositalarini bojxona chegarasidan olib o'tishga aytiladi. Erkin muomalaga chiqarilgan, ya'ni import qilingan tovarlar, bojxona hududiga olib kirilgandan so'ng ushbu hududdan qaytarib olib chiqish majburiyatisiz shu yerda qoladi. Eksport operatsiyalari deb esa, O'zbekiston tovarini uni qaytarib olib kirish majburiyatisiz bojxona hududidan tashqariga olib chiqish uchun tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchisi tomonidan amalga oshiriladigan tadbirlar yig'indisiga aytiladi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda tashqi savdo hamda valyuta operatsiyalari, import va eksport operatsiyalarini amalga oshirish tartibi ancha yengillashtirildi. Shu sababli, oxirgi yillarda iqtisodiyotimizning o'sishi tez sur'atlarda amalga oshmoqda.

Lekin shuni ham ta'kidlash joziki tovarlarni import qilish bilan shug'ullanuvchi tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari mamlakatimizda haligacha import proteksionizmi (proteksionizm - fransuzcha "protectionnisme" so'zidan kelib chiqqan. Lotin tilida bu so'z "protection" yani himoya degan ma'nolarni anglatadi. Proteksionizm tashqi iqtisodiy faoliyatning bir qismi bo'lib, davlat tomonidan ichki bozorni himoyalash uchun hamda milliy ishlab chiqarishni rivojlantirish va yalpi milliy mahsulot hajmini oshirish maqsadida import qilinadigan ba'zi tovarlar yoki xizmatlarga yuqori import bojlarini qo'llashni anglatadi.)⁶² yuqori darajada ekanligidan norozi bo'lishadi.

Mazkur holat ijobiy ko'rsatkichlarga erishish maqsadida qilingan. Sababi juda oddiy, chet el tovarlari mamlakatimiz bozoriga kirib kelish uchun dumping narxlarni qo'llaydi va bu orqali boshqa raqobatchilarni bozordan siqib chiqarishga harakat qiladi. Shunday holatlarni oldini olish va milliy ishlab chiqaruvchiarimizni chet eldan import qilingan tovar erkin muomalaga chiqarilgandan so'ng, albatta, unga to'langan bojxona to'lovlari ma'lum darajada uning bozorga kirib borish narxiga ta'sir o'tkazishi va uni narxini oshirib yuborishi mumkin. Lekin, bu, o'z navbatida davlat byudjetiga katta

⁶²<https://ru.wikipedia.org>

mablag'ni tushirishga, ichki bozorda tovar aylanmasini tartibga solishga va uni himoyalashga yordam beradi.

Bojxona siyosatida tashqi iqtisodiy faoliyatni tartibga solishda ichki bozorni himoya qilish maqsadida davlat tomonidan iqtisodiy choralardan, ya'ni ta'rif va nota'rif boshqaruvdan foydalaniladi.

Buning afzal tomoni shundaki davlat bu orqali ichki bozorni himoya qiladi, import tovarlarni dumping narxlar orqali bozorga kirib borishini va buning oqibatida nosog'lom raqobatni kelib chiqishini oldini oladi hamda ichki bozorda milliy tovar ishlab chiqaruvchilarni manfaatlarini ta'minlashga hamda rag'batlantirishga va bu orqali aholini bandligiga ham ijobiy ta'sir o'tkazadi.

Lekin shuni ham inobatga olish kerakki barcha nota'rif to'siqlar tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari faoliyatiga sezirali salbiy ta'sir o'tkazadi. Misol uchun eksport operatsiyalarini amalga oshirish uchun 24 kun, import operatsiyalarini amalga oshirish va rasmiylashtirish uchun esa, 54 kun sarf etiladi. Bu, albatta, katta ko'rsatkich, negaki tashqi iqtisodiy faoliyatning samaradorligi bevosita bojxona rasmiylashtiruvi va bojxona nazoratini amalga oshirish uchun ketadigan vaqtga qarab belgilanadi.

Bu o'rinda nota'rif boshqaruv o'zi nima degan savol tug'ilishi mumkin? Nota'rif boshqaruv tovarlar va transport vositalarini O'zbekiston Respublikasiga olib kirish hamda O'zbekiston Respublikasidan olib chiqishga doir cheklovlarni, ularga kvota belgilashni, litsenziyalashni, shuningdek, respublika iqtisodiyotining jahon xo'jaligi bilan o'zaro hamkorligini tartibga solib turuvchi boshqa choralarni o'z ichiga oladi.

Hozirgi kunda bojxona ishi va bojxona nazoratini tartibga soluvchi normativ-huquqiy ba'za judaham chalkash hamda uning ma'muriyatchiligi shaffof emas. Albatta, yangi qabul qilingan bojxona kodeksi kuchga kirgach ma'lum muammolarni hal etish imkoniyati tug'iladi. Hozirgi kunda bojxona ishini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning soni juda ko'p. Albatta bu holat tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazib, ular uchun ko'plab to'siqlarni vujudga keltirishga sabab bo'lishi mumkin. Nega bojxona sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlarning bu darajada ko'p bo'lishi tashqi iqtisodiy faoliyatda to'siqlarga sabab bo'lishi mumkin, degan tabiiy savol

tugʻiladi. Negaki, normativ-huquqiy hujjatlarning bu darajada koʻpayishi ular oʻrtasidagi chalkashliklarga va kolliziyalarni vujudga kelishiga sabab boʻlishi mumkin. Oqibatda, bu holat bojxona ishi va bojxona nazorati munosabatlariga salbiy taʼsir oʻtkazib, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari faoliyatida toʻsiqlarni keltirib chiqaradi. Shu bilan birga, bu holat bojxona organlari xodimlari tomonidan taʼmagirlik holatlarini keltirib chiqarishi va koʻpayishiga ham sabab boʻlishi mumkin.

Bojxona sohasidagi qonunchilikni imkon qadar soddalashtirish zarur. Eʼtibor berib qaraydigan boʻlsak, mazkur sohani tartibga soluvchi qonunchilik hujjatlari aniq emas hamda ularda baʼzan bir-birini inkor etadigan holatlar ham uchrab turadi. Xoʻsh, bu masalani qanday hal qilish mumkin? Avvalo xorijiy tajribani oʻrganish lozim, chunki koʻplab xorij davlatlarida bojxona sohasiga oid qonun hujjatlari aniq va bir tizimga solinganini koʻrish mumkin. Bu esa tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarini va isteʼmolchilar huquq va manfaatlarini lozim darajada himoya etishga yordam beradi.

Shu sababli, tashqi savdo faoliyatini tartibga soluvchi vositalarni va tartibotlarni takomillashtirish mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida ragʻbatlantiruvchi omil boʻlib xizmat qiladi. Koʻplab rivojlangan mamlakatlar tajribasi shuni koʻrsatadiki, eksport va import operatsiyalarini va bojxona maʼmuriyatchiligini takomillashtirish, soddalashtirish va yengillashtirish tashqi savdoni kengaytirishga va iqtisodiyotini tez suʼratlarda oʻsishiga yordam beradi.

Hozirgi kunda dunyo boʻylab ishlab chiqarishni kengayishi, tovar navlarining kundan kunga koʻpayib borayotgani, xoʻjalik aloqalarining diversifikatsiyalashuvi va transmilliy tashkilotlar sonining ortayotgani hamda xalqaro mehnat taqsimotining chuqurlashib borayotgani jahon boʻylab savdo faoliyatining shiddatli ravishda oʻsishiga sabab boʻlmoqda. Tovarlarini ishlab chiqaruvchidan isteʼmolchiga yetkazib berish yoʻllari ular qaysi davlatda boʻlishlaridan qatʼi nazar, kundan kunga takomillashmoqda. Mana shu sharoitlarda tashqi iqtisodiy faoliyatda mavjud toʻsiqlarni bartaraf etish hamda ortiqcha xarajatlarni yoʻqotishga alohida eʼtibor berilmoqda. Negaki, hukumatning iqtisodiy siyosatining samaradorligi hamda iqtisodiy oʻsish koʻrsatkichlari bevosita mana shu omillarga bogʻliqdir.

Fransua van Meyl va Van Tongerenning fikricha, tashqi savdo operatsiyalari xarajatlarini 1,5 % ga qisqartirish butun dunyo davlatlari daromadini 78 mlrd dollarga ortishiga olib keladi. “Uolkenxorst” va “Yasui” tashkilotining tadqiqotlari natijalariga ko‘ra esa tashqi savdo operatsiyalari xarajatlarini 1 % ga qisqartirish butun dunyo davlatlari daromadini 40 mlrd dollarga ortishiga olib keladi.⁶³

Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, tashqi savdo siyosatini rivojlantirish uchun tashqi savdo foliyatini liberallashtirish bilan bir qatorda, tashqi savdo jarayonlari tashqi savdo operatsiyalarini amalga oshirish tartibotlarini soddalashtirish hamda huquqiy va byurokratik to‘siqlarni yo‘q qilish va, shu bilan birga, tashqi iqtisodiy faoliyatda davlat nazoratini kuchaytirish zarur. Bu orqali xalqaro savdo operatsiyalarini amalga oshirish va xalqaro savdo bitimlarini tuzish va amalga oshirish jarayonlarini standartlashtirishga erishish mumkin.

Tashqi savdo jarayonlarini uyg‘unlashtirish va soddalashtirishda Butun Jahon Bojxona Tashkiloti tomonidan 1973-yilda ishlab chiqilgan “Bojxona jarayonlarini uyg‘unlashtirish va soddalashtirish”⁶⁴ xalqaro Kioto konvensiyasi muhim ahamiyatga ega. 1999-yilda Butun Jahon Bojxona Tashkiloti kengashi mazkur hujjatni yangi talqinda qabul qildi va barcha a‘zo davlatlarning bojxona organlari uchun majburiy qilib belgilab qo‘ydi. 1973 yilgi variantdan bu hujjat o‘zining tavsiyaviy xarakterga emas, balki majburiy xarakterga ega ekani bilan ajralib turadi.

Kioto konvensiyasini yangi tahrirda qabul qilish zarurati nega kelib chiqdi bunga nima sabab bo‘ldi degan savol tug‘lishi mumkin. Buning sababi shundaki, oxirgi o‘n yillikda ko‘plab mamlakatlar tomonidan tashqi savdo ta‘riflarini qisqartirish uchun amalga oshirilgan chora-tadbirlar samarali tashqi savdo faoliyatini amalga oshirish uchun yetarli bo‘lmadi.

Bojxona chegarasida ortiqcha vaqt ushlab qolish, tushunarsiz va ko‘p holatlarda keragidan ortiq hujjatlarninig talab qilinishi, davlat tomonidan tasdiqlangan ma‘lumotlarni avtomat ravishda ishlash va qayta ishlash tizimlarining mavjud emasligi tadbirkorlarga juda katta zarar yetishiga sabab

⁶³ russian.doingbusiness.org/methodology/trading-across-borders.

⁶⁴ <http://dic.academic.ru>

bo‘lmoqda, ba’zan bunday zarar ularning faoliyati davomida oladigan foydasidan ham oshib ketmoqda. Mana shu borada olib borilgan tadqiqotlarga ko‘ra, “Iqtisodiy rivojlanish va hamkorlik tashkiloti”ga a’zo davlatlarda eksport va import operatsiyalarini amalga oshirganlik uchun ushlab qolinadigan to‘lovlar tovar qiymatining 2-15% ini tashkil etadi. Qo‘rqmasdan aytish mumkinki, rivojlanmagan davlatlarda bu tarzdagi to‘lovlar yana ham yuqoriroq.⁶⁵

Hozirgi kunda ko‘plab davlatlarda qonunchilik amaliyotini qayta ko‘rib chiqish jarayoni jadallik bilan amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, bojxona ishi to‘g‘risidagi qonunchilik hamda yuqorida aytib o‘tilgan Kioto konvensiyasi qoidalarini amaliyotga tatbiq etish bilan bog‘liq muammolarni hal etish uchun qonunchilikka o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish lozim.

Buning uchun quyidagi ishlarni amalga oshirish lozim:

1. Ko‘plab ma’muriy hujjatlarni yagona hujjatga jamlash;
2. Bojxona rasmiylashtiruvini to‘la ravishda avtomatlashtirish, kompyuterizatsiyalash;
3. Ma’lumotlarni ishlashda “bir darcha” tamoyilini joriy etish;

Yuqorida keltirib o‘tilgan “bir darcha” tamoyili bojxona rasmiylashtiruvini tizimlashtirilgan usuli bo‘lib, zarur bo‘lgan ma’lumotlarning barchasi tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan faqat bitta joyga bitta organ yoki agentlikka taqdim etilishini bildiradi. Bunday tizim bojxona rasmiylashtiruvini hamda bojxona jarayonlarini va bojxona chegarasidan o‘tish bilan bog‘liq bo‘lgan xarajatlarni va ortiqcha vaqtni tejashga yordam beradi.

Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganlaridek “Bugungi kunda tadbirkorlik subyektlarining 98 foizi soliq va statistika hisobotlari topshirishni, bojxona deklaratsiyasi rasmiylashtirishni eski usulda qog‘oz to‘ldirish yo‘li bilan emas, balki bevosita – elektron shaklda amalga oshirmoqda.”⁶⁶

Ta’kidlash joizki, mazkur “bir darcha” tamoyili mamlakatimizda ham keng joriy qilinmoqda. Bu borada amalga oshirilgan ishlarni Prezidentimiz

⁶⁵ Wilson, N. Examining the trade effect of certain customs and administrative procedures / N. Wilson // OECD Trade Policy Working Paper. 2007. No. 42.

⁶⁶ O‘zbekiston Prezidenti Islom Karimovning mamlakatimizni 2014 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2015 yilga mo‘ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma’ruzasi/ <http://uza.uz/oz/politics/-tub-tarkibiy-zgarishlarni-amalg-17-01-2015>

I.A.Karimovning “Tadbirkorlik subyektlariga yagona darcha tamoyili bo’yicha davlat xizmatlari ko’rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi⁶⁷ Qarorida hamda O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2015 yilning 28 sentabrda qabul qilingan “Tadbirkorlik subyektlariga “yagona darcha” tamoyili bo’yicha davlat xizmatlari ko’rsatish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi⁶⁸ Qarorlari misolida ko’rish mumkin.

Mazkur qaror ichida tadbirkorlik subyektlariga keng imkoniyatlarni yaratish maqsadida Prezidentimizning 2015-yil 15-maydagi “Xususiyl mulk, kichik biznes va xususiyl tadbirkorlikni ishonchli himoya qilishni ta’minlash, ularni jadal rivojlantirish yo’lidagi to’siqlarni bartaraf etish chora-tadbirlari to’g’risida”gi⁶⁹ PF 4725-sonli Farmoni ijrosini ta’minlash va tadbirkorlik tuzilmalariga zamonaviyl axborot-kommunikatsiya texnologiyalardan keng foydalangan holda davlat xizmatlarini ko’rsatish sifati hamda ulardan foydalanish imkoniyatlarini tubdan oshirish va shaffofligini ta’minlash maqsadida tuman (shahar) hokimliklari huzuridagi tadbirkorlik subyektlarini ro’yxatdan o’tkazish inspeksiyalari negizida tadbirkorlik subyektlariga «yagona darcha» tamoyili bo’yicha davlat xizmatlari ko’rsatish yagona markazlari tashkil etilib, bunda vazirliklar, davlat qo’mitalari, boshqa davlat organlari va tashkilotlarida mavjud «yagona darcha» xizmatlarining faoliyati 2016-yilning 1-yanvaridan boshlab to’xtatilishi belgilangan.

Qarorga asosan, «yagona darcha» markazlarining asosiy vazifalari etib «yagona darcha» tamoyili bo’yicha davlat xizmatlarini ko’rsatish, tadbirkorlik subyektlarini ro’yxatdan o’tkazish, ruxsat berish va litsenziyalash tartib-taomillaridan o’tishda shaffoflikni ta’minlash, tadbirkorlarga davlat xizmatlarini ko’rsatishda byurokratik g’ov-to’siqlarga yo’l qo’ymasdan davlat xizmatlari ko’rsatayotgan davlat organlari va boshqa tashkilotlar bilan yaqin hamkorlik o’rnatish, arizachilarga informatsion yordam ko’rsatish, shuningdek davlat xizmatlarini ko’rsatish tartibi va muddatlari to’g’risida bepul konsultatsiya berish vazifasi yuklatildi. 2016-yilning 1-yanvaridan boshlab tadbirkorlik

⁶⁷ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2015 й. 40-сон, 516-модда.

⁶⁸ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2015 й. 50-сон, 626-модда.

⁶⁹ <http://www.norma.uz>

subyektlariga «yagona darcha» markazlari tomonidan mazkur qarorning 2-ilovasida keltirilgan 16 ta yoʻnalish boʻyicha davlat xizmatlari koʻrsatish roʻyxati tasdiqlangan.

Ushbu qarorlarni qabul qilishdan moʻljallangan asosiy maqsad mamlakatimizda barcha turdagi roʻyxatdan oʻtkazish, ruxsat berish va litsenziyalash, shuningdek, tashqi iqtisodiy faoliyatni amalga oshirish bilan bogʻliq tartib-taomillarni yanada soddalashtirishga erishishdir.

Belgilangan yangi tartib-qoidalar davlat organlarida hujjatlarni rasmiylashtirish jarayonlarini tubdan soddalashtirishga qaratilgan kompleks choralar koʻrishni, tegishli tashkilotlar va mansabdor shaxslar zimmasiga ushbu jarayonlarda tadbirkorlarni har tomonlama qoʻllab-quvvatlash pozitsiyasidan turib ishtirok etish maʼsuliyatini yuklaydi.

Koʻp sonli tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, mazkur tizimni amaliyotga joriy qilish vaqtni tejashga hamda xarajatlarni qisqartirishga yordam beradi.

Misol uchun, Yangi Zelandiyada elektron multimedia tizimini joriy etish orqali bojxona rasmiylashtiruv vaqtini oʻrtacha 10 kundan 12 minutgacha qisqartirishga erishildi.

Kosta-Rikada esa “bir darcha” tamoyilini hamda bojxona rasmiylashtiruvini elektron tizimni joriy etish, bojxona tekshiruvlari vaqtini oʻrtacha 6 kundan 15 daqiqagacha qisqartirish imkonini berdi.⁷⁰

Xoʻsh, mazkur tizimlarni amaliyotga joriy etish davlat byudjetiga qanchaga tushadi? Mutaxassislar hisob-kitoblariga koʻra, mazkur tizimlarni amaliyotga joriy etish 1,6 mln dollardan 17 mln dollarni tashkil etishi mumkin.

Misol uchun, Tunis davlatining bojxona ishi jarayonlarini kompyuterizatsiyalashga moʻljallangan 6 yillik dasturi 16 mln dollarni tashkil qildi. Chili davlati bojxona organlarining elektron maʼlumot almashish tizimi davlat byudjetiga 5 mln dollarga tushdi. Shuni taʼkidlash lozimki, mazkur amaliyotni joriy qilish orqali Chili davlati har oy 1 mln dollar miqdorda mablagʻni tejashga erishdi.⁷¹

⁷⁰ Sandford, I. Customs in the Regional Trade Agreements of Australia and New Zealand: efforts to improve customs instruments and develop trade / I. Sandford, I. Temby // Global Trade and Customs Journal. 2010, vol. 5, no. 11/12, b. 445-459.

⁷¹ <http://russian.doingbusiness.org>

Lekin, bu ko'rsatkichlar individual xarakterga ega va boshqa davlatlar uchun mazkur ko'rsatkichlar ko'proq yoki kamroq bo'lishi mumkin. Mazkur loyihalarning samaradorligi ularni nafaqat davlat organlari tomonidan to'la ravishda bajarilishini, o'z navbatida, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining ham to'la ravishda bu loyihalarni amalga oshirishda qatnashishlari, qonunchilikdagi yangi qoidalarga va o'zgarishlarga og'ishmay amal qilishlarini talab qiladi va, shundagina mazkur loyihalarni to'la ravishda realizatsiya qilinishiga erishish mumkin bo'ladi.

Yuqorida aytib o'tilgan tizimlarni amaliyotga joriy qilish uchun, albatta, qonun hujjatlariga zarur o'zgartirish va qo'shimchalarni kiritish lozim. Butun Jahon Bankining ma'lumotlariga ko'ra, O'zbekistonda eksport operatsiyalarini amalga oshirish uchun o'rtacha 24 kun sarf etiladi. Misol uchun, Estoniya va Daniyada mazkur muddat 5 kunni tashkil qiladi. Germaniya, Shveytsariya, Kanada va Belgiyada mazkur ko'rsatkich 7 kunni, Singapur va Xitoyda eksport uchun sarf etiladigan vaqt 6 kunni, Janubiy Koreyada 8 kunni tashkil qiladi.⁷²

Ijtimoiy so'rovlar shuni ko'rsatadiki, eksport qiluvchilarning ko'p vaqti "Qo'shilgan qiymat solig'ini" qaytarib olishga va davlat organlaridan ruxsatnoma hamda litsenziya olish uchun sarf bo'ladi. Davlat organlaridan ruxsatnoma va litsenziya olish uchun, taxminan, 11 kun, bank hisobvaraqlariga pul o'tkazmalari uchun 4 kun, «O'zstandart» agentligidan sertifikat olish uchun 5 kun, «O'zbekekspertiza» OAJ tomonidan tovarni kelib chiqishini tasdiqlovchi sertifikat berish uchun esa 4 kun vaqt sarflanadi. Umumiy hisoblaganda esa bu muddat o'rtacha 24 kunni tashkil qiladi. Bu ijobiy ko'rsatkich bo'lsa-da, bu rasmiy ko'rsatkich bo'lib, eksport qiluvchi tadbirkorlar orasida o'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, bu muddat 41 kunni tashqil qilishi ma'lum bo'lgan. Xalqaro standartlar bo'yicha bu ko'rsatkichlar juda katta hisoblanadi. Negaki, tovarlarni bojxonada rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt bojxona organlari faoliyati samaradorligini belgilaydigan asosiy xalqaro mezonlardan hisoblanadi. Shu sababli, mazkur muddatni kamaytirish orqali ortiqcha sarf etilayotgan mablag'larni tejash hamda davlatimiz eksport salohiyatini oshirish hamda tashqi

⁷² <http://russian.doingbusiness.org>

iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining faoliyatini rag'batlantirishga erishish mumkin.

Endi, import operatsiyalarini amalga oshirishda vujudga kelayotgan muammolarga to'xtalib o'tsak. Ma'lumotlarga ko'ra, import operatsiyalarini amalga oshirishda, vaqt, asosan vakolatli banklarda valyuta konvertatsiyasini amalga oshirishga va pul o'tkazmalariga sarf etilishi ma'lum bo'lgan. Mazkur ko'rsatkich o'rtacha hisobda 54 kunni tashkil qiladi. Tovarlarini bojxonada qayta ishlashga o'rtacha hisobda 8 kun, tovarlarni bojxona omboriga joylashtirish uchun esa, o'rtacha 6 kun, «O'zstandart» agentligidan tegishli sertifikat olish uchun esa, o'rtacha hisobda 5 kun sarf etiladi. Bularni naqadar katta ko'rsatkich ekanligini anglash uchun mazkur ko'rsatkichlarni boshqa xorijiy davlatlarniki bilan taqqoslash yetarli. Singapurda bu ko'rsatkich 3 kunni, Xitoyda 5 kunni, Janubiy Koreyada 7 kunni, Estoniyada 5 kunni, Litvada 9 kun, Latviyada esa, 11 kunni tashkil qiladi.

Import operatsiyalari uchun sarf etiladigan sarf-xarajatlar esa Butun Jahon Bankining ma'lumotlariga ko'ra, o'rtacha 5090 AQSH dollarini tashkil etadi. O'tkazilgan so'rovlarga ko'ra, mamlakatimizda mazkur operatsiyalarga 4483 AQSH dollari sarf etilishi ma'lum bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, bu katta ko'rsatkich hisoblanadi. Dunyoning ko'plab mamlakatlarida bu ko'rsatkich 1000 AQSH dollarini tashkil etadi. Dunyoning 177 davlatidan 145 tasida mazkur ko'rsatkich 2000 AQSH dollaridan oshmaydi.⁷³

Mazkur ko'rsatkichlarni kattaligiga sabab mamlakatimizda hali tovarlarni elektron shaklda deklaratsiyalash va "bir darcha" tamoyili orqali tadbirkorlarga xizmat ko'rsatish tizimlari to'la ravishda ommalashmaganligidadir. Ma'lum vaqt davomida mazkur tizimlar takomillashib, albatta, yuqorida ta'kidlangan ko'rsatkichlarni qisqartirish imkoniyatini beradi.

Import va eksport operatsiyalari uchun ketadigan vaqtni qisqartirish, ularni imkon qadar xalqaro standartlarga moslashtirish lozim. Buning uchun, avvalo, mazkur operatsiyalarni amalga oshirishda vujudga keladigan byurokratik jarayonlarni kamaytirish lozim. Shuning uchun, quyida mazkur muammoga taalluqli bir necha ma'lumotlarga murojaat qilamiz.

⁷³ <http://russian.doingbusiness.org>

Yuqorida ta'kidlangan byurokratik holatlarni vujudga kelishiga qonunchilikdagi kamchiliklar, bo'shliqlar mazkur sohaning yetarli tartibga solinmagani sabab bo'lmoqda. Xususan, tovarlarga muvofiqlik sertifikatini olish jarayonini olib qaraydigan bo'lsak, Vazirlar Mahkamasining "Mahsulotlarni sertifikatlashtirish tartibotini soddalashtirishga doir qo'shimcha chora tadbirlar to'g'risida"gi Qarorining 5-bandiga ko'ra, muvofiqlik sertifikatini rasmiylashtirish va berishning umumiy muddati ishlarning murakkabligi darajasiga, ko'p mehnat talab qilishi va o'ziga xosligiga qarab, barcha zarur hujjatlar berilgan vaqtdan boshlab:⁷⁴

- olib kelinadigan mahsulotlarga 10 ish kundan ortiq bo'lmagan muddatda;
- ishlab chiqariladigan mahsulotlarga 10 ish kunidan 1 oygacha muddatda belgilanadi.

Yuqoridagi muddatlarni qisqartirish tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga eksport qilinayotgan mahsulotlarni tezroq buyurtmachiga yetkazish imkoniyatini beradi va sarflanayotgan ortiqcha vaqtni tejashga yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasida mahsulotlarni sertifikatlashtirish jarayoni 1993-yilda "Mahsulotlar va xizmatlarni sertifikatlashtirish to'g'risida"gi qonunni qabul qilinishi bilan boshlangan. Bu vaqtda hali tovar bozorida raqobat rivojlanmagan va qonunchilikda ham bo'shliqlar ko'p edi. Shu sababli, mazkur qonun iste'molchilarni sifatsiz mahsulotlardan himoya qilishda va ularni huquq manfaatlarini ro'yobga chiqarishda real ishlaydigan maxsus mexanizmga aylangandi.

Bugungi kunga kelib tovar sifatini tasdiqlovchi hujjat bu ishlab chiqaruvchi tomonidan "O'zstandart" agentligidan olinadigan muvofiqlik sertifikatini hisoblanadi. Shu sababli, majburiy sertifikatlashtirish lozim bo'lgan tovarlar ro'yxatini qisqartirish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Inson hayoti va salomatligiga zarar yetkazmaydigan tovarlarni majburiy sertifikatlashtirish lozim bo'lgan tovarlar ro'yxatidan chiqarish zarur, bu orqali tashqi iqtisodiy

⁷⁴ Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 27-сон, 315-модда; 2005 й., 32-33-сон, 251-модда; 2006 й., 37-38-сон, 378-модда; 2007 й., 21-сон, 214-модда, 24-сон, 250-модда; 2008 й., 19-сон, 161-модда, 33-сон, 315-модда; 2008 й., 52-сон, 521-модда; 2009 й., 24-сон, 272-модда, 34-сон, 371-модда, 34-сон, 375-модда; 2010 й., 17-сон, 130-модда, 47-сон, 426-модда; 2011 й., 18-сон, 178-модда; 2012 й., 31-сон, 357-модда, 44-сон, 507-модда; 2013 й., 17-сон, 225-модда; 2014 й., 10-сон, 105-модда; 2015 й., 42-сон, 534-модда.

faoliyat ishtirokchilari oldida turgan bir qancha ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish mumkin bo'lar edi. Qisqacha aytadigan bo'lsak, mazkur tartibotlarni yengillashtirish orqali tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari faoliyatini rag'batlantirish, ular tomonidan ortiqcha sarflanayotgan mablag'larni va vaqtni tejash mumkin bo'ladi.

Bulardan tashqari, tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari duch kelayotgan yana bir muammolardan biri eksport va import shartnomalarini ro'yxatga qo'yish bilan bog'liq bo'lib, mazkur shartnomalarni bojxona qo'mitasida ro'yxatga qo'yish uchun ko'p vaqt sarflanmoqda. Bunga sabab tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilarining murojaatlari o'z vaqtida ko'rib chiqilmayapti. Mazkur muammoni hal etish uchun mazkur harakatlarni, ya'ni shartnomalarni bojxona qo'mitasida ro'yxatga qo'yish bilan bog'liq harakatlarni tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari nomidan amalga oshiruvchi yuridik shaxslarni yoki konsalting xizmatlarni tashkil etish lozim hamda ularning faoliyatini tartibga soluvchi va huquq majburiyatlarini aniq belgilab beruvchi normalarni qonun hujjatlarida mustahkam belgilab qo'yish lozim.

Tashqi iqtisodiy faoliyat doimiy harakatda va rivojlanishda, shu sababli, mazkur sohani tartibga soluvchi qonunchilikni doimiy tahlil qilish va kechayotgan o'zgarishlar bilan izchillikda takomillashtirib borish kerak. Tashqi savdo faoliyatini rivojlantirish va unga keng yo'l ochib berish davlat iqtisodiyotining o'sishini ta'minlashda, mamlakatimiz eksport salohiyatini oshirishda va, shu bilan birga, aholini turmush darajasini yanada yaxshilanishida muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun eng qulay shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimiz ishbilarmonlik va investitsiya muhiti darajasining xalqaro reytingini yanada oshirish maqsadida Prezidentimiz I.A.Karimov ning 2012 yil 18-iyuldagi "Ishbilarmonlik muhitini yanada yaxshilash va tadbirkorlikka yanada keng erkinlik berish chora tadbirlari to'g'risida"⁷⁵ farmoni qabul qilindi va aynan shu farmon talablaridan kelib chiqqan xolda Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2012 yil 29 dekabrda "Tovarlarni

⁷⁵ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., 29-сон, 328-модда; 2013 й., 36-сон, 477-модда, 45-сон, 584-модда

bojxonada elektron shaklda rasmiylashtirish tartibi to‘g‘risida”gi⁷⁶ 370-sonli qaror qabul qilindi va unga ko‘ra 2013 yil 1 yanvardan boshlab tovarlarni bojxonada elektron shaklda rasmiylashtirish tartibi amaliyotga joriy qilindi. Shuningdek, qaror bilan “Tovarlarini elektron shaklda bojxona rasmiylashtiruvini to‘g‘risida”⁷⁷gi nizom ham tasdiqlandi.

Mazkur amaliyot tadbirkorga masofadan turib, bojxona organlariga bojxona yuk deklaratsiyalari va ularga tegishli yuk kuzatuv hujjatlarini taqdim etish imkoniyatini berdi. Bu esa, o‘z navbatida bojxona rasmiylashtiruv vaqtini qisqartirish, yuklarni bojxona omborida saqlash xarajatlarini kamaytirish va yukning egasiga qisqa muddatda etib kelishiga qulayliklar yaratdi. Vaholangki, ilgari bojxona yuk deklaratsiyalarini qog‘oz shaklida rasmiylashtirish jarayonlariga kamida 25 soat vaqt sarflanar edi. Sodda qilib aytganda, tovarlarni elektron shaklda rasmiylashtirish jarayoni tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchisiga o‘z idorasidan chiqmasdan turib, bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirish imkoniyatini berdi. Bu esa albatta tadbirkorning vaqtini tejab, moliyaviy xarajatlarning ham qisqarishiga olib keldi.

Muhtaram Prezidentimiz I.A.Karimov ta’biri bilan aytadigan bo‘lsak, “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirmasdan, unga tegishli ko‘mak va rag‘bat bermasdan, zarur imkoniyat, imtiyoz va preferensiyalar yaratmasdan turib, iqtisodiyotimiz kelajagini ta’minlab bo‘lmaydi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz taraqqiyotida, avvalambor, xalqimiz uchun munosib hayot barpo etish, oldimizda turgan murakkab va mas’uliyatli vazifalarni amalga oshirish borasida qanday hal qiluvchi o‘rin va ta’sirga ega bo‘lib borayotganiga bugun amaliy hayotimizda har qadamda guvoh bo‘lmoqdamiz va bu soha ertangi kunimiz, istiqbolimizning haqiqatan ham mustahkam poydevoriga aylanib, yanada rivojlanib borishi aniq va muqarrardir”.⁷⁸

Shunday ekan tadbirkorlik va kichik biznesni qo‘llab quvvatlash va ularga yanada keng imkoniyatlar yaratish maqsadida, bojxona sohasiga oid

⁷⁶ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 1-сон, 9 бет; 2015 й., 1-сон, 8 бет;

⁷⁷ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 1-сон, 9 бет; 2015 й., 1-сон, 8 бет;

⁷⁸ Каримов И.А «Ўзбекистон буюк келажак сари». – Т.:Ўзбекистон – 1998. 6.144-145

qonun va qonun osti hujjatlariga ham o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish zamon talabidir.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining yangi loyihasi ustida olib borilayotgan ishlar haqida alohida so'z yuritish zarur. Yangi Bojxona kodeksi loyihasi ayni vaqtda amalda bo'lgan bojxona kodeksidagi kamchiliklarni bartaraf etishga, bojxona qonunchiligi sohasidagi tarqoq holatda bo'lgan qonun normalarini kodifikatsiya qilishga yordam beradi. Xozirgi vaqtda Bojxona soxasidagi qonun osti xujjatlari soni 600 dan ortiq bo'lib, shulardan 150 ga yaqin qonun osti normalari bevosita Bojxona nazoratini tartibga solishga qaratilgan xujjatlarni tashkil etadi. Mana shu raqamlardan xam anglash mumkinki, bu soxadagi qonun xujjatlarini imkon qadar kodifikatsiya qilishni zamonni o'zi talab qilmoqda. Bojxona kodeksi iqtisodiyotning barcha soha va tarmoqlarida iqtisodiy islohotlarni yanada liberallashtirish va chuqurlashtirish yo'nalishidagi vazifalarni izchil amalga oshirish, tashqi iqtisodiy faoliyat sohasini takomillashtirishda muhim ahamiyatga ega. Yangi tahrirdagi Bojxona kodeksining amalga kiritilishi biznesni rivojlantirish va tashqi iqtisodiy faoliyat sohasida tadbirkorlikka keng yo'l ochib berish uchun yanada qulay shart-sharoitlar yaratadi.

Mazkur loyiha O'zbekiston Respublikasi hududida samarali bojxona nazoratini ta'minlash, tovar aylanmasini tartibga solish, tashqi savdoni rivojlantirish hamda ichki bozorni sifatsiz va kontrafakt mahsulotlardan himoyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Bojxona kodeksining yangi tahriri amaldagi kodeksdan tubdan farq qiladi va konseptual jihatdan Bojxona tizimi faoliyatini yangi bosqichga olib chiqishga huquqiy imkon yaratadi. Xususan, unda tovarlar bojxona hududiga kirib kelishidan avval, ular haqida oldindan ma'lumot taqdim etishning yangi mexanizmi ko'zda tutilgan. Bu esa, aholi xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy himoyalashning muhim shartlaridan biridir. Qonun loyihasida bojxona to'lovlarini tartibga keltirishning yangi mexanizmlari ishlab chiqilganligi, halol to'lovchilarni himoyalash, ortiqcha undirilgan bojxona to'lovlarini qaytarish jarayonlari va tartibi aniq belgilab berilganligi tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining huquq va manfaatlarini yanada mukammal ximoya etishga yordam beradi. Qonun osti hujjatlarining soni va doirasini

qisqartirish, bojxona sohasidagi qonunchilikning yuqori sifatililigiga erishish, ularni hayotga tatbiq etishning ishonchli mexanizmlarini yaratish dolzarb muammolardandir. Shu sababli yangi kodeksda bir qator qonun osti hujjatlari mazkur yangi hujjatga jamlangan. Yangi tahrirdagi kodeks loyihasida alohida bob bilan bojxona ishida zamonaviy axborot texnologiyalarini keng qo'llash, bojxona rasmiylashtiruvi uchun zarur bo'lgan hujjatlar elektron shaklda taqdim etilishi, bojxona jarayonlarini "Bir darcha" tamoyili asosida amalga oshirishning yangi mexanizmi joriy etilishining nazarda tutilayotgani bojxona rasmiylashtiruvi jarayonlarida shaffoflikni ta'minlash va korrupsiyani oldini olishga xizmat qiladi.

Bu esa o'z navbatida davlat bojxona organlarining faoliyatini takomillashtirish va samarali bojxona nazoratini tashkil etishga, hamda tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilari va xo'jalik yurituvchi subektlar faoliyatini yanada erkinlashtirishga va ularga qo'shimcha imkoniyatlar yaratilishiga xizmat qiladi.

Milliy qonunchiligimizda tadbirkorlikni rivojlantirish, tadbirkorlar faoliyat yuritishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratish borasida qator qonun va qonunosti hujjatlari qabul qilingan, jumladan Prezidentimizning "Tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish va davlat xizmatlarini ko'rsatish bilan bog'liq tartibotlarni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2014 yil 15 apreldagi PQ-2164-son qaroriga⁷⁹ muvofiq, tadbirkorlik faoliyatini yanada erkinlashtirish, ruxsat beruvchi tartibotlarni qisqartirish va arzonlashtirish, shuningdek ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish maqsadida amalga oshirilgan bir qator o'zgarishlarni xam takidlab o'tish joizdir.

Jumladan, bojxona ombori, erkin ombor va boj olinmaydigan savdo do'koni faoliyatini litsenziyalash to'g'risidagi nizomlarga bir qator o'zgartirishlar kiritildi. Xususan, litsenziya oluvchi tomonidan litsenziyalovchi organga taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxatida bojxona ombori sifatida foydalanish uchun mo'ljallangan har bir hududiy alohida binoga va (yoki) har bir hududiy alohida ochiq maydonchaga alohida ariza taqdim etilishi, litsenziya

⁷⁹ Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 16-сон, 178-модда

berish to'g'risidagi ariza ko'rib chiqilganligi uchun ikki minimal ish haqi miqdoridagi yig'im undirilishi bekor qilindi.

Bojxona to'lovlariga berilayotgan imtiyozlar dinamikasini olib qaraydigan bo'lsak imtiyozlar ko'lami yil sayin ortmoqda. Shunday bo'lsa-da ta'kidlash joziki bojxona sohasi hamda tashqi savdo aloqalari doimiy bir joyda qotib turuvchi soha emas, shuning uchun ham bozor iqtisodiyoti sharoitida bojxona sohasi va bojxona nazoratini takomillashtirish va rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratish lozim.

Shu o'rinda bojxona organlari faoliyatini zamonaviy talablar darajasiga etkazish, bojxona xizmatini texnologik jihatdan qayta jihozlash, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy qilish bojxona nazorati komplekslarini texnik jihatdan qayta ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Tovarlarini bojxonada rasmiylashtirish uchun ketadigan vaqt bojxona organlari faoliyati samaradorligini belgilaydigan asosiy xalqaro mezonlardandir. Uni qisqartirishga bojxona texnologik jarayonlarini zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari joriy etish orqaligina erishish mumkin. Bu esa albatta Bojxona nazoratini yanada takomillashtirishga, bojxona rasmiylashtiruvini soddalashtirishga, bojxona organlari faoliyatini tezkor boshqarish, bojxona qonunchiligining buzilish holatlari, kontrabandani aniqlash, bojxona nazorati jarayonida inson omili ta'sirini istisno etishga yordam beradi.

Bojxona organlari faoliyatiga axborot texnologiyalarini joriy etishdan asosiy maqsad tovarlarni bojxona rasmiylashtiruvini jarayonini tezlashtirish, bu borada oshkoralikni ta'minlash, tovarlarni to'g'ri deklaratsiya qilish, davlat byudjetiga bojxona to'lovlarini to'liq undirilishini va bojxona nazoratini ta'minlashdan iboratdir.

Yuqorida ta'kidlanganidek bojxona komplekslari va bojxona postlarini zamonaviy texnik nazorat vositalari bilan jihozlash, bojxona organlari faoliyati samaradorligini oshirishning muhim yo'nalishlaridandir. Mamlakatimiz xalqaro aeroportlarida eng zamonaviy rentgen apparatlari, narkotik moddalarni aniqlash va radiatsiya nazorati vositalari, tarozilar, tekshiruv optikasi va boshqa texnika vositalari bilan jihozlangan. Ularda xizmat ko'rsatish darajasi bojxona amaliyoti darajasiga javob beradi. Shunday bo'lsa-da bu borada hali kamchiliklar mavjud,

chegara bojxona postlarini zamonaviy texnik jihozlar bilan ta'minlash jumladan avtotransport va yuk mashinalarini skaner qilish imkoni beruvchi uskunalar keng joriy etish bojxona nazoratini yanadan samarali olib borish uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Albatta bular bilan bir qatorda bojxona tizimida axborot-komunikatsiya texnologiyalarini qo'llash samaradorligini oshirish uchun bojxona organlari xodimlarining ham malakaviy bilim va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish zarur.

Xulosa o'rnida aytadigan bo'lsak, bojxona nazoratini to'g'ri tashkil etilishi bojxona faoliyatini huquqiy tartibga solish tizimini mustahkamlash, mamlakatimiz iqtisodiy sarhadlarini ishonchli ximoya qilish, mahalliy ishlab chiqaruvchilarning eksport salohiyatini yanada oshirish va xorijiy investorlarni jalb etishga keng imkoniyatlarni yaratadi.

XULOSA.

O'zbekiston Respublikasida bojxona sohasida bojxona nazoratini tashkil etish va mazkur sohaga oid qonunchilikni hamda bojxona nazorati faoliyatini o'rganish quyidagi xulosalarni chiqarish va takliflarni bayon qilish imkoniyatini berdi.

1. Bojxona ishi davlatning ichki va tashqi faoliyat sohasidagi vazifalarining tarkibiy qismi sifatida mamlakat chegaralari daxlsizligini ta'minlash, ichki iqtisodiy salohiyatini oshirishga xizmat qiladi, davlatning mustaqilligini namoyon qiladi va uni mustahkamlash omili bo'lib xizmat qiladi.

«O'zbekiston Respublikasining davlat mustaqilligi asoslari to'g'risida»gi Konstitutsiyaviy qonun va Respublikamiz Konstitutsiyasini qabul qilinishi sohani tartibga solish uchun tegishli huquqiy baza yaratishga zamin tayyorladi;

2. Bojxona ishini yo'lga qo'yish sohasida qonunchilik asoslarini yaratish bilan bojxona nazoratini tashkil etish uni shakllantirish borasida muhim ishlar amalga oshirildi. Jumladan yangi tahrirdagi bojxona kodeksi islohotlarning davomi deyish mumkin. Mazkur kodeskining ba'zi moddalariga o'zgartirishlar kiritish maqsadga muvofiq. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining 26-bobi 173-moddasiga o'zgartirish yoki mazkur moddaga 173¹-modda kiritilishi lozim. Eski tahrirdagi bojxona kodeksining 55-moddasi erkin ombor, bojxona ombori va boj olinmaydigan savdo do'koni majburiyatlariga bag'ishlangan edi. Yangi tahrirdagi 173-moddada ularning majburiyatlari belgilanmagan;

3. Bojxona kodeksining 203-moddasining ikkinchi xatboshisiga o'zgartirish kiritish lozim. Ya'ni xavfni boshqarish tizimini qo'llash bo'yicha chora-tadbirlar Davlat bojxona qo'mitasi tomonidan emas, balki mazkur kodeks tomonidan belgilanishi maqsadga muvofiq. Xavfni boshqarish tizimlarini qo'llash to'g'risida nizom ishlab chiqish zarur;

4. Bojxona kodeksning 41-bobining 285-moddasining uchinchi xatboshisidagi davlat bojxona qo'mitasi tomonidan degan so'zlar bojxona kodeski bilan belgilanadi degan so'zlar bilan almashtirilishi lozim. Ya'ni bojxona rasmiylashtiruv bo'yicha mutaxassisning malaka attestatini berish, uni

amal qilishi, to'xtatilishi, tugatilishi, muddatini uzaytirish tartibi kodeksda belgilanishi ya'ni 285¹-modda sifatida kiritilishi kerak;

5. Bojxona huquqining manbalari to'g'risida so'z yuritilganda, ular qatoriga bojxona sohasidagi O'zbekiston Respublikasi xalqaro shartnomalari va u qo'shilgan konvensiyalarni ham kiritib, quyidagicha tizim ekanligini qayd qilish lozim:

- a) Davlat hokimiyati organlarining me'yoriy aktlari;
- b) Davlat boshqaruv organlarining me'yoriy aktlari;
- c) O'zbekiston Respublikasi qo'shilgan xalqaro shartnomalar va konvensiyalar;

6. Mamlakatimiz iqtisodiyotini Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi a'zolari bilan integratsiyalashuvini kuchaytirish borasida qilinayotgan harakatlar Respublikamizning bojxona sohasiga ham ta'sir o'tkazadi. Shuning uchun boshqarish tizimini unga moslashtirish lozim;

7. O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksining bojxona rejimlariga bag'ishlangan 4 bobi 25 – moddasiga qo'shimcha kiritib, quyidagi rejimlarni ham qo'shish maqsadga muvofiq:

1. MDH davlatlariga tovar va transport vositalari chiqarish va olib kelish;
2. O'zbekiston Respublikasining chet eldagi vakolatxonalariga tovar va transport vositalari chiqarish.;

8. Amaldagi Bojxona qonunchiligini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, bojxona nazoratini uchga bo'lib o'rganish zarur:

1. Import bojxona nazorati;
2. Eksport bojxona nazorati;
3. Tranzit bojxona nazorati.

Bojxona nazoratini o'tkazish tanlangan bojxona rejimiga muvofiq bo'lsada, bu nazoratni o'tkazish jarayonida Tovar va transport vositalarining bojxona chegarasidan o'ztkazishda yuqoridagi uch maqsaddan birini ko'zlangan deb hisoblash to'g'ri bo'ladi.

9. Ba'zi olimlar umumiy bojxona nazoratini predmetiga ko'ra ikkiga bo'lishni taklif qilishadi: tovarlarning bojxona nazorati va transport vositalarini

bojxona nazorati. Lekin biz bu fikrga qo'shila olmaymiz, sababi amaldagi qonunchilikka asosan bojxona chegarasi orqali harakatlanadigan barcha tovarlar va transport vositalari bir xil tartibda bojxona nazoratidan o'tkaziladi. Shu sababli bojxona nazoratining predmeti sifatida tovarlar va transport vositalari birgalikda qaralishi lozim va bojxona nazorati predmetini shu nuqtai nazardan ikkiga bo'linib o'rganish maqsadga muvofiq emas;

10. Bizni fikrimizcha bojxona faoliyatining tartibga soluvchi va huquqni muhofaza etuvchi maqsadlari iqtisodiy maqsadlar oldida ikkilamchi yoki hosila maqsadlar sifatida qarash maqsadga muvofiq. Negaki, bojxona ishining tartibga soluvchi maqsadlari iqtisodiy munosabatlardan, aksariyat hollarda davlatlararo iqtisodiy munosabatlardan kelib chiqadi, huquqning muhofaza etuvchi maqsadlari ham davlatning iqtisodiy manfaatlari, iqtisodiy xafvsizligini ta'minlashga qaratilgan. Jumladan, «Terrorizmga qarshi kurash to'g'risida»gi O'zbekiston respublikasi qonunining 12-moddasida Davlat bojxona qo'mitasini terrorizmga qarshi kurash sohasidagi vazifalari, aynan, bojxona chegarasidan tovarlar va transport vositalarini noqonuniy o'tkazishga qarshi kurash jarayonida amalga oshirilishi belgilab qo'yilgan.

11. Yangi tahrirdagi bojxona kodeksiga kiritilgan xavfni boshqarish tizimi tushunchasi yaxshi yoritib berilmagan. Shuning uchun bojxona kodeksining 29 bobiga xavfni boshqarish tizimini mukamallashtirish bo'yicha qo'shimchalar kiritish maqsadga muvofiq bo'lar edi. Mazkur tizimga oid tushunchalar batafsil belgilab qo'yilishi lozim;

12. Xavfni boshqarish tizimiga doir avtomatlashtirilgan axborot almashinuv kommunikatsion tizimlarni joriy qilish zarur. Bu o'z o'rnida bojxona nazoratini amalga oshirish uchun sarf etiladigan vaqtni qisqartirish imkonini beradi.

13. Bojxona rasmiylashtiruvini amalga oshirishda yagona darcha tizimini takomillashtirish darkor. Bojxona rasmiylashtiruvini to'liq holda elektron tizimga o'tkazish zarur.

14. Eksport shartnomalarini ro'yhatga qo'yishda TIF ishtirokchilari tomonidan amaliyotda turli qiyinchiliklarga duch kelish hollari uchramoqda. Shu sababli eksport shartnomalarini davlat bojxona qo'mitasida ro'yhatga

qo'yish bo'yicha konsalting xizmatlar tashkil etish, mazkur harakatlarni TIF ishtirokchilari nomidan amalga oshiruvchi yuridik shaxslarni tashkil qilish ya'ni bojxona autsoringni joriy qilish zarur. Hozirda bojxona vakilligi instituti mamlakatizmida bojxona brokeri frimalari ko'rinishida mavjud bo'lib, ular tor doiradagi xizmatlar bilan band bo'lib qolishmoqda. Mazkur masala bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Bojxona kodeksiga tegishli o'zgartirish kiritish lozim. Bojxona autsoringi terminini qonunchilikga kiritib mazkur munosabatlarni tartibga soluvchi normativ-huquqiy baza yaratish darkor.

15. Bojxona nazoratini ta'minlash va qonunbuzilish hollarini oldini olish uchun kontrabanda tovarlariga qarshi kurashishni kuchaytirish zarur, buning uchun chegara tumanlari va u yerlarda paydo bo'layotgan aylanma yo'llarni bartaraf etish va bojxona postlarini zarur texnik vositalar bilan ta'minlash zarur. Buning uchun quyidagilarni amalga oshirish zarur:

- huquqni muhofaza qiluvchi organlar, mahalliy hokimiyat va o'zini-o'zi boshqarish organlari o'rtasida hamkorlikni kuchaytirib, maqsadli kompleks tadbirlarni amalga oshirish;
- chegara hududlariga yaqin joylashgan aholini ichki hududlarga ko'chirish zarur va bu bo'yicha maxsus komissiyalar tuzish kerak;
- aylanma yo'llarini yo'q qilish choralarini ko'rish lozim ya'ni mazkur chegara hududlarda handaklar qazish, aylanma yo'llarni to'sish choralarini ko'rish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning asarlari.

1. Каримов И. А. Хавфсизлик ва тинчлик учун курашмоқ керак. Т. 10. – Т.: “Ўзбекистон”, 2002.
2. И.А.Каримов “Ўзбекистон: миллий истиқлол, иқтисодиёт, сиёсат, мафкура.” Т-1. Т.:”Ўзбекистон” 1996;
3. Каримов И.А. Биз танлаган йўл-демократик тараққиёт ва маърифий дунё билан ҳамкорлик йўли. Т.11. - Т.: “Ўзбекистон”, 2003.
4. Каримов. И.А. Ватанимизнинг босқичма - босқич ва барқарор ривожланишини таъминлаш - бизнинг олий мақсадимиз. -Т.17.-Т.: Ўзбекистон, 2009
5. И.А.Каримов “Ўзбекистон буюк келажак сари”. Т.:”Ўзбекистон” 1998;
6. И.А.Каримов “Ўзбекистон - иқтисодий ислохотларни чуқурлаштириш йўлида”. Т.:”Ўзбекистон” 1995.
7. Каримов И.А. Тинчлик ва хавфсизлик ўз куч-қудратимизга, ҳамжиҳатлигимиз ва қатъий иродамизга боғлиқ. Т.12. -Т.: “Ўзбекистон”, 2004.

II. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2014 y., 16-son
2. O‘zbekiston Respublikasi Bojxona kodeski. O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2016 y., 3(I)-son;
3. Ўзбекистон Республикаси Ташқи иқтисодий фаолият тўғрисидаги қонуни - Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 2000 й., 5-6-сон, 148-модда; 2003 й., 5-сон, 67-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 51-сон, 514-модда; 2005 й., 49-50-сон, 365-модда; 2009 й., 37-сон, 403-модда; 2015 й., 33-сон, 439-модда
4. Ўзбекистон Республикасининг Маъмурий жавобгарлик тўғрисидаги кодекси - Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси,

2000 й., 5-6-сон, 148-модда; 2003 й., 5-сон, 67-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 287-модда; 51-сон, 514-модда; 2005 й., 49-50-сон, 365-модда; 2009 й., 37-сон, 403-модда; 2015 й., 33-сон, 439-модда;

5. Ўзбекистон Республикаси Жиноят кодекси - Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1997 й., 9-сон, 230-модда; 1998 й., 5-6-сон, 102-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 51-сон, 514-модда; 2006 й., 41-сон, 405-модда; 51-52-сон, 499-модда; 2015 й., 33-сон, 439-модда, 52-сон, 645-модда;

6. Ўзбекистон Республикаси божхона кодексини тасдиқлаш тўғрисидаги қонуни - Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 3(I)-сон, 31-модда;

7. Ўзбекистон Республикаси Жиноят процессуал кодекси - Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1995 й., 2-сон; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси 2013 й., 1-сон;

8. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 16-сон, 217-модда;

9. Ўзбекистон Республикаси Олий Кенгашининг Ахборотномаси, 1993 й., 6-сон, 247-модда; Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1998 й., 3-сон, 38-модда; 2000 й., 5-6-сон, 153-модда; 2003 й., 5-сон, 67-модда; Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2008 й., 28-сон, 261-модда; 2012 й., 39-сон, 447-модда; 2013 й., 18-сон, 233-модда; 2014 й., 20-сон, 222-модда, 36-сон, 452-модда, 50-сон, 588-модда; 2015 й., 23-сон, 301-модда;

10. Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисининг Ахборотномаси, 1999 й., 9-сон, Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 25-сон, 2009 й., 3-сон, 52-сон;

11. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 3(I)-сон, 31-модда;

12. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2016 й., 3(I)-сон, 31-модда;
13. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2015 й. 40-сон, 516-модда;
14. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами. 2015 й. 50-сон, 626-модда;
15. Ўзбекистон Республикаси Қонун ҳужжатлари тўплами, 2015 й., 42-сон;
16. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2012 й., , 45-сон;
17. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 1-сон, 9 бет; 2015 й.,1-сон, 8 бет;
18. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2013 й., 1-сон, 9 бет; 2015 й.,1-сон, 8 бет;
19. Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2014 й., 16-сон, 178-модда.
20. “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati hamda Qozog‘iston Respublikasi Hukumati o‘rtasida O‘zbekiston-Qozog‘iston davlat chegarasi orqali o‘tish punktlari to‘g‘risida”gi Bitim (Ostona, 2001 yil 16 noyabr);
21. “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati hamda Tojikiston Respublikasi Hukumati o‘rtasida davlat chegarasi orqali o‘tish punktlari to‘g‘risida”gi Bitim (Toshkent, 2002 yil 12 fevral);
22. “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Qirg‘iziston Respublikasi Hukumati o‘rtasida davlat chegarasi orqali o‘tkazish punktlari to‘g‘risida”gi Bitim (Bishkek, 2004 yil 24 iyul);
23. “O‘zbekiston Respublikasi Hukumati bilan Turkmaniston Hukumati o‘rtasida davlat chegarasi orqali o‘tish punktlari haqida”gi Bitim (Ashxobod, 2007 yil 18 oktyabr);

III. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari Prezidenti farmonlari va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari.

1. “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2013 yil 11 mart, 10-son, 128-modda, "O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to‘plami", 2013 yil, 3-son, 16-modda;
2. “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2013 yil 11 mart, 10-son, 128-modda, "O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to‘plami", 2013 yil, 3-son, 16-modda;
3. Товарларни Ўзбекистон Республикаси чегараси орқали ноқонуний олиб ўтилишини бартараф этишга доир фаолиятни рағбатлантириш тўғрисидаги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори - Ўзбекистон Республикаси қонун ҳужжатлари тўплами, 2004 й., 43-сон, 455-модда; 2009 й., 3-сон, 14-модда; 2010 й., 14-15-сон, 106-модда
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «Vazirliklar va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari to‘g‘risida»gi 2004 yil 25-oktyabrdagi 499-sonli qaroriga 3-ilova. O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlar to‘plami. 200. – №43. – 456 – modda;
5. Vazirlar mahkamasining 1997 yilgi 20 – iyuldagi 374-son qarorining 7-bandi; O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to‘plami . 1997. – №7. - 26-modda;
6. O ‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 4 martdagi “O‘zbekiston Respublikasining bojxona chegarasi orqali olib o‘tilayotganda ko‘zdan kechirish majburiy bo‘lgan tovarlar ro‘yxatini tasdiqlash to‘g‘risida” 2006 yil 4 maydagi 75-son qarori;
7. Vazirlar mahkamasining 1997 yilgi 20 – iyuldagi 374-son qarorining 7-bandi; O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to‘plami . 1997. – №7. - 26-modda;
8. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «Vazirliklar va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari to‘g‘risida»gi 2004 yil 25-oktyabrdagi 499-sonli qaroriga 3-ilova. O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlar to‘plami. 200. – №43. – 456 – modda;
9. “O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami”, 2013 yil 11 mart, 10-son, 128-modda, "O‘zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to‘plami", 2013 yil, 3-son, 16-modda.

10. Vazirlar mahkamasining 1997 yilgi 20 – iyuldagi 374-son qarorining 7-bandi; O‘zbekiston Respublikasi hukumati qarorlari to‘plami . 1997. – №7. - 26-modda;

11. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining «Vazirliklar va idoralarning byudjetdan tashqari jamg‘armalari to‘g‘risida»gi 2004 yil 25-oktyabrdagi 499-sonli qaroriga 3-ilova. O‘zbekiston respublikasi qonun hujjatlar to‘plami. 200. – №43. – 456 – modda;

IV. Asosiy adabiyotlar:

1. “Bojxona huquqi” darslik. Oliy xarbiy bojxona instituti .:T-2012. b.20;
2. “Bojxona ishi asoslari”. Ma’ruzalar to‘plami - T.: Toshkent Moliya Instituti, 2005;
3. “Bojxona Iqtisodiyoti” ma’ruzalar matni – T.: Korakalpok Davlat Universiteti-2009;
4. «Таможенное право» Nozdrachev A.F, Gravina A.A va boshqalar. Nozdrachev A.F ning umumiy tahriri ostida. Darslik. M.; Yurist-2007.- 79 b.
5. Timoshenko I.V. «Таможенное регулирование внешнеэкономической деятельности». M., 2003;
6. O.Zayniddinov «Chegarada bojxona nazorati» Davlat bojxona qo‘mitasi. T -2014;
7. Belov N.G «Контроль и ревизия в сельскохозяйственных предприятиях». M., 2001;
8. Бутынец Ф.Ф. «Организация и проведение ревизий в условиях механизации учета в потребкооперации». M., 2001;
9. Тимошенко И.В. «Таможенное регулирование внешнеэкономической деятельности». M., 2003;.
10. “Транспорт воситасини божхона кўригидан ўтказиш бўйича услубий кўлланма”, Давлат божхона кўмитаси. T.; - 2001 йил.

V. Qo‘shimcha adabiyotlar

1. Матвиенко Г.В. «Административные процедуры в таможенном праве: Монография» / юридик фанлар доктори С.В. Запольский. тахрири остида. M., 2008;

2. Погодиной Н.А. Таможенный досмотр: правовое регулирование и перспективы развития. монография / ю.ф.д О.Ю. Бакаевой. тахрири остида М.: Юрлитинформ, 2011;
3. Погодина Н.А. «Таможенный досмотр товаров и транспортных как форма таможенного контроля: правовой аспект». диссертация. Саратов-2010;
4. Мягков А.В. Досмотр как мера административного принуждения, применяемая милицией. Дисс. ... канд. юрид. наук. Омск, 2004;
5. Сергеев Е.В. Таможенный контроль: проблемы правового регулирования. Дисс. ... канд. юрид. наук. Саратов, 2004;
6. Погодина Н.А. «Таможенный досмотр товаров и транспортных как форма таможенного контроля: правовой аспект». диссертация. Саратов, 2010;
7. Kvastunov K.V. «Меры обеспечения производства по делам об административных правонарушениях, применяемые милицией». дисс. Челябинск, 2004;
8. «Управление в таможенных органах» (по материалам США)/ Н.М. Блинов, С.И. Съедин. - М.:РИО РТА, 1995.

VI. Davriy nashrlar, statistik to'plamlar va hisobotlar.

1. А.И. Каплунов Об основных чертах и понятии государственного принуждения // Государство и право журналы. 2004. №12.

VII. Internet saytlari.

1. <http://lex.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bazasi rasmiy sayti;
2. <http://cusotms.uz> – O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi rasmiy sayti;
3. <http://www.norma.uz> – O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bazasi sayti;
4. <http://uza.uz> – O'zbekiston Milliy Axborot Agentligi rasmiy sayti;
5. <http://consultant.ru>;
6. <http://russian.doingbusiness.org> – Butunjahon bankining rasmiy sayti;

7. [https://ru.wikipedia.org](https://ru.wikipedia.org;);
8. [http://dic.academic.ru](http://dic.academic.ru;);
9. <http://www.unece.org> - Birlashgan Millatlar Tashkilotining Yevropa ittifoqi bo'yicha iqtisodiy komissiyasining rasmiy sayti.